

DILOROM ORTIQOVA

IQTISODIY XAVFSIZLIK

Toshkent – 2011

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DILOROM ORTIQOVA

IQTISODIY XAVFSIZLIK

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi oliy o`quv yurtlararo
ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan
oliy o`quv yurtlarining iqtisodiy ta`lim yo`nalishlari bo`yicha magistrantlar
uchun o`quv qo`llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent – Iqtisodiyot - 2011

Ortiqova D. Iqtisodiy xavfsizlik: (o`quv qo`llanma). -T.:TDIU, Iqtisodiyot, 2011. – 98 b.

O`quv qo`llanmada mamlakat iqtisodiy xavfsizligi masalalari, unga bo`ladigan tahdidlar, uning ko`rsatkichlari, mezonlari va quyi chegaraviy miqdorlari to`g`risida tasavvurlar beriladi.

Unda globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta`siri, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda regional tashkilotlarning o`mi va roli, terrorizm, xufiyona iqtisodiyot, korrupsiya va ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta`siri masalalariga alohida ahamiyat berilgan.

O`quv qo`llanma oliy o`quv yurtlarining iqtisodiy ta`lim yo`nalishlari o`qituvchilari va magistratura bosqichida tahsil olayotgan magistrantlarga mo`ljallangan.

Mas`ul muharrir i.f.d., prof. B.B. Berkinov

Taqrizchilar: i. f. d., prof. X.P. Abulqosimov,
i. f. d., prof. A.F. Rasulev

Ортиқова Д. Экономическая безопасность (учебное пособие). -Т.: ТГЭУ, Иктисодиёт, 2010. - 98 с.

В учебном пособии рассмотрены вопросы экономической безопасности. Оно дает представление об угрозах, показателях, критериях и пороговых значениях экономической безопасности.

В нем особое место отведено вопросам влияния процессов глобализации на экономическую безопасность страны, повышения конкурентоспособности экономики, роли и места региональных организаций в обеспечении экономической безопасности, а также проблемам терроризма, теневой экономики, коррупции и их влияния на экономическую безопасность.

Учебное пособие предназначено преподавателям высших учебных заведений, а также студентам магистратуры, обучающимся по экономическим направлениям.

Ответственный редактор д. э.н., проф. Б.Б. Беркинов

Рецензенты: д. э.н., проф. Х.П. Абулқосимов
д. э. н., проф. А.Ф. Расулев

ISBN 978-9943-333-58-1

© Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2011 y.
© Iqtisodiyot, 2011y.

KIRISH

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, iqtisodiyot xavfsizligi holati turli ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda oriyentir bo`lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy tizimdagi har qanday o`zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo`lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash, unga bo`ladigan turli tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining muqaddimasida “xavfsizlik”, “barqarorlik” va “sabitqadam rivojlanish” kabi tushunchalar do`stlik va hamkorlikning ramzi ekanligi va “aynan ana shu tushunchalar har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam poydevor”¹ yaratishi alohida ta`kidlab o`tilgan. Shuning uchun ham O`zbekiston o`zining mustaqil taraqqiyoti davomida xavfsizlikni, barcha sohalarda barqarorlik va taraqqiyotni ta`minlash borasida izchil siyosat olib bormoqda.

Inson hayot faoliyatining barcha sohalarida unga u yoki bu darajada ta`sir ko`rsatadigan xavf-xatarlar mavjud bo`lib, shu faoliyatni amalga oshirishda, yaqin va uzoqni ko`zlab, maqsadlar qo`yishda ularni hisobga olish kerak bo`ladi. Aks holda ushbu xavf-xatarlar real tahdidga aylanib, jamiyatdagi barqarorlikka putur yetkazishi mumkin.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish yo`nalishlarini belgilashda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ularning oqibatlarini xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilmasdan va baholamasdan turib biror-bir yo`nalishga ustuvorlik berish davlat va jamiyatning hayot faoliyatini ta`minlovchi tizimlarning parokandaligiga olib kelishi mumkin.

Mintaqaviy va lokal urushlar, texnogen xarakterga ega bo`lgan halokatlar, dunyoning bir mamlakatida boshlanib, tezlik bilan boshqa mamlakatlarga ham tarqalayotgan inqirozlar, terroristik aktlar ham milliy, ham xalqaro darajalarda xavfsizlikni ta`minlashning zaruratini cheksiz oshirmoqda.

AQSh ipotekali kreditlash tizimida ro`y berib, keyinchalik dunyoning boshqa mamlakatlariga ham tarqalib, global xarakter kasb etgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jahonning hech bir davlati xavf-xatarlardan kafolatlanmaganligini namoyon etdi.

O`zbekiston ham integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning uzviy bir qismi sifatida jahon iqtisodiy inqirozining tobora kuchayib borayotgan salbiy oqibatlarini his etayotgani va bundan keyin ham his etishi? Respublika Prezidenti I. Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» asarida ta`kidlab o`tiladi. Demak, globallasuv

¹ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O`zbekiston, 1997, 16-b.

² Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - T.: O`zbekiston, 2009, 31-b.

sharoitida mamlakatlarning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning dolzarbligi yanada ortib boradi.

Shundan kelib chiqib, iqtisodiyot sohasiga oid juda ko'p bilimlarni "xavfsizlik" tushunchasini hisobga olgan holda to'ldirish yoki tuzatish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillarda iqtisodiy xavfsizlik muammolari siyosiy arboblardan, olimlardan va tadqiqotchilardan e'tiborini jalb etib kelmoqda. Xavfsizlik masalalari qadimdan faylasuflar, iqtisodchilar va siyosatchilardan, jumladan, Demokrit, Aristotel, Platon kabi allomalarni ham o'ylantirgan. XX asrda jamiyat xavfsizligiga bo'lgan zamonaviy qarashlarga V. Pareto va rossiyalik yirik olim A. Bogdanovlarning asarlarida asos solingan.³

«Xavfsizlik» tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, turli ma'noda talqin etiladi. Shunga qaramasdan ularda umumiy g'oya ham mavjud bo'lib, bunga ko'ra xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatarlardan himoyalangan, kafolatlanish ma'nosini anglatadi. Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, maqbul amal qilinishiga tahdid soluvchi potensial yoki real kuch, omil hisoblanadi.

O'quv qo'llanmada xavfsizlikning ijtimoiy, siyosiy, axborot, oziq-ovqat, moliyaviy kabi turlarining ahamiyati va muhim ekanligini tan olgan holda, iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosi sifatida ko'rib chiqilgan.

O'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonidagi yordamlari uchun muallif Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Makroiqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi Sh. Djumaniyozov, assistent O.X. Shodmonov va "Iqtisodiyot" fakulteti talabasi J. Ahmedovlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

³ Экономическая безопасность России. Общий курс. /Под редакцией В.Сенчагова. – М.: ДЕЛО, 2005, с.9.

I bob. IQTISODIY XAVFSIZLIK FANINING PREDMETI, ASOSIY USULLARI

1.1. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi: uning ta`rifi va mazmuni

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o`shish, ta`minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarining himoyalangan holatini ifodalaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo`lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o`z manfaatlarini anglab yetgan davrlardan paydo bo`la boshlagan.

Iqtisodiy xavfsizlik o`zining obyekt va subyektlariga ega bo`lib, uning ob`yekti deganda mamlakatning iqtisodiy tizimi hamda uni tashkil etuvchi elementlari tushuniladi.

Iqtisodiy xavfsizlik obyektlariga quyidagilar kiradi: tabiiy boyliklar; inson resurslari, mehnatga layoqatli axoli; ishlab chiqarish fondlari; ko`chmas mulk; moliyaviy resurslar; xo`jalik tizimlari; mintaqalar; oila; inson.

Iqtisodiy xavfsizlik subyektlari quyidagilardan iborat: funksional va tarmoq vazirliklari hamda idoralari; soliq xizmatlari; bojxona xizmatlari; banklar; birjalar; sug`urta kompaniyalari; qonun chiqaruvchi organlarning tegishli qo`mita va komissiyalari; mahsulot ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, ish va xizmatlar ko`rsatuvchilar; iste`molchilar jamiyatlari.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi turlari mavjud: ishlab chiqarish –texnologik sohalardagi; sanoat sohasidagi; oziq-ovqat; demografik; moliyaviy; axborot va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi xavfsizlik va h.k.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi indikatorlari ajratib ko`rsatiladi: yalpi ichki mahsulot hajmining o`shishi; axolining turmush darajasi va sifati; inflyatsiya darajasi; ishsizlik darajasi; iqtisodiyot tarkibi; davlat qarzi; jamiyatning mulkiy tabaqalanishi; iqtisodiyot va jamiyatning kriminallasuvi; ishlab chiqarishning texnik va texnologik holati; raqobatbardoshlik; importga bog`langanlik; xufiyona iqtisodiy faoliyat miqyosi; oltin valuta zaxiralari.

Iqtisodiy xavfsizlikni mezonlarga asoslangan holda o`rganish deganda, iqtisodiyot holatini umumlashtirilgan holda, ya`ni resurs salohiyati va uning rivojlanish imkoniyatlari, resurslardan foydalanish samaradorligi darajasi, raqobatbardoshligi va hokazolarni baholash tushuniladi.


Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi bo`lganligi bois ham uni ta`minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash mamlakatning har sohasida yuksalishining asosiy shartlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, “ushbu dolzarb masalada yengil fikrlash yoki muqarrar

xavfga bepisandlik bilan qarash, uni kamaytirib ko`rsatish qanday oqibatlarga olib kelganligi haqida tarixdan istalgancha misollar keltirish mumkin”⁴.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat xavfsizligi tizimidagi muhim yo`nalish bo`lib, mamlakat mudofaa qobiliyatini ta`minlash, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ekologik halokatlardan himoya qilish kabi yo`nalishlar bilan bir qatorda turadi. Mana shu yo`nalishlar bir-birini to`ldirib turadi va bir-biri bilan uzviy bog`liqdir. Chunki, mamlakat iqtisodiyoti baquvvat bo`lmasa, u barqaror rivojlanmasa, ushbu mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta`minlash mushkul bo`lib qoladi. Ayni paytda, mamlakatda ijtimoiy barqarorlik ta`minlanmas ekan, uning mudofaa qobiliyati ham mustahkam bo`lmaydi va iqtisodiyoti samarali rivojlanmaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to`xtalib o`tish kerak. Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma`naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo`lish va farovonlikka intilish to`g`risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g`oyaviy va boshqa omillar ta`siri va tahdidlardan himoya qilishga yo`naltiriladi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo`lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g`oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o`z ichiga oladi (1-chizma).



1-chizma. Milliy xavfsizlik turlari

Iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishiga qodirligini ta`minlashga yo`naltirilgan.

Respublikamizda iqtisodiy xavfsizlik masalasi mamlakat milliy xavfsizligining bir qismi sifatida birinchi marta O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ko`rib chiqildi. Unda mamlakatning milliy xavfsizligi, uning ajralmas qismi bo`lgan iqtisodiy xavfsizlik masalalari nazariy jihatdan chuqur tahlil etildi.

⁴ Abdusamedov N. Iqtisodiy xavfsizlik. -T.: "Akademiya" 2008. 9-b.

Hozirgi paytda iqtisodiy xavfsizlik, bu – mamlakat iqtisodiyotini doimiy barqaror rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning umummilliy majmuasi bo`lib, u albatta davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va mustaqilligi hamda tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turish mexanizmini ko`zda tutadi.

Ilmiy adabiyot va darsliklarda «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasining turlicha talqinlari berilgan. Bir guruh olimlar mazkur tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyatini, davlat siyosatining ijtimoiy yo`naltirilganligini, milliy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlashga qodir bo`lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining ahvoli sifatida ta`riflaydi.⁵

Boshqa bir guruh olimlar esa o`rganilayotgan tushunchani hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan, milliy manfaatlarni himoya qilish va ro`yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta`minlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi, deb talqin qiladilar.⁶

A. Isaxodjaev va A. Rasulevlarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik, bu-faqat milliy manfaatlarni himoya qilishdan iborat bo`lmay, davlat hokimiyati institutlari, ijtimoiy assotsiatsiyalar, xususiy sektorning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining milliy manfaatlarni amalga oshirish va himoya qilish mexanizmini yaratish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta`minlashga tayyorligi va qobiliyatidir.⁷

“Iqtisodiy xavfsizlik” deganda iqtisodiyotning mamlakat ijtimoiy, siyosiy va mudofaa qobiliyatining yetarli darajasini ta`minlash imkonini beradigan holati tushuniladi. “Iqtisodiy xavfsizlik” xalqning (davlat orqali) mustaqil ravishda, tashqaridan bo`ladigan aralashish va tazyiqlarsiz o`z iqtisodiy taraqqiyot yo`li hamda shakllarini belgilashidir. “Iqtisodiy xavfsizlik” nafaqat milliy manfaatlarni himoyalanganligi, balki hokimiyat institutlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish borasidagi milliy manfaatlarni amalga oshirish va himoyalash mexanizmlarini yaratishga bo`lgan tayyorligi va qobiliyati hamdir.

Rossiyalik mashhur olim, akademik L. Abalkin «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasining uchta asosiy elementini ajratib ko`rsatgan. Bular: iqtisodiy mustaqillik, milliy iqtisodiyot barqarorligi, mamlakatning o`z-o`zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirligi.⁸

L. Abalkinning fikricha, iqtisodiy mustaqillik absolyut xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga bog`liq qilib qo`yadi. Bunday sharoitlarda iqtisodiy mustaqillik milliy resurslarni nazorat qilish imkoniyatini bildiradi. Ishlab chiqarish, samaradorlik va mahsulot sifatining shunday darajasiga erishish kerakki, u mahsulot raqobatbardoshligini ta`minlasin va jahon savdosida, kooperatsiya aloqalarida va fan-texnika yutuqlarini ayirboshlashda teng ishtirok etish imkoniyatini bersin. Milliy iqtisodiyot barqarorligi esa mulkchilikning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati uchun sharoit va kafolatlarni yaratish, barqarorlikka putur yetkazishi mumkin bo`lgan omillarga (masalan,


⁵ Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки.- М.: ЗАО «Финстатинформ», 1998, с.12.

⁶ Shu manba, 12 -b.

⁷ Isaxodjaev A., Rasulev A. Xufyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. -T.:O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004, 157-b.

⁸ Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. //Вопросы экономики. 1994, №12, с. 45

iqtisodiyotda kriminal tuzilmalar bilan kurash, og'ir ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan daromadlar taqsimlanishida katta tafovutlarga yo'l qo'ymaslik) to'siq bo'lish imkoniyatlarini bildiradi.



2-chizma. Iqtisodiy xavfsizlik darajalari ⁹

L. Abalkinning ta'kidlashicha, mamlakatning o'z-o'zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirligi, ayniqsa hozirgi paytda, o'ta muhimdir. Investitsiya va innovatsiyalar uchun kerakli muhitni yaratish, ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiya qilish, xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy darajasini oshirish kabilar milliy iqtisodiyot barqarorligining zarur va muhim shartlaridan biridir¹⁰.

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatidirki, bunday holatda mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoyalangani, mamlakat iqtisodiy rivojining ijtimoiy yo'naltirilganligi, ichki va tashqi jarayonlar rivojidadagi eng noqulay sharoitda ham mudofaa salohiyatining yetarli darajada ta'minlanganligini ifoda etadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari mavjud:

- xalqaro (global va mintaqa darajasida);
- milliy, lokal (mamlakat ichidagi mintaqa yoki tarmoq darajasida);
- xususiy (firma va shaxs darajasida).

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik har bir davlat, ya'ni dunyo hamjamiyati a'zosining o'z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta'minlangandagi holatidir.

⁹ Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. – СПб.: Питер, 2007, с. 67

¹⁰ Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение.// Вопросы экономики. 1994, №12, с. 45

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirishda taraqqiyot modellarini zo`rlab o`tkazish, iqtisodiy va siyosiy jihatdan majburlashdan voz kechish, har qanday xalqning o`z mustaqil yo`lini tanlash huquqini tan olish, turli mulkchilik shakllari va manfaatlari mavjudligining qonuniy ekanligini hurmatlash yo`ldan boriladi.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining milliy manfaatlarini kafolatli himoyalanganligi, mamlakat rivojlanishining ijtimoiy yo`naltirilganligi, yetarli iqtisodiy va mudofaa salohiyatining ta`minlangandagi holatini ifodalaydi.

Korxonalar (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi – ma`muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va injener-texnik chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir¹¹.

Ko`pchilik mutaxassislar fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqishda unga ta`sir etuvchi barcha omillarni va birinchi navbatda iqtisodiyot samaradorligini oshirishni hisobga olish kerak.

Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyotning izchil va samarali o`shirishini ta`minlay oladigan ichki va tashqi shart-sharoitlar yig`indisini hamda uning jamiyat, davlat, shaxsning ehtiyojlarini qondira olish, tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta`minlay olish, turli tahdidlardan himoyasini kafolatlay olish qobiliyatini ifodalaydi.

Bundan kelib chiqadiki, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi, birinchi navbatda, iqtisodiyotning samaradorligi bilan ta`minlanishi kerak, ya`ni iqtisodiyot yuqori mehnat unumdorligini ta`minlash, mahsulot sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni ta`minlash asosida o`zini o`zi himoya qilishi zarur. Bu esa davlat organlari, iqtisodiyotning barcha bo`g`inlari va tashkiliy tuzilmalari tomonidan qo`llab-quvvatlanishi kerak.

1.2. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti, ob`yekti va maqsadi

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyotida katta o`zgarishlar amalga osha boshladi. Bu integratsiya jarayonlarida va xalqaro mehnat taqsimotida, globallashtirish jarayonlarining tezlashuvida namoyon bo`ldi. Jahon mamlakatlarining taraqqiyot darajasidagi tafovutlarning kuchayib borishi va rivojlangan davlatlar tomonidan teng bo`lmagan iqtisodiy munosabatlarning amalga oshirilishi, ya`ni bilvosita nazorat qilish (investitsiyalar kiritish, kredit va subsidiyalar berish yo`li bilan) siyosatini amalga oshirish, ba`zi hollarda siyosiy tazyiq o`tkazish kabi hodisalar ham hozirgi davr xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Iqtisodiy jihatdan qaram mamlakatlarga savdo embargosi orqali siyosiy shartlar qo`yish amaliyotini, buning oqibatlarini boshdan kechirgan Iroq, Eron, Liviya, Kuba kabi mamlakatlar misolida ko`rish mumkin.

Ma`lum davrlarda jahon iqtisodiyotida, alohida olingan mintaqalarda, mamlakatlarda sodir bo`ladigan turli inqirozlar milliy, shu jumladan iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash muammolarining dolzarbligini oshiradi. Ma`lumki, AQSh

¹¹Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. -T.: Akademiya, 2006, 111-b.

ipotekali kreditlash tizimidan boshlanib, keyinchalik jahon iqtisodiyotini qamrab olgan “moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ko`plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o`shish sur`atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog`liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi”¹². Bunday sharoitda milliy manfaatlarni himoya qilish, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta`minlash, axoli turmush darajasining pasayib ketishini oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada zaruriy chora-tadbirlarni belgilash uchun tahdidlarning xarakteri, miqyosi, ularning oqibatlarini bilish kerak.

Hozirga kelib, O`zbekiston integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning, global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” asarida ta`kidlanganidek, buning tasdig`ini respublikaning tashqi dunyo bilan aloqalarining tobora kuchayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko`magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo`yicha dasturlarni amalga oshirilayotganligida, O`zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida va boshqalarda ko`rish mumkin.

Bunday sharoitda mamlakat korxonalarini tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo`lishini ta`minlash, dunyo bozorlari talabiga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportni rag`batlantirish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta`minlash esa mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashning muhim omili bo`lib hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ham, milliy xavfsizlikni ham birdek ta`minlash davlatning eng asosiy funksiyalaridan biridir.

Amerikalik mutaxassislarining fikriga ko`ra, iqtisodiy xavfsizlik ta`minlanishi uchun kamida ikkita shart bajarilishi kerak:

birinchisi, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini, xo`jalikning taraqqiy etishiga tegishli bo`lgan qarorlarni o`z manfaatlaridan kelib chiqib qabul qilish qobiliyatini saqlab qolish;

ikkinchisi, axolinin erishilgan turmush darajasini saqlab qolish va uni yanada yuksaltirish imkoniyatlarining mavjud bo`lishi¹³.

Shundan kelib chiqib iqtisodiy xavfsizlik, eng avvalo, mamlakat milliy manfaatlarining himoyalanganligidir.

Bir tomondan iqtisodiy tizimning ob`yektiv himoyalanih hususiyatlari, unga xavf soladigan kuch va omillarga qarshi turish mexanizmini, ikkinchi tomondan, davlatning himoyachi sifatidagi funksiyalari, shu maqsadda tashkil etiladigan institutlarni o`rganish ushbu fanning predmeti hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot va unda amalga oshadigan jarayonlar “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining ob`yektini tashkil etadi.

¹² Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. –T.: O`zbekiston, 2009. 4-b .

¹³ Богданов И.Я. Экономическая безопасность России. Теория и практика. - М., 2001. с.21

Davlat, jamiyat va shaxsning muhim hayotiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida nazariy va amaliy bilimlar berish fanning maqsadi bo'lib hisoblanadi.

1.3. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari (indikatorlari)

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. **Makro. va mikro**darajada iqtisodiy xavfsizlikka bo'ladigan tahdidlarni tahlil qilish va bashoratlashda iqtisodiy xavfsizlikning mingdan ziyod ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Lekin shularning ichida 19 ta indikatoridan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaniladi. Bu indikatorlar iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlarida va ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikning muhim jihatlarini ifodalaydi. 19 ta indikatorning xususiyatlaridan biri ular orasidagi o'zaro bog'liqlikdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezon va ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Ko'rsatkichlar tahlikali chegaralar sifatida qabul qilingan birliklardan chekingan holatlarda tizim izchil rivojlanishga bo'lgan qobiliyatini, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yo'qotib boradi, transmilliy korporatsiyalarning ekspansiyasi ob'yektiga aylanib qoladi, milliy boyliklarning talon-taroj qilinishi, xufiyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarining kengayishidan zarar ko'radi.

Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan xoli bo'lgan tarzda rivojlanish chegaralarini son jihatdan ham belgilashi talab etiladi.

Demak, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma'lum chegara doirasida yo'l qo'yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko'rsatkichlarning o'zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. Shu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini normal taraqqiy etishiga to'sqinlik qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikda negativ, buzuvchi jarayonlarning shakllanishiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha milliy manfaatlarni ta'minlash maqsadida ko'rsatkichlarning eng quyi yoki yuqori chegaralari aniqlanadi.

Hokimiyat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlik siyosati ko'rsatkichlarning barchasini me'yorida saqlab turishga qaratilishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning bir chegaraviy ko'rsatkichi boshqa shunday ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga ta'minlanishi mumkin emas. Davlat har bir myayyan holatda xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik uyg'unlashuvini ta'minlashga harakat qilishi kerak. Ayni paytda, qisqa davr oralig'ida foyda keltirishi mumkin bo'lgan ish, strategik jihatdan umuman foydasiz bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik mezoni – iqtisodiy xavfsizlik mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy holatni baholash hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash;
- resurs, kapital, mehnatdan samarali foydalanish darajasini yetakchi mamlakatlar darajasiga va shuningdek, ichki va tashqi xarakterga ega bo'lgan tahdidlar minimumni tashkil etgandagi darajasiga muvofiqligini baholash;

- iqtisodiyot raqobatbardoshligini baholash;
- hududiy sarhadlar va iqtisodiy makonning yaxlitligini baholash;
- suverenitet va mustaqillikni, tashqi tahdidlarga qarshi turish imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy barqarorlikni va ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olish va hal etish imkoniyatlarini baholash.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va ularning o'zgarish yo'nalishlari va istiqbolini aniqlash imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikricha, mezonlar biror-bir harakatni amalga oshirish uchun yo'llanma sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Uni amalga oshirishda jamiyat bazisini qayta tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish salohiyatini qayta qurish, yangi bozor institutlarini, xo'jalik yuritish dastaklarini, boshqarish tizimini yaratishga muvofiq bosqichma-bosqich harakat qilish zarur bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi ko'rsatkichlari mavjud:

- yalpi ichki mahsulot (hududiy yalpi mahsulot); inflyatsiya darajasi; davlat budjeti kamomadi; ichki qarz darajasi; tashqi qarz darajasi; ishsizlik darajasi; turmush darajasi va sifati; oltin valuta zaxiralari;
- xufiyona iqtisodiyot faoliyati; ekologik holat.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari yana bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud. Masalan, axoli daromadlari, chakana narxlar miqdori, uy-joy bilan ta'minlanganlik, hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, hududning to'lov balansi, eksport-import saldosi va boshqalar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'rsatkichlarning barcha majmuasi qabul qilingan chegaralar doirasida bo'lgan va bir chegaraviy ko'rsatkich boshqa bir chegaraviy ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga yaxshilanmagan taqdirdagina xavfsizlikning eng yuqori darajasiga erishiladi.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ularning tahlikali chegara miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik dinamikada o'rganilishi zarur.

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegarasiga oid indikatorlar 50 ta ko'rsatkichni o'z ichiga olgan bo'lib, ular to'rt guruhga ajratilib turkumlangan:

- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moliyaviy tizim barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ijtimoiy soha ko'rsatkichlari;
- tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari¹⁴.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi kabi ko'rsatkichlar kiradi.


Ikkinchi guruh ko'rsatkichlariga esa davlat budjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar kiradi.

Uchinchi guruh axoli daromadlari darajasi, axolining mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik kabilarni o'z ichiga oladi.

¹⁴ Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. – T.: Akademiya, 2006.

To`rtinchi guruh ko`rsatkichlariga esa mamlakat ichki iste`molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi kabi indikatorlar kiradi.

Xo`jalik yuritishning istalgan sohasida – ishlab chiqarish, tashqi savdo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va boshqalarda, barcha mamlakatlar uchun xavfsizlikning ma`lum chegaralari mavjud bo`lib, ularni ilmiy asoslangan me`yorlar asosida aniqlash mumkin. Ayni paytda, ayrim olingan mamlakatda mavjud bo`lgan vaziyatga to`liq baho beruvchi universal ko`rsatkich mavjud ekanligi to`g`risida gapirish unchalik to`g`ri bo`lmaydi. Chunki, iqtisodiy xavfsizlik ko`p omillar ta`sirida bo`ladigan hodisa hisoblanib, u milliy ishlab chiqarishning uzluksiz o`zgarib turuvchi ichki va tashqi sharoitlari yig`indisini aks ettiradi.



3- chizma. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining guruhlanishi

Akademik V.K. Senchagovning umumiy tahriri ostida chop etilgan “Экономическая безопасность России” nomli dasrlkda ta`kidlanishicha, iqtisodiyot holati, uning xavfsizligi uchta indikator, ya`ni iste`mol narxlari, milliy valuta kursi va axolining pul daromadlari bilan belgilanadi. Mana shu indikator iqtisodiy xavfsizlikning boshqa indikatorlariga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Ular

iqtisodiy xavfsizlik vositasi sifatida xizmat qiladi¹⁵. Bunday ko`rsatkichlar davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash borasidagi vazifalarini amalga oshirish vositalaridan biri hisoblanadi.

Chegara ko`rsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishidir. Mazkur ko`rsatkichlar tizimli tahlil, prognoz va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning muhim vositasidir. Iqtisodiyot sohasida asosiy ustuvorlik axolining turmush darajasini yuksaltirish bo`lganligi bois YaIM hajmi va u bilan bog`liq ko`rsatkichlarning quyi chegaraviy miqdorlarini belgilashda aynan shu ko`rsatkich asos sifatida olinishi kerak.

Jahon tajribasidan ma`lumki, ijtimoiy sohada tahdidlar minimal darajada bo`lishi uchun yashash minimumidan past daromadga ega bo`lgan axoli ulushi 7-10 foizni tashkil etishi, boy va kambag`allar daromadlari o`rtasidagi tafovut esa sakkiz martadan oshmasligi kerak.

Bir guruh rossiyalik olimlar iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlarini belgilashda BMT tomonidan 1990-yilda qabul qilingan insoniy rivojlanish indeksini taklif etdilar. Mazkur indeks ijtimoiy taraqqiyotning eng aniq umumlashgan ko`rsatkichi (mezoni) bo`lib hisoblanadi¹⁶.

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlari uchta guruhga ajratib ko`rsatiladi:¹⁷

birinchi guruhga ishlab chiqarish sohasi, uning tashqi dunyoga minimal darajada bog`liqlik sharoitida faoliyat yuritish qobiliyatini kiritadilar. Ushbu guruhga quyidagi chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- YaIM umumiy hajmi – “katta yettilik” bo`yicha o`rtacha indikatorning 75 foiz miqdorida;
- axoli jon boshiga YaIM hajmi – “katta yettilik” bo`yicha o`rtacha indikatorning 50 foiz miqdorida;
- dunyo bo`yicha o`rtacha indikatorning 100 foiz miqdorida;
- sanoat mahsuloti ishlab chiqarishi umumiy hajmida qayta ishlash sanoati ulushi – 70 foiz;
- YaIMda investitsiyalar ulushi – 25 foiz;
- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik ulushi – 20 foiz;
- axolining ichki iste`molida import ulushi – 30 foiz, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari – 25 foiz;
- mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi – 6 foiz.

Ikkinchi guruh ko`rsatkichlari tarkibiga axoli turmush darajasi va sifati bilan bog`liq chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- axolining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo`lgan fuqarolar ulushi - 7 foiz;
- umr ko`rish uzunligi – 70 yosh;
- boy va kambag`allar daromadlari o`rtasidagi tafovut – 8 marta;
- ishsizlik darajasi – 7 foiz.

¹⁵ Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб.: Питер 2007, с. 12.

¹⁶ Shu manba 73-b.

¹⁷ Shu manba, 74-75 b.

Uchinchi guruh ko`rsatkichlari moliyaviy holat bilan bog`liq bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

- YaIMga nisbatan ichki qarz miqdori – 30 foiz;
- YaIMga nisbatan tashqi qarz miqdori – 25 foiz;
- YaIMga nisbatan budget defitsiti – 5 foizgacha;
- naqd xorijiy valuta hajmining naqd milliy valuta hajmiga nisbati - 25 foiz;
- YaIMga nisbatan pul massasi (M2) – 50 foiz.

Mutaxassislarning fikriga ko`ra, chegaraviy ko`rsatkichlarning bir xil miqdorini belgilab qo`yish uslubiy jihatdan uncha to`g`ri bo`lmaydi. Masalan, birinchi guruh ko`rsatkichlarida keltirilganidek, investitsiyalar ulushi YaIMga nisbatan hisoblaganda 25 foizdan kam bo`lgan holatda iqtisodiyotga tahdid yuzaga keladi. Lekin, ayni paytda investitsiyalar ulushi 40 foiz bo`lganida ham tahdid yuzaga kelishi mumkin. Farq shundaki, birinchi holatda mehnat qurollarining moddiy va ma`naviy jihatdan eskirishi natijasi sifatida tahdid yuzaga kelsa, ikkinchi holat axoli turmush darajasi va sifatining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning ayrim chegaraviy miqdorlarini qat`iy qilib emas, balki ma`lum doira chegarasida belgilash maqsadga muvofiq bo`ladi.

Qisqacha xulosalar

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va O`zbekistonning integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning, global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi sharoitida mamlakat milliy xavfsizligining muhim elementi bo`lgan iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlik esa eng avvalo mamlakat milliy manfaatlarini himoyalanganligini aks ettiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo`lib, iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o`z manfaatlarini anglab yetgan davrlardan paydo bo`la boshlagan. Iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoyalangani, mamlakat iqtisodiy rivojining ijtimoiy yo`naltirilgani, ichki va tashqi jarayonlar rivojidadagi eng noqulay sharoitda ham mudofaa salohiyatining yetarli darajada ta`minlanganligini ifoda etadi.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko`rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Mana shu mezon va ko`rsatkichlar asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma`lum bir chegara doirasida yo`l qo`yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko`rsatkichlarning o`zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. Shu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini barqaror taraqqiy etishiga to`sqinlik qiladi.

Nazorat savollari

1. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
2. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasiga ta`rif bering.
3. “Iqtisodiy xavfsizlik” fani nima uchun o`rganiladi?
4. “Iqtisodiy xavfsizlik” predmeti va ob`yekti nimalardan iborat?

5. O`zbekistonning dunyo hamjamiyatiga, global iqtisodiy makonning bir qismiga aylayotganligi nimalarda namoyon bo`lmoqda?
6. Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda davlat qanday o`rin tutadi?
7. Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash omillari to`g`risida gapirib bering.
8. Iqtisodiy xavfsizlik ob`yektlariga nimalar kiradi. Ularga qisqacha ta`rif bering.
9. Iqtisodiy xavfsizlikning indikatorlari deganda nimani tushunasiz?
10. Iqtisodiy xavfsizlikning darajalariga ta`rif bering.
11. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko`rsatkichlarini aytib bering.
12. Iqtisodiy xavfsizlikning chegara ko`rsatkichlari deganda nimani tushunasiz?
13. Iqtisodiy xavfsizlikning chegara ko`rsatkichlari nechta guruhga bo`lib o`rganiladi?
14. Nima uchun iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlari tahlil qilinadi va baholanadi?
15. Iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlarini guruhlarga ajrating.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir. -T.: O`zbekiston, 2010 y.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruza. -T.: O`zbekiston, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataf etishning yo`llari va choralari. -T.: O`zbekiston, 2009.
4. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O`zbekiston, 1997.
5. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. -T.: Akademiya, 2006.
6. Abdusamedov N. Iqtisodiy xavfsizlik. - T.: 2008.
7. Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. //Вопросы экономики. 1994, №12, с. 45, 44-48с.
8. Isaxodjaev A., Rasulev A. Xufiyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. -T.: O`zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2004.
9. Экономическая безопасность: учеб. пособие для студентов экономических вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. /Под ред. В.А.Богомолова. М. ЮНИТИ ДАНА, 2009.
10. Экономическая и национальная безопасность. Учебник /под ред. д.э.н., проф. Л.П. Гончаренко. М.: ЗАО «Экономика», 2008.
11. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2007.
12. Экономическая безопасность России. Учебник. /Под общ. ред. акад. Сенчагова В.К. -М.: ДЕЛО, 2005.
13. Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки.-М.: ЗАО «Финцатинформ», 1998.

II bob. IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA`SIR ETUVCHI TAHDIDLAR VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASH ZARURATI

2.1. Iqtisodiy xavfsizlikka ta`sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar

Tahdid jamiyat, davlat va ularning sub`yektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro`yobga chiqarishga to`squinlik qiladigan, ziyon-zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug`diradigan omillar va shart-sharoitlarni anglatadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida mamlakatimiz, millatimiz, jamiyatimiz va har bir fuqaroning xavfsizligiga, yangilanish va taraqqiyot yo`liga, jahon hamjamiyatiga qo`shilish yo`liga solinayotgan tahdidlar guruhlariga ajratilib, tahlil qilingan¹⁸.

1-jadval

Tahdidlarning turlanishi

Tahdidlarning turlari	Ularning tavsifi
Manbalariga ko`ra	ichki, tashqi
Faoliyat sohalari bo`yicha	Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, harbiy, ekologik, demografik, ilmiy-texnikaviy, texnologik, intellektual, axborot
Inson faoliyatiga nisbatan	Ob`yektiv, sub`yektiv
Amalga oshish ehtimoli bo`yicha	Inqiroz, qayta qurish, isloh etish, qarama-qarshilik, sherikchilik tufayli
Oqibatiga ko`ra	Umumiy, lokal, xususiy

Manba: Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. – T.: Akademiya, 2006, 56 b.

Iqtisodiy xavfsizlikka bo`ladigan tahdidlar mamlakatdagi iqtisodiy holatga salbiy ta`sir ko`rsatadigan, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy manfaatlarini cheklab qo`yadigan, milliy qadriyatlar va hayot tarziga xavf soladigan hodisa va jarayonlardir¹⁹.

Odatda iqtisodiy tahdidlar umumlashtirilgan holda ichki va tashqi tahdidlarga ajratilib o`rganiladi. Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo`jalik yurituvchi sub`yektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug`diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, axoli turmush darajasining pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi.

Ichki tahdidlar jumlasiga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishga qodir emasligi, taraqqiyotda innovatsion asoslarning zaifligi, qarama-qarshiliklar va ijtimoiy ziddiyatlarni hal etishda manfaatlar balansiga erisha olmaslik kabilar kiritiladi.

Jahon narxlari va tashqi savdodagi o`zgarishlar, kirib kelayotgan kapital (xorijiy investitsiyalar) hajmidan mamlakatdan chiqib ketayotgan kapital hajmining

¹⁸ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O`zbekiston, 1997, 15 b.

¹⁹ Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2007, с.67.

ortib ketishi, tashqi qarz miqdorining kattalashib ketishi, importga bogʻlanib qolish, eksport tarkibida xomashyo mahsulotlari ulushining oshib ketishi tashqi tahdidlar qatoriga kiradi.

Agar mamlakat ichidagi tahdidlarni oldi olinmasa, ular oʻz vaqtida bartaraf etilmasa, ichki tahdidlar iqtisodiyotni tashqi tahdidlarga sezuvchan qilib qoʻyadi. Ichki tahdidlar davlatni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan zaiflashtirib, harbiy sohada tahdidlarning kuchayishiga olib keladi. Davlatning iqtisodiy jihatdan zaif boʻlishi millatni xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qaram boʻlib qolishiga olib keladi. Bunda davlatning budget mablagʻlari ijtimoiy majburiyatlarni bajarishga, masalan, budget sohasi xodimlariga ish haqi toʻlash, pensiya, nafaqalar berishga ham yetmay qolishi mumkin. Ichki tahdidlar milliy tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki talabni qondira olmaslik natijasida iqtisodiyotni importga, tashqi bozor konyunkturasiga bogʻliqligini kuchaytirib qoʻyadi. Davlatning ichki tahdidlarga qarshi turish qobiliyatining sust boʻlishligi uni samarali tashqi siyosat olib borishdan mahrum qilib qoʻyadi, u milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qoʻllab-quvvatlay olmaydi, raqobatbardosh mahsulotlar eksportini ragʻbatlantirib, yangi tovar bozorlarini egallay olmaydi.

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar sifatida quyidagilar keltiriladi²⁰:

- mamlakat iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanganligi va tarkibiy deformatsiyaning kuchayishi;

- milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;

- iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;

- yuqori darajadagi inflyatsiya;

- mineral – xomashyo bazalarining kam oʻrganilganligi;

- mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yoʻnalishlarida ilgʻor oʻrinlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat nufuzi va obroʻ-eʻtiborining tushib ketishi;

- infratuzilmaning rivojlanmaganligi;

- ichki bozorlardan milliy tovarlarning chet el tovarlari tomonidan siqib chiqarilishi;

- hududiy separatizm va lobbizmning yuqoriligi;

- investitsion faollikning pasayishi;

- ijtimoiy ziddiyatlar kelib chiqish xavfining mavjudligi;

- qonunchilikning rivojlanmaganligi, huquqiy intizomning sustligi;

- moliyaviy va shartnomaviy intizomning pastligi va boshq.

Tashqi tahdidlar jumlasiga esa quyidagilar kiritiladi:

- eksport tarkibida xom ashyo mahsulotlarining ustuvorligi;

- mamlakatning import mahsulotlariga qaramligi, bogʻliqligi;

- import tarkibining ratsional emasligi;

- tashqi qarzlarning oʻsib borishi;

- eksport va valuta nazoratining yaxshi yoʻlga qoʻyilmaganligi;

- bojxona chegaralarining yetarli darajada belgilanmaganligi;

²⁰ Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. – T.: Akademiya, 2006, 57-58 –b.

- eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivojlanmaganligi.

Yuqorida keltirilgan ichki tahdidlar orasida iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuvining kuchayishi iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan tahdidlardan bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun birinchi navbatda, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish kerak. Bunday o'zgarishlarning mazmuni ishlab chiqarish bilan talab tarkibi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashda ifodalanadi. Shuni hisobga olgan holda, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar davomida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berildi. Ayniqsa, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash kabi masalalar birinchi navbatda hal etiladigan vazifalar qatoridan o'rin olgan.

Mamlakatda investitsion va innovatsion faollikning susayishi ham jiddiy tahdid hisoblanadi. Respublikada iqtisodiyotga bo'ladigan bunday tahdidning oldini olish maqsadida faol investitsiya siyosati olib borilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Dastur ishlab chiqildi. Bu loyihalar yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlari, yengil va to'qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga tegishlidir.

Loyihalashtirish va qurilish ishlari boshlanayotgan inshootlarni kompaniya va korxonalarining o'z mablag'lari umumiy hisobda 8,2 milliard dollar, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi kreditlari (2,5 milliard dollar), xorijiy investitsiya va kreditlar (13,5 milliard dollar) hisobidan amalga oshirish mo'ljallangan²¹.

Axolining mulkiy jihatdan tabaqalashuvi ham iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Mana shunday tahdidlarning oldini olish maqsadida respublikada kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilmoqda. Ish haqi, pensiya, nafaqalar miqdori muntazam ravishda oshirib borilmoqda. Daromadlarni oshirishning ishonchli manbai sifatida axolini ish bilan bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga erishilmoqda.

2.2. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri

XX asrning oxirgi choragida jahon hamjamiyatining iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi rivojlanishi globallashuv jarayonlari ta'sirida amalga oshdi. Globallashuvning iqtisodiy mazmuni va mohiyati, birinchi navbatda, xo'jalik taraqqiyoti manbalari, omillari va shakllari bilan bog'liqdir. Bu yerda gap sarmoyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi, intellektual va moliyaviy resurslar, boshqaruv va boshqalar haqida ketmoqda. Ushbu jarayonlar xalqaro savdo va investitsiya

²¹ Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. 38 -bet.

hajmining o`shishi, jahon moliya bozorlari va ishchi kuchi bozorlarining misli ko`rilmagan tarzdagi diversifikatsiyasi, jahon xo`jalik aloqalarida transmilliy korporatsiyalar rolining oshishi, global raqobatning keskinlashuvida namoyon bo`lmoqda.

Globallashuv iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o`tish davrining mahsuli hisoblanadi. Demak, globallashuv jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayondir. Jahon banki ma`lumotlariga ko`ra, 1995-yildayoq dunyo axolisining 90 foizi globallashuv jarayonlariga tortilgan.

“Globallashuv” iborasi birinchi marta 1983-yilda T. Levitt tomonidan qo`llangan. U “ko`pmillatli yirik korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan alohida mahsulotlar bozorlarining qo`shilib ketish hodisasini” globallashuv iborasi bilan ifodalagan²².

Globallashuv baynalmilallashuvning eng yangi bosqichi bo`lib, unda dunyo xo`jaligi yagona iqtisodiy organizmga aylana boshladi. Mamlakatlararo tovar va xizmatlar, kapital va axborot oqimlarining, xalqaro miqyosda mehnat resurslari harakatchanligining keskin o`sb borishi globallashuvning tavqitli xususiyatlaridan biridir. Keyingi davrlarda ishlab chiqarishning milliy bozorlarga emas, ko`proq dunyo bozorlariga yo`naltirilganligi dunyo iqtisodiyoti globallashuvining hozirgi bosqichini harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi²³.

Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta`siri masalalarini o`rganishda “iqtisodiy globallashuv” muammosiga ko`proq ahamiyat berish kerak bo`ladi.

Transmilliy korporatsiyalarning o`sb borishi, ya`ni ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, xalqaro miqyoslarda pul ko`rinishidagi kapitalning turli shakllarda harakat qilishi “iqtisodiy globallashuv” tushunchasiga sifat jihatdan yangi mazmun baxsh etdi.

2 – jadval

Globallashuv jarayonlarining asosiy xususiyatlari

	Rivojlangan mamlakatlar		Rivojlanayotgan va o`tish iqtisodiyoti mamlakatlari		Barcha mamlakatlar	
	1990-1995y.	2000-2005y.	1990-1995y.	2000-2005y.	1990-1995y.	2000-2005y.
Tovarlar savdosi (YaIMga nisbatan %da)	30,1	38,4	35,7	49,9	30,9	40,5
Xizmatlar savdosi (YaIMga nisbatan %da)	7,6	9,5	8,4	9,4	7,7	9,5
To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar (YaIMga nisbatan %da)	0,8	2,1	1,8	2,7	0,9	2,3
Mobil telefonlardan foydalanuvchilar (axoli sonidagi ulushi, %)	3,8	67,6	0,1	19,5	0,9	29,8
Internetdan foydalanuvchilar (axoli sonidagi ulushi, %)	0,7	41,0	0,01	4,9	0,1	9,1
Magrantlar tomonidan o`tkazilgan mablag`lar hajmi (YaIMga nisbatan %da)	-	-	118	165	-	-

Manba: К.Юдаева, Е.Ясин. Стратегия–2050: Справится ли Россия с вызовами глобализации? //Вопросы экономики. №5, 2008. с.8.

²² Фейгин Г.Ф. Развитие национальных экономик в условиях глобализации: историко-экономический аспект. //Известия Санкт-Петербургского университета. №2, 2009, с.14.

²³ Международная экономика: теория и практика. Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2008. с. 15.

Ayni paytda “Jahon bozori, xalqaro xo`jalik munosabatlari va institutlari milliy xo`jalik tizimlarining oddiy davomi, ularning yig`indisi emas, balki ulardan tubdan farq qiluvchi tashkiliy tuzilma bo`lib hisoblanadi”²⁴.

Iqtisodiy globallasuv bir qator xususiyatlarga ega:

birinchidan, keyingi yillarda dunyoda sodir bo`lgan siyosiy o`zgarishlar natijasida jahon xo`jaligining universallasuvi, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiy makonning kengayishi.

Iqtisodiy globallasuvning ikkinchi xususiyati – kapital harakatining erkinlashuvi hamda moliya tizimlari va valuta nazoratini tartibga solishning qiyinlashuvi. Ushbu jarayonlarning ta`siri natijasida xalqaro savdo hajmlari, mamlakatlar o`rtasida moliyaviy va sarmoya oqimlari bir necha barobar oshib bormoqda.

Globallovshuv jarayonining uchinchi xarakterli xususiyati – milliy xo`jaliklarning iqtisodiy jihatdan ochiqligining ortib borishi. Milliy iqtisodiyotlarning ochiqligini, masalan, tashqi savdo kvotasi bilan o`lchanadigan bo`lsa, XX asrning o`rtalarida bu ko`rsatkich o`rtacha 16 %ga teng bo`lgan bo`lsa, 2004- yilda 36 foizga yetdi, 2006- yilda esa 49 foizdan oshib ketdi²⁵.

Bunday holat dunyoda iste`mol qilinayotgan tovar va xizmatlarning o`rta hisobda deyarli yarmi to`la yoki qisman ular iste`mol qilinayotgan mamlakatlardan tashqarida ishlab chiqarilishini ko`rsatadi.

Globallovshuvning to`rtinchi xususiyati uning ishsizlikka va mamlakatlarning ish bilan bandlikning barqaror yuqori darajasini ta`minlash qobiliyatiga ta`siri bilan bog`liqdir. Hozirgi kunda ilm talab qiladigan va yuqori texnologiyali tarmoqlar yuqori malakali, lekin kam miqdorda ishchi kuchi talab etadi. Keyingi yillarda mehnat, material va energiya talab etadigan tarmoqlarda band bo`lgan past va o`rtacha malakaga ega bo`lgan xodimlar soni qisqarib bormoqda. Ularning bir qismi xizmat ko`rsatish sektorlariga o`tmoqda, lekin katta qismi ishsizlar qatoridan joy olmoqda.

Beshinchi xususiyati – iqtisodiy jarayonlarning global muammolar, jumladan, resurslarning cheklanganligi, demografik vaziyatning va oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvi, rivojlangan mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi texnologik va intellektual salohiyatdagi tafovutning chuqurlashuvi, daromadlar bo`yicha differentsiatsiyaning kuchayishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi bilan bog`liqligidir.

Globallovshuv tarafdorlari ushbu jarayonda ishtirok etadigan barcha mamlakatlar undan foyda ko`radi, degan fikrni bildiradilar. Lekin real hayotda global munosabatlarning ustunliklaridan asosan rivojlangan mamlakatlar manfaat ko`rmoqdalar, degan fikrlar ham mavjud.

Globallovshuv ma`lum ma`noda iqtisodiyotning qutblashuvini kuchaytiradi. Mashhur venger iqtisodchisi M. Shimaining hisob-kitoblariga ko`ra, 1995-yilda jahon YaIMning 80 foizi dunyo axolisining 14,5 foizi yashaydigan 24 mamlakat tomonidan, 15 foizi dunyo axolisining 31,5 foizi to`g`ri keladigan 63 mamlakat tomonidan o`zlashtirilgan. Jahon YaIMning bor yo`g`i 5 foizi dunyo axolisining

²⁴ Богомолов О.Т. Анатомия глобальной экономики. –М.: 2004

²⁵ Международная экономика: теория и практика: Учебник для вузов:- СПб.: Питер. 2008,с.18

yarmidan ko'pi, ya'ni 55,5 foizi istiqomat qiladigan 45 mamlakat tomonidan o'zlashtirilgan²⁶.

2005-yilda dunyo bo'yicha olingan daromadning bor yo'g'i 39 foizi dunyo axolisining 84 foizi yashaydigan jon boshiga eng past va o'rtacha daromadli mamlakatlar ulushiga to'g'ri kelgan.

MDH hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotning bor-yo'g'i 4,1% to'g'ri keladi, EI mamlakatlarning ulushi esa 24% ni tashkil etadi²⁷.

3-jadval

Butun dunyoda yaratilgan daromadning mamlakatlarning alohida guruhlari o'rtasida taqsimlanishi, %

Mamlakatlar guruhlari	Dunyo daromadidagi ulushi	Dunyo axolisi sonidagi ulushi
Jon boshiga eng past daromadli mamlakatlar	7	36
Jon boshiga o'rtacha daromadli mamlakatlar	32	48
Jon boshiga eng yuqori daromadli mamlakatlar	61	16

Manba: Ю.Иванов. О глобальном международном сопоставлении ВВП по 146 странам мира. // Вопросы экономики. №5, 2008, с.22.

Globalashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi – ko'p qirrali tushuncha bo'lib, hozircha uning yagona talqini qabul qilinmagan. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqa darajasida ham eng muhim masalalardan biriga aylanib boradi.

Globalashuv dunyo hamjamiyati ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir vaqtda, milliy iqtisodiyotlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xavf-xatar va tahdidlarni ham vujudga keltiradi. Globalashuv jarayonlari kuchayib borgan sari bunday tahdidlar miqyosi kengayib, ularni bashorat qilish va bartaraf etish qiyinlashib boradi. Bir paytning o'zida ham dunyo hamjamiyatiga, ham alohida olingan muayyan mamlakatga tahdid soladigan yangi global xavf-xatar vujudga keladi.

Globalashuv jarayoniga umumiy nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning iborasi bilan aytganda, “mutlaqo yangicha ma'no – mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning` jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda”²⁸.

Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini keng xalqaro hamkorliksiz ta'minlash mumkin emas. Chunki yuzaga kelayotgan muammolarni faqat milliy vosita va mexanizmlar yordamida hal etib bo'lmaydi. Shu bois “milliy iqtisodiy xavfsizlik” va “xalqaro iqtisodiy xavfsizlik” kabi tushunchalar o'rtasida

²⁶ Internet ma'lumotlari.

²⁷ Иванов Ю. О глобальном международном сопоставлении ВВП по 146 странам мира. /Вопросы экономики, №5, 2008, с. 29.

²⁸ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Т.: Маънавият, 2009, 111-б.

aloqadorlik kuchayib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Globalashuv mamlakatlar iqtisodiyotini tashqi omillar ta`siriga ochiq qilib qo`yadi. Masalan, XX asr 70 - yillarining o`rtalarida OPEK a`zolarining xatti-harakatlari natijasida neft mahsulotlariga jahon narxlari oshib ketdi. Jahon miqyosida energiya iste`molining muntazam o`sib borganligi va energiya resurslarining cheklanganligi sharoitida ko`p mamlakatlar oldida energetika xavfsizligini ta`minlash muammosi dolzarb bo`lib qoldi.

XX asr 70 - yillarining boshlarida Bretton – Vud xalqaro valuta tizimining parokandalikka yuz tutganligi va 1976-yilda Yamayka kelishuvlari asosida “suzuvchi” valuta kurslariga o`tilganligi, rivojlangan mamlakatlar tomonidan kapital harakatlari ustidan nazoratni asta-sekin susaytirilganligidan dalolat beradi.

Keyinchalik o`tgan asrning 80–90 - yillarida Lotin Amerikasi va Janubi-sharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarida sodir bo`lgan va jahon moliya bozorlarida halokatga olib kelgan inqirozlar natijasida moliyaviy xavfsizlikni ta`minlash zarurati paydo bo`ldi.

Yer yuzi axolisi sonining ko`payib borishi, buning natijasida xomashyo va mahsulotlarga bo`lgan talabning oshishi va oqibatda chiqindilarning katta miqdorda to`planib borishi atrof-muhitga salbiy ta`sir ko`rsata boshladi. Bu jarayonlar global tavsifga ega bo`lganligi bois, dunyo miqyosida tahdidga aylanib, ekologik xavfsizlikni ta`minlash zaruriyatini keltirib chiqardi.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi dunyoning deyarli barcha mamlakatlari iqtisodiyotiga ta`sir etuvchi tahdidlarni keltirib chiqardi. Inqiroz AQSh ipotekali kreditlash tizimida ro`y bergan tanglik natijasida kelib chiqdi. Keyinchalik uning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning to`lov qobiliyati zaiflashib qolganligi oqibatida moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Inqiroz ta`sirida yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketdi. Bu esa dunyoning ko`plab mamlakatlarida ishlab chiqarish sur`atlarining pasayib ketishiga olib keldi. Natijada iqtisodiy o`sish sur`atlari sekinlashib, buning oqibatida ishsizlik miqyoslari osha boshladi. Jarayonlarning bunday kechishi mamlakatlarning milliy va uning tarkibiy qismi bo`lgan iqtisodiy xavfsizligiga o`z ta`sirini ko`rsatmasdan qolmaydi.

Qisqacha xulosalar

Tahdid jamiyat, davlat va ularning sub`yektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro`yobga chiqarishga to`squinlik qiladigan, ziyon-zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug`diradigan omillar va shart-sharoitlarni anglatadi.

Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo`jalik yurituvchi sub`yektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug`diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, axolining turmush darajasini pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi.

Globalashuv iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o`tish davrining mahsuli bo`lib hisoblanadi. Globalashuv jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayondir.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotning baynalmilallashuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqa darajasida ham eng muhim masalalardan biriga aylanib boradi.

Globalashuv dunyo hamjamiyati ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir vaqtda, milliy iqtisodiyotlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xavf-xatar va tahdidlarni ham vujudga keltiradi. Globalashuv jarayonlari kuchayib borgan sari bunday tahdidlar miqyosi kengayib, ularni bartaraf etish va prognozlash qiyinlashib boradi. Bir paytning o'zida ham dunyo hamjamiyatiga, ham alohida olingan muayyan mamlakatga tahdid soladigan yangi global xavf- xatarlar vujudga keladi.

Nazorat savollari

1. Tahdid deganda nimani tushunasiz?
2. Tahdidlarning qanday turlari mavjud?
3. Ichki va tashqi tahdidlar iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikka bo'ladigan tahdidlarning oldini olish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?
5. Globalashuv deganda nimani tushunasiz?
6. Qanday omillar ta'sirida globalashuv jarayonlari kuchayib bormoqda?
7. "Iqtisodiy globalashuv"ning xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Globalashuv jarayonlari mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
9. Globalashuv sharoitida qanday qilib iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash kerak bo'ladi?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2009.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.
3. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2007.
4. Международные стратегии экономического развития. Учеб.пособие. /Под ред. Ю.В.Мокогона. – К.: Знание, 2007.
5. Иванов Ю. О глобальном международном сопоставлении ВВП по 146 странам мира. //Вопросы экономики, №5, 2008, с. 29-35
6. Международная экономика: теория и практика: Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2008. с.18.
7. Юдаева К., Ясин Е. Стратегия–2050: Справится ли Россия с вызовами глобализации? //Вопросы экономики, №5, 2008. с. 4-21.
8. Фейгин Г.Ф. Развитие национальных экономик в условиях глобализации: историко-экономический аспект. //Известия Санкт-Петербургского университета. №2, 2009, с.14-23.

III bob. TERRORIZM, EKSTREMIZM, XALQARO UYUSHGAN JINOYATCHILIKNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA`SIRI VA UNGA QARSHI KURASHDA REGIONAL TASHKIOTLARNING ROLI

3.1. Terrorizm va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta`siri

Xalqaro miqyosda barqarorlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid soladigan hodisa sifatida terrorizm o`tgan asrning oxirlaridan boshlab jahon hamjamiyati e`tiborini torta boshladi. Lekin, 2001-yil sentabr voqealaridan keyingina siyosatchi va ekspertlar ushbu muammoga jiddiy qaray boshladilar.

Terrorizm tarixiga nazar solinadigan bo`lsa, u o`rta asrlardan boshlab dunyoning barcha mintaqa va mamlakatlarida uchrab turgan. Ayni paytda uning ko`rinishlari va amalga oshirish usullari turlicha bo`lgan.

Terrorizm qanday shaklda namoyon bo`lishidan qat`i nazar miqyoslari va oqibatlari nuqtai nazaridan eng xavfli ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy muammolardan biriga aylanib qoldi. Terrorizm va ekstremizm dunyoning deyarli barcha mamlakatlari va ularning fuqarolari xavfsizligiga tahdid solmoqda va juda katta siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy yo`qotishlarga olib kelmoqda.


Terrorizmni jamiyat hayot faoliyatiga tahdid sifatida o`rganishda, birinchi navbatda, uning eng tuban, eng qabih maqsadlarga xizmat qiladigan hodisa ekanligini ko`zda tutish kerak bo`ladi.

“Terror” va “terrorizm” iboralarining yuzga yaqin talqini bo`lib, ularning hammasi ham mukammal emas. Lotincha “terror” degan so`z “qo`rqinch”, “dahshat” ma`nosini anglatadi. “Terrorizm” esa terrorni amalga oshirishdir. Ushbu iboraning kengroq ma`noda siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo`qotish yoki qo`rqitish, axoli o`rtasida vahima va tartibsizliklarni keltirib chiqarish maqsadida zo`ravonlik harakatlarini amalga oshirish, deb talqin qilish mumkin.

Terroristik harakatlar turlicha bo`lib, ular qatoriga kiradi: ta`qib qilish; buzg`unchilik qilish; garovga olish; qotillik; qo`rqitish; portlatish va b.

Terrorchilarning xatti-harakatlari har doim ham qotillik bilan bog`liq bo`lmasada, doimo zo`ravonlik, majburlash va tahdidni ko`zda tutadi. Ayni paytda ko`zlangan maqsadlar turlicha bo`lishi mumkin: siyosiy, iqtisodiy, qasd olish va b.

Terrorizm va undan axolini himoya qilishga bag`ishlangan Amerika qit`asi davlatlarining Inson huquqlari bo`yicha bo`lib o`tgan konferensiyasida (1970-y.) terrorizmning uchta – ijtimoiy, siyosiy va g`oyaviy turi aytib o`tilgan.



4- chizma. Terrorizm turlari

Terrorizm ikki xil toifada namoyon bo`lishi mumkin. Birinchisi yakka tartibda amalga oshiriladigan, ikkinchisi esa guruh bo`lib amalga oshiriladigan terrorizm.

Siyosatshunoslikda davlat terrorizmi tushunchasi ham qo'llaniladi. Bunga diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari misol bo'la oladi.

Terrorizm davlat xavfsizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu hodisa ijtimoiy, etnik, diniy radikalizm va ekstremizmni ifodalashning eng yomon usuli bo'lib, bunday harakatni amalga oshiradigan kishilar guruhi o'z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan qaytmaydilar.

Xalqaro miqyosda terrorizm dahshatli epidemiya sifatida tarqalib bormoqda. Terrorizm, ayniqsa, XX asrning 60-yillaridan kuchaya boshladi. Bu davrda dunyoning bir qancha mintaqalarida turli terroristik tashkilot va guruhlar faolligi oshib bordi. Ba'zi manbalarga ko'ra, dunyoda 500 dan ortiq yashirin terroristik tashkilotlar mavjud. 1968–1980 yillar davomida ular tomonidan 7000 mingga yaqin terroristik harakatlar amalga oshirilgan. Terrorizm miqyoslari butun dunyoda kengayib bormoqda: agar 80-yillarda 500 dan 800 tagacha katta terroristik harakatlar amalga oshirilgan bo'lsa, 90 - yillarda 900 va undan ortiq harakatlar amalga oshirildi.

Rossiyalik siyosatchi D.V. Olshanskiy²⁹ terrorizmning to'rtta, 4-chizmada keltirilgan turlarini ajratib ko'rsatadi.

1. Siyosiy terrorizm – siyosiy arboblarga, ular o'tkazayotgan siyosatga, hukumatlarga ta'sir o'tkazish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar.

2. Axborot sohasida terrorizm – jamiyat a'zolarining ruhiyatiga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish.

3. Iqtisodiy sohadagi terrorizm – terroristlarning iqtisodiy manfaatga erishish maqsadida raqiblariga, axolining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta'sir o'tkazish.

4. Ijtimoiy terrorizm – jinoyatchilik miqyoslarining kengayishi, kriminal vaziyatning keskinlashuvi, umumiy ijtimoiy beqarorlikning vujudga kelishi.

Xalqaro tashkilotlar va olimlar terrorizmning kelib chiqish sabablariga alohida e'tibor qaratib keladilar. Bunday sabablarni aniqlash terrorizmga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish va takomillashtirishda asosiy e'tibor qaratiladigan muammolardan biri hisoblanadi.

BMTning 1990-yilda Gavanada bo'lib o'tgan jinoyatchilikning oldini olish va ularga nisbatan munosabat masalalariga bag'ishlangan VIII Xalqaro kongressida terrorizmning quyidagi asosiy sabablari ko'rsatib o'tilgan: qashshoqlik, ishsizlik, savodsizlik, uy-joyning yetishmasligi, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining takomillashmaganligi, kelajakka ishonchning yo'qligi, axolining marginallasuvi (lot.marginalis so'zidan – ijtimoiy hayotning eng past qatlamidagilar – daydilar, qashshoqlar), ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, oilaviy va ijtimoiy aloqalarning susayishi, tarbiyadagi nuqsonlar, migratsiyaning salbiy oqibatlari, madaniy o'ziga xoslikni yo'qotish, madaniy-ma'naviy xordiq chiqaradigan maskanlarning yetishmasligi, ommaviy axborot vositalari tomonidan zo'ravonlik, tengsizlikni kuchayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan g'oya va qarashlarni tarqatish.

Globalashuv davrida terrorizm shunday bir hodisaga aylandiki, unga qarshi kurashishda butun jahon hamjamiyati ishtirok etishi kerak. Faqat shundagina kurashning samaradorligiga erishish mumkin. Terrorizmga qarshi kuchlarni

²⁹ Internet ma'lumoti.

birlashtirish zaruriyati uning transmilliy xarakterga ega ekanligi kabi xususiyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga xalqaro terrorizm bilan kurash bo'yicha davlatlarning o'zaro hamkorligini tartibga solish bir qator universal va mintaqaviy xalqaro konvensiyalarning predmeti sifatida belgilangan. Terrorizmga qarshilik ko'rsatish bo'yicha Jeneva Konvensiyasi (1937-y.), Terroristik aktlarni oldini olish va jazolash to'g'risidagi Vashington Konvensiyasi (1971-y.), Terrorizmga yo'l qo'ymaslik bo'yicha Yevropa Konvensiyasi (1977-y.) shular jumlasidandir.

Hozirga kelib dunyo hamjamiyatida terrorizmga qarshi kurash borasida ma'lum tajriba orttirilgan:

- XX asrning 70–yillari o'rtalaridan boshlab, BMTning jinoyatchilikni oldini olish va u bilan kurash bo'yicha Qo'mitasining har bir sessiyasida u yoki bu darajada umuman terrorizm va shu jumladan xalqaro terrorizm masalalari ko'rib chiqilgan;

- 1970–yillardan boshlab, BMT o'ndan ortiq antiterroristik hujjatlar qabul qildi;

- funksiyalari to'liq yoki qisman terrorizmga qarshi kurash bo'lgan xalqaro tuzilmalar tashkil etilgan va ular faoliyat olib bormoqda (masalan, INTERPOL, EVROPOL, MDHning Antiterrorga qarshi markazi va b.);

- arab davlatlari Ligasining ichki ishlar vazirlari Kengashining 13– sessiyasida terrorizmga qarshi kurashda “Xulq-atvor Kodeksi” loyihasi qabul qilindi. Unga ko'ra terrorchilik harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish uchun mamlakat hududidan joy berish, terroristik tashkilotlarga moliyaviy, moddiy va boshqa yordam berish taqiqlanadi.

3.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda regional tashkilotlarning o'рни va roli

Respublikamiz Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan tantanada so'zlagan ma'ruzasida mamlakatimiz olib borayotgan tashqi siyosatning tag-tomirida hech kimga sir bo'lmagan bir maqsad, ya'ni O'zbekiston manfaati turganligi alohida ta'kidlab o'tildi³⁰.

Hozirgi kunda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferensiyasi tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti, Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va qator ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq, shuningdek xalqaro hamjamiyat oldida turgan boshqa dolzarb muammolarni hal etish ishiga salmoqli hissa qo'shmoqda³¹.

Hozirgi paytda tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

birinchidan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

³⁰ Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. //Xalq so'zi, 2007- yil 31 avgust.

³¹ Shu manba.

ikkinchidan, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

to'rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish³².

Keyingi yillarda dunyo iqtisodiyoti va siyosatida Osiyoning roli juda tez o'sib bormoqda va ekspertlarning fikricha, u bundan ham o'sib boradi. Markaziy Osiyo faol geosiyosiy raqobat mintaqasiga aylanib bormoqda. Mintaqaning markazida joylashgan O'zbekiston Respublikasi esa strategik jihatdan muhim hududda joylashgan bo'lib, u Markaziy Osiyo mamlakatlarining barchasi bilan chegaradosh hisoblanadi. Aytish mumkinki, 2005-yilda Markaziy Osiyo hududida sodir bo'lgan (Qirg'iziston, O'zbekiston) voqealar mintaqaning asosiy «nerv tomiri» O'zbekiston orqali o'tishligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham ta'kidlash kerakki, mintaqada joylashgan barcha mamlakatlar u yoki bu darajada ekstremizm va xalqaro terrorizm muammolariga duch keladilar.

Bundan tashqari Afg'onistonga aksiterror koalitsiya kuchlarining kirib kelishi natijasida bu mamlakatdan narkotrafik hajmining oshganligi bilan bog'liq tahdidning kuchayib borayotganligi ko'rina boshladi. Tojikiston va Qirg'izistonning janubiy hududlari narkotik moddalar biznesi bilan shug'ullanuvchi guruhlar tazyiqi ostida qolmoqda.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mintaqasida AQSh faolligining oshib borayotganligi ham siyosatdonlarning fikricha, tahdid bo'lmagan taqdirda, muammoga aylanib bormoqda. Chunki Qo'shma Shtatlar rejalarida nafaqat ushbu mintaqaga harbiy kuchlarini joylashtirish, balki demokratiya shiorlari ostida mavjud rejimlarni almashtirish maqsadlari ham mavjud. Yugoslaviya va Iroq tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday «demokratlashtirish» aksariyat hollarda mamlakatdagi barqarorlikning buzilishiga olib keladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo'lgan turli tahdidlar yangi xarakterga va shaklga ega bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda vujudga kelayotgan tahdidlarga, ya'ni terrorizm, ekstremizm, separatizm, qurol va narkotik moddalar savdosi, uyushgan transmilliy jinoyatchilikka qarshi kuchlarni birlashtirish mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy- iqtisodiy muammolarni hal etish, xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm, ayirmachilik va ekstremizm, giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishi hamda transmilliy uyushgan jinoyatchilik tahdidlariga qarshi kurashda Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston muhim rol o'ynamoqda.

Shanxay Hamkorlik tashkiloti 2001-yilning 14–15-iyunida bo'lib o'tgan «Shanxay beshligi»ning Shanxay shahrida bo'lib o'tgan oltinchi sammitida tashkil etildi. Bu unga yangi mazmun baxsh etdi va Xitoy shahrining nomini saqlab qoldi.

³² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997, 296-297.

Tashkilot tuzilganidan beri o'tgan vaqt davomida o'zining samaradorligini ko'rsatdi va dunyo hamjamiyati e'tiborini o'ziga tortdi.

2002-yilda Sankt-Peterburgda tashkilotning asosiy ta'sis hujjati – Xartiya qabul qilindi. Mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik, narkotrafik va qurol-yaroqning noqonuniy savdosi kabi xatarlarga qarshi kurashish Xartiyaning eng muhim masalalari sifatida belgilangan.

2004-yildan boshlab Pekinda ShHTning Sekretariati, Toshkentda esa Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi doimiy faoliyatini boshladi.

ShHT hozirga kelib o'z faoliyat doirasini kengaytirib borayotgan to'laqonli xalqaro tashkilotga aylandi. Ushbu tashkilot katta mintaqaning juda ko'p muammolarini hal qila olish qobiliyati bilan jahon jamoatchiligining e'tiborini tortmoqda. 2004-yilda ShHT Birlashgan millatlar tashkilot Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomini oldi. 2005-yilning aprel oyida ShHT-ASEAN va ShHT-MDH memorandumlari imzolandi. Bularning barchasi xalqaro maydonda tashkilotning faolligi oshib borayotganligidan va bu tashkilot bilan hamkorlik qilishga bo'lgan intilishlarning mavjudligidan dalolat beradi.

2010-yilning 5-aprelida Toshkentda O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan ShHT va BMT kotibiyatlari o'rtasidagi hamkorlikka oid qo'shma bayonot imzolandi. Ushbu hujjatda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2009-yil 18-dekabrda qabul qilingan rezolyutsiyada belgilangan ikki tashkilot o'rtasidagi hamkorlikning asosiy tamoyillari va yo'nalishlari aks ettirilgan.

Markaziy Osiyo Shanxay Hamkorlik Tashkilotining asosiy e'tibor doirasiga kiradi. Lekin Markaziy Osiyodagi xavfsizlik nafaqat ShHT ishtirokchilari, balki barcha Osiyo mamlakatlari uchun ham o'ta muhimdir. Tashkilotning Astona shahrida bo'lib o'tgan sammitida uchta yirik mamlakat – Hindiston, Pokiston, Eron davlatlarining vakillarini kuzatuvchi sifatida ishtirok etganligiga buning isboti sifatida qarash mumkin. Bunday holat ShHT xalqaro siyosatning muhim markaziga aylanib borayotganligini ko'rsatadi. Hozirning o'zida kuzatuvchi mamlakatlar bilan qo'shib hisoblaganda ShHT ulushiga yer yuzi axolisining yarmi, ekspertlarning fikricha yana 20 yildan so'ng dunyo iqtisodiyotining yarmi to'g'ri keladi.

Ishtirokchi tashkilotlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash; ular o'rtasida siyosiy, savdo va iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ta'lim, energetika, transport, ekologik va boshqa sohalarda samarali hamkorlikni rag'batlantirish; mintaqada tinçlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash va ta'minlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy va iqtisodiy xalqaro tartibotni yaratish bo'yicha birgalikda harakatlarni amalga oshirish Shanxay hamkorlik tashkilotining maqsadlari hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Terrorizm jahondagi barcha mamlakatlar barqarorligi va milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid bo'lib hisoblanadi. Terrorizm va ekstremizm dunyoning deyarli barcha mamlakatlari va ularning fuqarolari xavfsizligiga tahdid solmoqda va juda katta siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy yo'qotishlarga olib kelmoqda. Terrorizm jamiyat hayot faoliyatiga tahdid bo'lib, u eng tuban, eng qabih maqsadlarga xizmat qiladigan hodisadir.

Globalashuv davrida terrorizmga qarshi kurashishda butun jahon hamjamiyati ishtirok etishi kerak. Faqat shundagina kurashning samaradorligiga erishish mumkin.

O`zbekiston xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a`zosi sifatida tashqi siyosatini olib borishda respublikaning manfaatlaridan kelib chiqadi. XXI asrning boshlarida Markaziy Osiyo faol geosiyosiy raqobat mintaqasiga aylanib bormoqda. O`zbekiston Respublikasining mintaqa markazida joylashganligi uning geostrategik jihatdan o`rnini belgilaydi. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo hududida sodir bo`ladigan voqealar u yoki bu darajada O`zbekistondagi vaziyatga ta`sir ko`rsatishi mumkin.

O`zbekiston Osiyo qit`asidagi eng nufuzli tashkilotga aylangan ShHTda muhim o`rinni egallaydi va uning maqsadlarini amalga oshirishda, mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash va ta`minlash borasidagi faoliyatida faol ishtirok etadi.

Nazorat savollari

1. Terrorizm qachon paydo bo`lgan?
2. Terrorizmning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari nimalardan iborat?
3. Terrorizm iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta`sir ko`rsatadi?
4. Jahon hamjamiyati terrorizmga qarshi qanday kurash olib boradi?
5. O`zbekiston tashqi siyosat olib borishda qanday maqsadlardan kelib chiqadi?
6. O`zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o`rni qanday?
7. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti qachon va nima maqsadlarda tashkil etilgan?
8. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining mintaqaviy aksilterror tuzilmasining vazifalari nimadan iborat?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O`zbekiston, 1997.
2. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2007.
3. Сейбол С. Международный терроризм и страны Центральной Азии: поспешные выводы. //Центральная Азия и Кавказ, №5, 2008, с.161-168.
4. Носенко В. Борьба с международным терроризмом и мусульманский мир //Мировая экономика и международные отношения, №3, 2007, с. 29 - 36.
5. Пузырев Д. Терроризм в современных международных отношениях. //Мировая экономика и международные отношения, №8, 2008, с. 63 - 67.
6. Абатуров В.К. Ташкентскому саммиту Шанхайской организации сотрудничества. Экономическое обозрение. 2004. Май. с. 4-9.
7. Центральная Азия. Шанхайская экономическая организация. Экономическое обозрение, 2004. Июнь. с. 23-27.

IV bob. MAMLAKAT IQTISODIYOTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH, IQTISODIYOTNING REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIK

4.1. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish - iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omili

Dunyoning barcha mamlakatlari iqtisodiyotini qamrab olgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, uni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini uning tahdidlaridan himoya qiluvchi muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

Shu tufayli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqishi, pirovard natijada, mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tdi³³.

O'zbekistonda qabul qilingan islohot va modernizatsiya modelini amalga oshirishda tadrijiy yondashuv tanlanganligi islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich olib borish imkoniyatini yaratdi.

Raqobat bozor xo'jaligining eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida raqobat yangi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan o'z salohiyati va imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi.

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitlarda esa xalqaro raqobat muammolari birinchi o'ringa chiqib boradi. Jahonning ko'pgina mamlakatlari, shu jumladan, o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda ham raqobat to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan va ushbu muammolar bilan shug'ullanadigan idoralar tashkil etilgan. Bu esa o'z navbatida bozor xo'jaligining muvaffaqiyatli amal qilishida raqobatning yetakchi rolini tan olinganligidan dalolat beradi.

Kapital va mehnat harakatchanligining oshganligi, dunyo iqtisodiyotining yoppasiga axborotlashuvi, erkin savdo va bozorlar integratsiyalashuvida namoyon bo'layotgan globalashuv jarayonlari, dunyoning barcha mamlakatlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda keng imkoniyatlar ochmoqda. Lekin, shu bilan birga, mamlakatlar ushbu jarayonlarga xos bo'lgan ayrim qiyinchiliklarga ham duch kelmoqdalar. Ayni paytda dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, globalashuv jarayonlaridan asosan dunyo bozoriga tayyor raqobatbardosh tovarlar bilan chiqayotgan mamlakatlar ko'proq naf olmoqdalar.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish zarurati boshqa shart-sharoitlar bilan ham belgilanadi. Masalan, ichki bozorning chegaralanganligi zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ham birmuncha cheklaydi. Bundan tashhari har qanday mamlakat iste'mol tovarlarining ma'lum qismini tashqi bozorlardan xarid qilishga majbur bo'ladi. Mana shunday sharoitda mamlakat eksport salohiyatini oshirish importni

³³Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009, 5-6 b.

ta`minlash uchun valuta tushumlarini kafolatlaydi. Demak, raqobatbardoshlik iqtisodiy xavfsizlik muammosi bilan ham bevosita bog`liqdir.

Ma`lumki, bir necha yillardan beri mamlakatlarning jahon xo`jalik tizimida raqobatbardoshligini aniqlash hamda ularni raqobatbardoshlik reytingini tuzish bo`yicha tadqiqotlar olib boriladi. Internetdan olingan ma`lumotlarga ko`ra, 2005-yilda raqobatbardoshlik reytingini hisoblash uchun 290 ko`rsatkich tahlil qilingan. Shulardan 41 ta ko`rsatkich mamlakat to`g`risidagi birlamchi axborot sifatida ishlatiladi va oxirgi reytingda aks ettirilmaydi. Qolgan 249 ta ko`rsatkich sakkizta umumlashtirilgan omillarga ajratiladi. Ular iborat: ichki iqtisodiy salohiyat; tashqi iqtisodiy aloqalar; iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish; moliya-kredit tizimi; infratuzilma; boshqaruv tizimi; ilmiy-texnik salohiyat; mehnat resurslari.

2005-yilda 117 mamlakatning raqobatbardoshlik indeksi hisoblandi. Ma`lumotlarga ko`ra, ushbu yilda 1-3 o`rinlarni muvofiq ravishda Finlyandiya, AQSh va Shvetsiya mamlakatlari egallagan. Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi mamlakatlaridan Qozog`iston (61-o`rin), Rossiya Federatsiyasi (75-o`rin), Ukraina (84-o`rin), Gruzuya (86-o`rin), Tojikiston (104-o`rin), Qirg`iziston (116-o`rin)larning raqobatbardoshlik reytinglari keltirilgan.

Mamlakatlar raqobatbardoshligining mezonlari tarkibini shakllantirishda iqtisodiyot, ta`lim, fan, huquqiy tizim, informatika, infratuzilma, moliya, soliq tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyat, boshqaruv tizimi, ijtimoiy sohalarning rivojlanganlik darajasini tavsiflovchi ko`rsatkichlarga alohida ahamiyat berilgan.

Raqobatbardoshlik iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning eng muhim mexanizmi hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshlik doimo o`zaro munosabatda bo`lib turadi. Iqtisodiy xavfsizlik ham, raqobatbardoshlik ham milliy xo`jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini tavsiflovchilaridir. Shu bilan birga raqobatbardoshlik bir paytning o`zida ham maqsad, ham milliy xo`jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini rivojlanish darajasini indikator bo`lsa, iqtisodiy xavfsizlik uning mavjudligi va rivojlanish sharti sifatida namoyon bo`ladi.

Mamlakatda raqobatni qo`llab-quvvatlash, uni rivojlantirish, raqobat muhitini yaratish makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlash, yuksak iqtisodiy o`shishga erishish, iqtisodiyotning samarali tarkibini shakllantirishda va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo`lib hisoblanadi.

O`zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning o`ziga xos xususiyatlaridan biri davlatni ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sohalardagi o`zgarishlarni amalga oshirishda bosh islohotchi ekanligini belgilovchi tamoyildir. O`tish davrida aynan davlat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda islohotlar jarayonini tartibga solib turishi, iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi va ustuvor vazifalarini belgilashi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o`zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va izchil amalga oshirishi zarur ekanligini O`zbekiston tajribasi yaqqol namoyon qildi.

Erkin bozor iqtisodiyotiga o`tishning o`zbek modeliga asos qilib olingan mashhur besh tamoyil, ya`ni «... iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo`lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o`z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o`z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta`minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-

bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish»³⁴ kabi tamoyillar jahon iqtisodiyotini qamrab olgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligini ko'rsatdi.

Respublika iqtisodiyotini tubdan isloh qilish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilmasini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat O'zbekistonni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratganligi Prezident I. Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarida alohida ta'kidlab o'tildi.

Mamlakatda raqobat muhitini shakllantirish, raqobatni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini zarur darajada saqlab turish chuqur o'ylangan, strategik xarakterga ega bo'lgan maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni talab etadi. Bunda esa davlatning roli ayniqsa muhimdir.

Raqib mamlakatlar ustidan raqobat ustunligiga erishishni ta'minlash davlat faoliyatining asosiy strategik yo'nalishi hisoblanadi. Lekin shu bilan birga raqobat ustunliklariga erishishdan avval mamlakatda raqobat muhitini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish kerak bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga oshiriluvchi chora-tadbirlar orasida raqobatni qo'llab-quvvatlash, sog'lom raqobat muhitini yaratish masalasi alohida o'rin tutadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, raqobat munosabatlarini rivojlantirish ancha murakkab va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat raqobatbardoshlikni boshqarmaydi, balki tartibga solishning turli usul va vositalari yordamida unga ta'sir ko'rsatadi. Bular qatoriga turli qonunlar, qonuniy hujjatlar, hukumat qarorlari va iqtisodiy dastaklarni kiritish mumkin.

Davlatning vazifasi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Raqobatbardoshlikni boshqarish esa bevosita ishlab chiqaruvchilar darajasida amalga oshiriladi. Ayni paytda, ishlab chiqaruvchilar tegishli huquqlarga, tadbirkorlik tashabbuskorligiga, kadrlarga ega bo'lishlari kerak. M. Porterning fikricha, davlat raqobatbardoshlikning o'ziga xos katalizatori rolini o'ynashi lozim. Lekin, shu o'rinda davlat siyosatining ustuvorliklarini aniq belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarning fikricha, raqobatni va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat chora-tadbirlari majmuasiga quyidagilar kirishi kerak:

- infratuzilma, malakali ishchi kuchi, ilmiy-konstruktorlik ishlanmalarini yaratish;

- samarali soliq va pul siyosatini o'tkazish, energiyatashuvchilar bozorini tartibga solish;

- talabni, ichki raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirish;

- bozordan sifatsiz mahsulotlarni siqib chiqarish uchun texnik va texnologik standartlarning aniq tizimini yaratish;

³⁴ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston. 2009. 31-b.

- xaridorlarga to'liq va sifatli axborotlarni yetkazish;
- qoloq hududlarni rivojlanishini rag'batlantiruvchi mintaqaviy siyosatni amalga oshirish;

- eksportni rag'batlantirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

O'zbekistonda raqobat muhitini yaratish, uni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish masalalariga islohotlarning ilk bosqichlaridanoq alohida ahamiyat berila boshlandi. Raqobatni qo'llab-quvvatlovchi, uni tartibga solib turuvchi bir qator qonun va qonuniy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bu borada asosan ikki yo'nalishdagi me'yoriy hujjatlar tizimi yaratildi:

- iqtisodiyotdagi monopollng holatlarni oldini olish borasida – O'zbekiston Respublikasining «Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida» (1992-y.), «Tovarlar bozorilarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida» (1996-y.), «Tabiiy monopoliyalari to'g'risida»gi (1999-y.) Qonunlari;

- iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish borasida – O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Reklama to'g'risida»gi (1998-y.) Qonunlari.

Iqtisodiyotda monopollashuv tamoyillari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi.

Shu o'rinda yetarli darajada mukammal bozor iqtisodiyoti shakllantirilgan davlatlarning raqobatni qo'llab-quvvatlash va mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlash borasida to'plagan tajribalari to'g'risida ham to'xtalib o'tish joizdir. Rivojlangan davlatlarda shakllantirilgan mustahkam qonuniy asoslar, me'yoriy-uslubiy va resurslar bazasi, turli ob'yektlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi tegishli davlat va jamoat tashkilotlarining mavjudligi va ularning samarali ishlashi ularda raqobatni qo'llab-quvvatlash va mamlakat raqobatbardoshligini yuqori darajada saqlab turish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ko'pchilik rivojlangan davlatlarning hukumatlari raqobatni qo'llab-quvvatlash, raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. Buning uchun zarur bo'lgan infratuzilmani rivojlantiradilar va uni takomillashtiradilar.

Shu o'rinda II jahon urushida vayron bo'lgan iqtisodiyotni 15 yil ichida tiklab, 25 yil davomida rivojlangan mamlakatlar qatoridan eng yuqori o'rin olishga erishgan Yaponiyaning mamlakatda raqobat muhitini shakllantirish borasidagi tajribasi e'tiborga loyiq. Urushdan so'ng bu mamlakat oldida turgan birinchi o'rindagi vazifa vayron bo'lgan sanoat ishlab chiqarishini tiklab olish bo'ldi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Yaponiya hukumati davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish muammosini hal etishga bo'lgan turli yondashuvlarni o'rganib chiqdi va eng asosiy e'tiborni sanoat siyosatiga qaratdi. Mana shu siyosatning amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi raqobat muhitini shakllanishi uchun zamin yaratdi va

milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minladi. Bu esa hozirda ham global bozorlarda ushbu mamlakatning raqobat pozitsiyalarini saqlanib qolishiga imkoniyat yaratmoqda.

Samarali va ilmiy jihatdan puxta asoslangan sanoat siyosati Yaponiya iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishini ta'minladi.

1960-yillarning oxiriga kelib, Yaponiya ichki bozorining barcha zarur tovarlar bilan to'yintirilganligi yapon kompaniyalarining eksport strategiyasini rivojlantirishga undadi. Ichki bozorda tovarlari yetarli bo'lgan har bir tarmoqda eksport salohiyati orta bordi. Bu esa o'z navbatida tashqi bozorlarda sotish kanallari tarmog'ini tashkil etish va rivojlantirishni taqozo etdi. Ayni paytda, yuqorida ta'kidlangan o'zgarishlar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, mahsulot tannarxini pasaytirish, sifatini yaxshilash va assortimentini kengaytirish bilan birgalikda amalga oshirildi. Shu bilan birga investitsiya jarayonlariga davlatning aralashuvi kamayib bordi. Xususiy sektor mamlakatda va undan tashqarida kapital qo'yish va tijorat faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilay boshladi. Hukumat esa o'z faoliyatini raqobat muhitini rivojlantirishga va raqobatni qo'llab-quvvatlashga qarata boshladi. Davlat kichik va o'rta biznesni yirik monopoliyalar tazyiqidan himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirdi.

Mamlakatdagi o'zgarishlar axoli daromadlarining oshishiga olib keldi. Bundan tashqari axolining ma'lumot darajasi oshganligi, farovon yashashga intilish iste'mol talabi kengayishi va oshishiga turtki bo'ldi. Buning natijasida xaridor uchun kurash, ichki raqobat kuchaydi va yangi-yangi tovarlar ishlab chiqarila boshlandi. Natijada yapon kompaniyalarining daromadlari oshdi va bu o'z navbatida ishlab chiqarishni kengaytirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Raqobat muhitini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash hamda soliq imtiyozlari berish yo'li bilan xususiy sektor tomonidan ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari uchun investitsiyalar yo'naltirilishini rag'batlantirilganligi Yaponiya sanoat siyosatining ustuvor vazifasi bo'lib kelmoqda.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, Yaponiyada raqobatni qo'llab-quvvatlash va raqobat muhitini shakllantirishda asosan sanoat siyosatini amalga oshirishga va shu orqali mamlakat iqtisodiyoti tarkibini takomillashtirishga alohida urg'u berilgan. Ayni paytda, mamlakatda iqtisodiyotga davlat aralashuvi ma'muriy nazoratga emas, balki iqtisodiy dastaklarga asoslangan bo'lib, bu erkin raqobat uchun keng maydon shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Mana shunday tajribalarni o'rganish hamda ulardan respublikaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish, mamlakatimizda raqobat muhitini yanada kengaytirish uchun imkoni beradi.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojining bugungi bosqichida «monopolizm ko'rinishlariga qarshi kurash va amalda raqobat muhitini shakllantirish» masalalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularni hal etish mamlakatda ishlab chiqarish hajmlarining o'sishiga, mahsulot sifati va raqobatbardoshligining ortishiga, narxlarni pasayishiga zamin yaratadi.

Respublikada raqobat muhitini rivojlantirishda va monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya qilish ustidan davlat nazoratini olib borishda monopoliyaga

qarshi davlat organi hisoblanadigan va raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi muhim o`rin egallaydi. Ushbu Davlat organining tashkil etilganligi O`zbekistonda raqobatni qo`llab-quvvatlashning institutsional asoslarini yanada mustahkamlash uchun zamin yaratdi. Respublikamizda raqobatni qo`llab-quvvatlashning institutsional asoslari iqtisodiy islohotlarning ilk davridanoq yaratilib boshlandi. Xususiy lashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatda raqobatni qo`llab-quvvatlash, raqobat muhitini shakllantirish uchun institutsional asos bo`lib xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq «biz uchun yangilik bo`lgan bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi, bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etish va raqobat muhitini shakllantirish orqali bozor munosabatlari mexanizmi ishga tushirildi»³⁵.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoniga muvofiq, quyidagilar davlat qo`mitasining asosiy vazifalari va faoliyat yo`nalishlari etib belgilandi:

- monopoliyaga qarshi samarali siyosatni amalga oshirish, monopolistik siyosatni cheklash to`g`risidagi va tabiiy monopoliyalar haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- respublikada raqobat muhitini rivojlantirish, tovarlar (xizmatlar, ishlar) bozorlarida, birinchi navbatda, ichki iste`mol bozorida va reklama sohasida noinsof raqobatga chek qo`yish, mahalliy davlat boshqaruvi va davlat hokimiyati organlari tomonidan xo`jalik yurituvchi sub`yektlarga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlarga yo`l qo`ymaslik uchun huquqiy maydonni yanada takomillashtirish, jamoat tuzilmalari bilan chambarchas muvofiqlashtirilgan holda iste`molchilarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati va raqobatbardoshligini chuqur tahlil qilish, xo`jalik yurituvchi sub`yektlarni tarkibiy o`zgartirish va ularning bankrotligi sohasidagi funksiyalarni amalga oshirish, tarkibiy o`zgartirish, sanatsiya va bankrotlik masalalarini ko`rib chiqishda davlat manfaatlarini ifodalash.

Mustaqillik yillarida respublikada qo`shilgan qiymat darajasi yuqori bo`lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir bo`lgan tarmoqlar va korxonalarini yanada jadal rivojlantirish maqsadiga qaratilgan sanoat siyosati ishlab chiqildi.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda respublikada qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturida ko`zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Joriy kon`yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo`lishini qo`llab-quvvatlash bo`yicha aniq chora-tadbirlarni

³⁵ Karimov I.A. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. //Xalq so`zi, 2007y. 31- avgust.

amalga oshirish va eksportni ragʻbatlantirish uchun qoʻshimcha omillar yaratish mana shunday vazifalardan biridir.


4.2. Iqtisodiyotning real sektorida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi

Real sektor tarmoqlari mamlakat iqtisodiyotning eng muhim segmenti hisoblanadi. Ushbu sektor tarkibiga sanoat, qishloq xoʻjaligi, qurilish va transport kabi tarmoqlar kiritiladi.

Iqtisodiyotning real sektorida xavfsizlikni taʼminlash mamlakat milliy xavfsizligini taʼminlashning muhim shartlaridan biridir. Chunki barqarorlik va taraqqiyot aynan real ishlab chiqarish, samarali faoliyatni taʼminlash, axoli bandligi, uning ehtiyojlarini toʻliq qondirish bilan bevosita bogʻliqdir.

Iqtisodiyot real sektorining iqtisodiy xavfsizligi energetika, oziq-ovqat va axborot sohalarida xavfsizlikni taʼminlash bilan bevosita bogʻliqdir.

Real sektorining eng yirik, yetakchi tarmogʻi sanoat tarmogʻi hisoblanadi. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq isteʼmol tovarlarining koʻpchilik qismi yaratiladi; mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi; yerosti boyliklari qazib olish amalga oshiriladi; mineral, oʻsimlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi, keng isteʼmol mollari tayyorlanadi va h.k.



5- chizma. Iqtisodiyot real sektorining iqtisodiy xavfsizligi ³⁶

Sanoat tarmoʻgi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan taʼminlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sogʻliqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bogʻliq. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi

³⁶ Экономическая безопасность России. -Учебник. /Под общ. ред. акад. В.К. Сенчагова. -М.: ДЕЛО 2005, с.108.

qanchalik yuqori bo`lsa, davlat mavqei shunchalik kuchli bo`ladi va axoli turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat tarmog`ining rivoji tufayli unda band bo`lgan xodimlarning soni ko`payadi, ularning bilimi va mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko`tariladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnika hamda innovatsiyaning barcha yutuqlarini mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va unumdorligini yuqori darajaga ko`tara oladi.

Sanoat va ayniqsa, uning eng muhim sohasi bo`lgan og`ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy-texnika vositalarini o`zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a`zolari o`rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib ham boradi.

Sanoat uchun fan-texnikaning uzluksiz taraqqiyoti va ishlab chiqarish yutuqlari bilan qurollanishi darajasining o`shishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish, kompyuterlashtirish va kimyolashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurish sohasidagi ilg`or yutuqlardan keng foydalaniladi.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog`i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo`lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan-bir moddiy negizi bo`lishi mumkin.

Mamlakat axolisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyos. O`zbekistonda mehnatga layoqatli axolining 13 foizi sanoat ishlab chiqarishida band. Tarmoqning yanada jadal rivoji sanoat kadrlari soni va ularning jamiyatdagi mavqei yanada oshishiga olib keladi.

Respublika qishloq xo`jaligi iqtisodiyot real sektorining eng muhim va yirik, mexanizatsiyalashgan tarmog`i bo`lib, axolining oziq-ovqat mahsulotlariga, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining xomashyoga bo`lgan talabini qondiradi. Qishloq xo`jaligi o`simlik va hayvonot mahsulotlarining dastlabki yoki to`liq qayta ishlashning turli jarayonlarini o`z ichiga oladi va xalqning moddiy farovonligini ta`minlashda muhim ahamiyatga ega.

Respublika qishloq xo`jaligida paxtachilik va g`allachilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Ayni paytda sxolikorlik, kanopchilik, mevachilik, tokchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohalari, chorvachilikning qoramolchilik, qo`ychilik, xususan, qorako`lchilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, pillachilik sohalari ham asosiy tarmoqlarga kiradi. O`zbekiston jahonda yalpi paxta yetishtirish bo`yicha 5-o`rinda, paxta tolasi eksporti bo`yicha 2-o`rinda (AQShdan keyin) turadi. Respublikada meva, uzum va sabzavotning yuqori sifatli navlari yetishtiriladi, shuningdek, yetishtiriladigan meva, uzum, sabzavot, poliz mahsulotlarining talay qismi qo`shni davlatlarga chiqariladi. O`zbekiston o`zining sifatli pillasi va qorako`li bilan ham dunyoga mashhur.

Transport va aloqa tizimi iqtisodiyot real sektorining muhim tarmog`i hisoblanadi. Transport tarmog`i sanoat va qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish jarayonining davomini ta`minlovchi tarmoq sifatida O`zbekistonda ishlab chiqarish

infratuzilmasini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Ayni shu ishlab chiqarish infratuzilmasi, o'z navbatida, «transport va aloqa mollarimiz va xizmatlarimizning tashqi bozorga chiqishini ta'minlaydi, ularning raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi ...»³⁷.

Transport tarmoqi iqtisodiy aloqalarni ta'minlab, iqtisodiyotni rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Transport moddiy, inson va moliyaviy resurslarni safarbar etish bilan iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Yuklar va yo'lovchilarni tashish jarayonini takomillashtirish – korxonalar xarajatlarini pasaytirish, savdo imkoniyatlarini oshirish, bozorlar integratsiyasini chuqurlashtirish, raqobatni kuchaytirish, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish va oxir-oqibatda jamiyat farovonligini oshirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha turlari – temir yo'l, avtomobil, aviatsiya, shahar elektr transporti (tramvay, trolleybus, metropoliten), daryo, truboprovod transporti, shuningdek umumiy foydalanilmaydigan (sanoat) transport – temir yo'l, avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan.

3-jadval

Iqtisodiyot real sektorining asosiy tarmoqlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %

	2000 -y.	2005-y.	2008-y.
Iqtisodiyot real sektorining asosiy tarmoqlari	58,0	62,8	60,0
shulardan:			
Sanoat	14,2	21,1	22,3
qishloq xo'jaligi	30,1	26,3	19,4
Qurilish	6,0	4,8	5,6
transport va aloqa	7,7	10,6	12,7
boshqa tarmoqlar	42,0	37,2	40,0

Manba: Yillik statistik to'plan. 2008. – T.: 2009, 33 b; *Узбекистан в цифрах. 2009.* – T.: 2009, c.31.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab real sektor korxonalarini rivojlantirish borasida chuqur islohotlar olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida” nomli asarida “O'zak tarmoqlarni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiy mustaqilligining eng asosiy sharti” ekanligi va ularni taraqqiy ettirish butun iqtisodiyotning jadal rivojlanishi uchun mustahkam asos va qulay sharoit yaratishi ta'kidlab o'tilgan.

Mustaqillik davrida “milliy iqtisodiyotni shakllantirish va uni tubdan isloh qilish mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining eng muhim omili va asosini” tashkil etdi³⁸.

Amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida respublika va axoli ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg'i-energetika resurslari, iste'mol va oziq-ovqat

³⁷ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1995, 240-b.

³⁸ Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. //Xalq so'zi. 2007- yil 31 avgust.

mahsulotlariga bo'lgan talabni ishonchli tarzda qondirishga erishildi. Bu esa mamlakatda energetik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun asos yaratdi.

Iqtisodiyot real sektori tarmoqlari va korxonalarining mamlakat iqtisodiyotida juda katta o'ringa ega ekanligi, barqaror iqtisodiy o'sish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlanishi ko'p jihatdan ularning taraqqiy etishi bilan bog'liq ekanligi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

Inqiroz sharoitida birinchi navbatda real sektorni, uning korxonalari va kompaniyalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda iqtisodiyot real sektori korxonalarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayoniga investitsiyalarni, shu jumladan, tijorat banklarining mablag'larini keng jalb etish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni ishga solish ko'zda tutildi.

Inqiroz oqibatlarini bartaraf etish borasida respublikada amalga oshirilgan chora-tadbirlar orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Farmoni alohida o'rin egalladi. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiyot real sektori bazaviy tarmoqlarining iqtisodiy o'sishi barqaror sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi hamda barqaror ishlashini ta'minlash, axoli bandligiga ko'maklashish, eksport qiluvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari korxonalari hamda kichik biznesni aniq manzilli qo'llab-quvvatlash maqsadida”³⁹ “Iqtisodiyotning real sektori bazaviy tarmoqlari korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi“ ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Farmonda respublika iqtisodiyoti real sektori sohasida jahon moliya- iqtisodiy krizisining salbiy oqibatlarini bartaraf etishning hal qiluvchi omillari belgilandi. Ular quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarini faollashtirish, sifatli, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy moslashuvchan minitexnologiyalarni tatbiq etish;

- ichki va tashqi bozorlarda mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining raqobatbardoshligini yanada oshirish, eksport qiluvchi korxonalar tomonidan yangi tovar turlarini sotish hajmlarini kengaytirish hamda mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish;

³⁹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y. № 49, 4-b.

- iqtisod qilishning qattiq tartibini joriy etish, jumladan, texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiyalash, ishlab chiqarishda materiallar, elektr va energiya sarfini hamda boshqa sarf-xarajatlarni kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini keskin kamaytirish;

- texnik va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, mahsulot sifatini boshqarishning xalqaro standartlarini tatbiq etish;

- moslashuvchan narx-navo siyosatini amalga oshirish, jahon bozorlarida narx-navo konyunkturasi tez o`zgarib borayotgan sharoitda eksport mexanizmlarini takomillashtirish.

Farmonda joylardagi rahbar xodimlar, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari rahbarlari zimmasiga iqtisodiyotning real sektori korxonalariga har tomonlama yordam ko`rsatish, dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda shaxsiy javobgarlik yuklangan.

Iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlarni, real sektorni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to`g`risida»gi Farmoni alohida ahamiyatga ega.

Jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarni jalb etish bo`yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport- tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Navoiy shahri xalqaro aeroporti hududida «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etildi.

Zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniya va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko`lamda ishlab chiqarish «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo`jalik yurituvchi sub`yektlar faoliyatining asosiy yo`nalishi etib belgilandi.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonaning faoliyat ko`rsatish muddati 30 yilni tashkil etadi. Erkin industrial-iqtisodiy zona faoliyati davomida uning hududida alohida bojxona, valuta va soliq rejimlari, O`zbekiston Respublikasi norezident fuqarolarining uning hududiga kirish, hududda bo`lish va chiqib ketishning, shuningdek, ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan⁴⁰. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zona faoliyati Farmonga ilova qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga asosan muvofiqlashtiriladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O`zbekiston iqtisodiyotiga ham ta`sir ko`rsatishiga qaramay, isloh etish va modernizatsiya qilishning O`zbekiston modeli izchillik bilan ro`yobga chiqarilayotganligi, tarkibiy o`zgarishlarga, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mamlakatdagi moliya-iqtisod, bank-kredit tizimining barqaror va uzluksiz ishlashiga doir chora-tadbirlar natijasida inqirozning og`ir oqibatlaridan xoli qolishga va iqtisodiyotni barqaror ravishda faoliyat ko`rsatishiga erishildi.

⁴⁰ O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2008-y. №49, 6-b.

Qisqacha xulosalar

Raqobat bozor xo'jaligining eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida raqobat yangi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan o'z salohiyati va imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitlarda esa xalqaro raqobat muammolari birinchi o'ringa chiqib boradi.

Raqobatdoshlik – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim mexanizmi bo'lib, iqtisodiy xavfsizlik va raqobatdoshlik doimo o'zaro munosabatda bo'lib turadi. Iqtisodiy xavfsizlik ham, raqobatdoshlik ham milliy xo'jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini tavsiflovchilaridir. Raqobatdoshlik ham maqsad, ham milliy xo'jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini rivojlanish darajasi indikator bo'lsa, iqtisodiy xavfsizlik uning mavjudligi va rivojlanish sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, uni diversifikatsiya qilish va raqobatdoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini uning tahdidlaridan himoya qiluvchi muhim omillardir.

Mamlakat iqtisodiyotida real sektor asosiy o'rin egallaydi, Shuning uchun ham ushbu sektorda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot barqarorligi va taraqqiyoti aynan real ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekistonda real sektor korxonalarini rivojlantirish borasidagi islohotlar mustaqillikning ilk davrlaridan amalga oshirib boshlandi. Iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarni rivojlantirish respublika iqtisodiy mustaqilligining eng asosiy sharti ekanligidan kelib chiqib, ularni taraqqiy ettirishga alohida e'tibor qaratildi. Amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida respublika va axoli ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg'i-energetika resurslari, iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni ishonchli tarzda qondirishga erishildi. Bu esa mamlakatda energetika va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun asos yaratdi.

Nazorat savollari

1. Nima uchun raqobatbardoshlikni oshirish iqtisodiy xavfsizlik omili bo'lib hisoblanadi?
2. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
3. Inqirozga qarshi choralar Dasturida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar belgilangan!
4. Real sektorning iqtisodiyotda tutgan o'rnini qanday?
5. Nima uchun real sektorda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash zarur?
6. Mustaqillik yillarida real sektorni rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
7. Real sektorni qo'llab-quvvatlash borasidagi Prezident Farmonlarining mazmuni nimalardan iborat?
8. Real sektorda xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataf etishning yo`llari va choralari. -T.: O`zbekiston, 2009.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir.-T.: O`zbekiston, 2010.
3. Karimov I.A. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. //Xalq so`zi, 2007-y. 31-avgust.
4. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. –T.: O`zbekiston, 1995, 240-b.
5. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2007.
6. Экономическая и национальная безопасность. Учебник. //Под ред. д.э.н., проф. Л.П. Гончаренко. М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2008.
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2010-yil 27-fevral.
8. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2008-y. №49, 6-b.
9. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 2005, №17-18, aprel-may, 6-b.
10. Yillik statistik to`plam. 2008. – T. 2009.
11. Узбекистан в цифрах. 2009. – T. 2009.

V bob. MAMLAKATDA AXOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH – IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASH OMILI

5.1. Axolining turmush darajasi

Ijtimoiy sohadagi manfaatlar milliy manfaatlarning eng asosiylaridan bo`lib hisoblanadi. Ijtimoiy sohadagi manfaatlar xalqning yuqori turmush darajasini ta`minlash borasidagi davlat siyosatida aks etadi. Aynan ijtimoiy sohadagi manfaatlar amalga oshganda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari o`rtasidagi muvozanatga erishiladi.

Axolining yuqori turmush darajasi uning pul daromadlari dinamikasida, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar iste`moli, axolining mulkiy tabaqalashuvi darajasida, bandlik darajasida, axolining barcha qatlamlari uchun sog`liqni saqlash, ta`lim xizmatlaridan bahramand bo`lish imkoniyatlari mavjudligida namoyon bo`ladi.

Axoli turmush darajasi milliy va shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikning eng asosiy ijtimoiy indikatorlaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikaning mustaqil taraqqiyoti davrida axoli turmush darajasini oshirish borasida islohotlarni amalga oshirishga katta e`tibor qaratildi.

Respublika axolisini ijtimoiy muhofaza qilish quyidagilarni o`z ichiga olgan mexanizm asosida amalga oshirildi:

- nogironlar, yetim qolgan bolalar, yolg`iz qariyalarni ijtimoiy ta`minlashni o`z ichiga olgan tizim;
- kam ta`minlangan oilalarga ijtimoiy yordam tizimi;
- axolining alohida guruhlari uchun ijtimoiy imtiyozlar tizimi;
- pensiya ta`minoti tizimi;
- pensiya tizimi orqali qamrab olinmagan keksa kishilarga nafaqa to`lash tizimi;
- ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi⁴¹.

Mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlarning birinchi bosqichida inson va oila hayotining barcha sohalarini ta`minlashga, umuman, axolining turmush darajasini oshirishga qaratilgan va bir-birini to`ldiruvchi chora-tadbirlarning butun bir tizimi shakllandi. Bu davrda narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o`rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustuvor yo`nalishlardan biridir. Islohotlarning ushbu bosqichida daromadlar nisbatini o`zgartirish ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg`arma banklaridagi axoli omonatlari stavkalarining eng oz miqdorlarini bir vaqtning o`zida markazlashtirilgan tarzda qayta ko`rib chiqish yo`li bilan amalga oshirildi. 90-yillarning birinchi yarmida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi.

Respublikaning ichki iste`mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste`molini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlari ko`rilganligi axolini ijtimoiy jihatdan himoyalash va ularning turmush darajasini oshirishning ikkinchi eng muhim yo`nalishi bo`ldi.

Islohotlar chuqurlashgan sari respublika axolisi manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimiga o`tish boshlandi. Bunda ichki narxlarni jahon

⁴¹ Каримова Д.М. Узбекистан: социальное развитие за годы независимости. Материалы научного семинара. - Т., 2007, 16 ноябрь.

narxlari darajasiga tez tenglashtirib olish va axoli daromadlarini shunga muvofiq ravishda oshirish yo`li bilan himoyalash chora-tadbirlari ko`rildi.

Respublika axolisining turmush darajasini oshirish va shu orqali mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda faol ijtimoiy siyosatning uchinchi yo`nalishi katta o`rin tutdi. Bunda axolini kam ta`minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo`llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o`tkazildi. Bunday siyosat axolining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari – pensionerlar, nogironlar, ko`p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o`quvchi yoshlar va axolining shunga o`xshash boshqa guruhlarini himoya qilish davlatning asosiy vazifasi, degan qoidadan kelib chiqib amalga oshirildi.

Ko`rilgan chora-tadbirlar tufayli iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida axolining eng muhtoj, ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari manfaatlarini himoya qilish mumkin bo`ldi, bu esa axolining muayyan bir qismi qashshoqlashuvining oldini olish, fuqarolar tinchligi va ahilligini ta`minlash imkonini berdi.

Islohotlar chuqurlasha borgan sari aniq maqsadli va axolining aniq tabaqalarini qamrab oladigan ijtimoiy himoya tizimiga o`tildi. Bunday tizimning eng muhim xususiyati, axolining turli qatlamlariga qat`iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashuvdan iborat bo`ldi.

Ijtimoiy ko`maklashuvning ta`sirchan tizimini tashkil etish yo`llarini izlash natijasida ko`maklashishning eng sodda, ammo samarali va ochiq vositasi bo`lgan mahalla orqali muhtojlarga yordam berishga o`tildi. Muhtoj oilalarni iqtisodiy qo`llab-quvvatlash uchun o`zini o`zi boshqarish organlariga tayinli resurslar ajratib berish maqsadida mahallalarda respublika va mahalliy budget mablag`lari, shuningdek korxonalar va tashkilotlarning, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy ravishda o`tkazgan mablag`lari hisobidan maxsus jamg`armalar hosil qilindi.

Bozor munosabatlari vujudga kelayotgan davrda jamiyatdagi ma`naviy, axloqiy muhit, kishilarning ruhiy va jismoniy holati maorif, sog`liqni saqlash hamda madaniyat va san`at sohalarining rivojlanganligiga bog`liq ekanligini hisobga olgan holda ushbu sohalar alohida qo`llab-quvvatlandi.

Mamlakat va jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o`tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilganligi va axolini himoya qilishning o`xshashi bo`lmagan, samarali mexanizmi ishlab chiqilganligi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamladi va iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashga xizmat qildi.

Ta`kidlash joizki, keyingi yillarda axolining o`rtacha umr ko`rish darajasi sezilarli ravishda ortdi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident devonining O`zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag`ishlangan qo`shma majlisidagi ma`ruzasida axolining o`rtacha umr ko`rish darajasi 1990-yilda 67 yoshni tashkil etgan bo`lsa, 2006-yilda 72,5 yoshni tashkil etganligi, jumladan, erkaklar o`rtasida umr ko`rish 66 yoshdan 70 yoshga, ayollar o`rtasida esa 70 yoshdan 74,6 yoshga uzayganligi alohida ta`kidlandi⁴².

⁴² Karimov I. O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident devonining O`zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag`ishlangan qo`shma majlisidagi ma`ruza.

Mustaqillik yillarida respublikada axoli turmush darajasini oshirish bo'yicha olib borilgan siyosat to'la-to'kis o'zini oqladi. Bunday siyosat o'rtacha umr ko'rish darajasining uzayishi, axoli daromadlari oshishi, turmush darajasi ko'tarilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka erishish, turli tahdidlarning oldini olish va oxir-oqibatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun zamin yaratdi.

Axoli ish haqi va daromadlarining o'sish sur'ati eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida axolining real daromadlari sezilarli darajada o'sdi. Masalan, ushbu ko'rsatkich 2006-yilda 2000-yilga nisbatan 2,5 foizga, 1992-yilga nisbatan esa o'rtacha 12 barobar oshdi.

4-jadval

Axolining pul daromadlari tarkibi (axoli pul daromadlari va xarajatlari balansi bo'yicha)

	Jamiga nisbatan foizda			O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda		
	2005-y.	2007-y.	2009-y.	2005-y.	2007-y.	2009-y.
Pul daromadlari, jami	100	100	100	126,3	130,2	138,0
Jumladan:						
Ish haqi	27,8	31,8	36,9	130,1	140,6	154,6
Pensiyalar, nafaqalar, stipendiya	15,5	15,8	16,0	142,4	136,0	131,8
Tadbirkorlik faoliyatidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan tushgan va boshqa daromadlar	56,7	52,4	47,1	120,9	123,1	129,4

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. //Axborot va tahliliy sharh. 2005-yil. -T.: O'zbekiston 2006, 93-b.; O'zbekiston iqtisodiyoti. //Axborot va tahliliy sharh. 2007-yil. -T.: O'zbekiston 2008, 102-b.; O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Respublikada har 3 yilda ish haqini 2-2,5 barobar oshirish muhim strategik vazifa bo'lib hisoblanadi. Shu tariqa, axolining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilish respublika oldidagi asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi.

Mamlakatimizda mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va axoli daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosat natijasida o'rtacha ish haqi miqdori muttasil o'sib bordi va 2008-yilda 300 AQSh dollarini tashkil etdi.

Respublikada axolining pul daromadlari 2004–2009–yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan (4-jadval). Tahlillar shundan dalolat beradiki, axoli daromadlari o'sishining asosiy omili bo'lib ish haqi va ijtimoiy transfertlarning o'sishi hamda axoliga qo'shimcha daromadlar olish uchun shart-sharotlar yaratish xizmat qildi.

Respublikada daromadlar tarkibining takomillashuvi xarajatlar va iste'mol tarkibining ham yaxshilanishiga olib kelmoqda (5-jadval). Axolining banklarga qo'yilmalari va qimmatbaho qog'ozlar ko'rinishidagi naqd pul jamg'armalari ko'payish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga axoli iste'mol xarajatlari

tarkibida ovqatlanish uchun xarajatlarning kamayish va xizmatlarga bo'lgan xarajatlarning o'sish tendensiyasi davom etmoqda.

Axolining uy-joy-kommunal soha ob'yektlaridan foydalanishini yaxshilash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar uning turmush sifatini yaxshilashga yordam berdi. Joylarda yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

«Mamlakatimiz axolisi, avvalo qishloq joylardagi odamlarning turmush sharoiti izchil tarzda yaxshilanmoqda. Istiqlol yillarida 36 ming kilometrlik suv quvurlari, 72 ming kilometrlik gaz tarmoqlari ishga tushirildi. Bu 1991-yilga qadar erishilgan natijalarga nisbatan tegishli ravishda 2 va 4 barobar ko'p demakdir»⁴³.

5 - jadval

Axolining pul xarajatlari tarkibi (pul daromadlariga nisbatan foizda)

Yillar	Axolining pul daromadlari	Shundan pul xarajatlari			naqd pul qoldig'i
		iste'mol xarajatlari	majburiy to'lovlar	banklarga qo'yilgan pullar, sotib olingan qimmatli qog'oz va valutalar	
2005	100	73,1	7,7	17,2	2,0
2007	100	73,5	6,6	18,0	1,9
2009	100	72,2	7,4	17,6	2,8

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. //Axborot va tahliliy sharh. 2005-yil –T.: O'zbekiston 2006, 94-b. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik respublika uchun eng dolzarb bo'lib turgan axoli bandligi va uning daromadlarini oshirishni hal etishda o'ziga xos lokomotiv vazifasini bajarmoqda. Ushbu soha bugungi kunda mamlakatimizda eng yirik mehnat bozori, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbaiga aylanib bormoqda.

O'zbekistonda axoli turmush darajasini oshirishdek yuksak maqsadga erishish uchun xizmat ko'rsatish va servis tarmoqlarini, aloqa va transport, moliya-bank xizmatlari, kommunal xizmat hamda asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatini talab etadigan boshqa infratuzilma sohalarini ham jadal rivojlantirish muhim vazifalar qatorida belgilanmoqda.

5.2. Ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatori sifatida

Iqtisodiy xavfsizlik tizimida insonning, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi masalasi alohida o'rin egallaydi. Chunki taraqqiyotning keyingi bosqichlarida qarorlar qabul qilish jarayonlariga jamiyatning ta'siri oshib bormoqda, ya'ni inson omili ta'siri kuchayib bormoqda. Hozirgi davrda insoniy rivojlanish va hayot sifati davlat

⁴³ Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. //Xalq so'zi, 2007-y. 31-avgust.

boshqaruvi samaradorligining mezoniga aylanib qoldi. Bunday holat insonning iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligi o`rtasida o`zaro bog`liqlik mavjudligini ko`rsatadi.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi insonning muhim hayotiy manfaatlarining himoyalaniishi uchun shart-sharoitlarning kafolatlangandagi, ijtimoiy taraqqiyot hamda inson va jamiyat himoyasi tizimi ta`minlangandagi holatdir. Inson shaxsining iqtisodiy xavfsizligi milliy iqtisodiy xavfsizlik, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda inson iqtisodiy xavfsizligining huquqiy asosini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, respublika qonunlari va turli qonuniy hujjatlar tashkil etadi. Alohida fuqarolar va jamiyat inson iqtisodiy xavfsizligining ob`yekti bo`lib hisoblanadi.

Ish o`rinlari, ijtimoiy ta`minot tizimi, moddiy ishlab chiqarish inson iqtisodiy xavfsizligining sub`yektidir hisoblanadi.

Quyidagilar insonning iqtisodiy xavfsizligi sohasida davlat faoliyatining predmeti bo`lib hisoblanadi:

- insonning iqtisodiy xavfsizligi tizimiga salbiy ta`sir ko`rsatadigan omillarni tahlil va sintez qilish;

- ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun xizmat qiladigan iqtisodiy siyosat va institutsional o`zgarishlarni amalga oshirish.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi borasidagi davlat strategiyasi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- ichki va tashqi tahdidlarni tavsiflash;

- insonning iqtisodiy xavfsizligi shart-sharoitlariga muvofiq keladigan mezon va iqtisodiyotning holati;

- iqtisodiy, huquqiy va ma`muriy choralar asosida insonning muhim manfaatlarini himoyalash;

- insonning iqtisodiy xavfsizligi borasidagi davlat strategiyasi bajarilishini nazorat qilish.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi fuqarolarning hayot faoliyatini ta`minlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishni ko`zda tutadi: oziq-ovqat bilan ta`minlash; ish bilan bandlikni ta`minlash; ta`lim olish uchun sharoit yaratish; axborot bilan ta`minlash; tibbiy xizmat ko`rsatish; pensiya ta`minoti; shaxsiy jamg`armalarini himoyalash; uy-joy kommunal xizmatlari ko`rsatish; ekologik xavfsizlikni ta`minlash.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi davlatning Ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan bog`liq bo`lib, ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo`lgan daromad darajasini ta`minlashni ko`zda tutadi.

Insonning ijtimoiy xavfsizligi mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan sog`liqni saqlash, ta`lim, madaniyat va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini individning yetarli hajmda va sifatli ne`matlar va xizmatlarga bo`lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan darajada taraqqiyotga erishishni bildiradi.

Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqishining bosh sabablaridan biri ishsizlik bo`lib, u iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim indikatori sifatida alohida e`tibor qaratilishi kerak bo`lgan muammolar qatorida turadi. Ishsizlik mamlakatda

mavjud tabiiy, mehnat, moddiy, iqtisodiy va moliyaviy resurslardan samarali hamda yetarlicha foydalanmaslik holatini anglatadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik deganda ishchi kuchining ish joyi bilan ta'minlanmaganligi, natijada uning biror-bir qonuniy daromad manbaiga ega bo'lmashligining muayyan holati tushuniladi. Boshqacha aytganda, ishsizlik – ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli axolining ish bilan ta'minlanmagan qismi⁴⁴. Ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi natijasida ishsizlik vujudga keladi.

Makroiqtisodiy jihatdan ishsizlik jamiyat mehnat salohiyatidan, ishchi kuchi majmuasidan ishlab chiqarish omili sifatida to'la foydalanmaganlikdir. Shu ma'noda, ishsizlik ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlariga yoki foydalanilmayotgan tabiiy va moddiy resurslarga teng, ammo ishlab chiqarishning boshqa omillari ortiqchaligidan farq qilib, “ortiqcha” ishchi kuchi bozori iqtisodiyotidagi doimiy voqealikdir⁴⁵.

Ijtimoiy jihatdan ishsizlik daromadlarning pasayishiga olib kelganligi bois nafaqat ishsiz kishining o'zi uchun, balki uning oilasi uchun ham jiddiy muammolar tug'diradi. Bunday holat oxir-oqibatda jamiyatdagi holatga ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlik miqyoslarining kengayib borishi noroziliklar va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlikning keskin ko'payishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (davlat sektorining kamayishi), inflyatsiya hamda xo'jalik yuritishning muqobil shakllari (xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari) tez o'smaganligi sababli ko'pgina korxonalarda moliyaviy ahvol yomonlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bularning hammasi, tabiiyki, umumiy talab hajmida salbiy aks etadi: davlat ta'siri qisqaradi investitsiya faoliyati sustlashadi, iste'mol xarajatlari esa inflyatsiya ta'sirida turmush darajasining yomonlashuvi tufayli birmuncha kamayadi.

Amalda ishsizlik tabiiy darajasining eng maqbul miqdori yo'q. Hali hech kim iqtisodiyot uchun ma'lum ishchining ishlab chiqarish bilan shug'ullangandan ko'ra, ishsiz bo'lgani afzal ekanligini isbotlashga erishgani yo'q. Aksincha, yalpi milliy mahsulotni yuqori darajada ishlab chiqarish natijasida ishsizlikning tabiiy darajasi pasayadi. Ammo u maqbul miqdordan yuqori bo'lib qolaveradi. Chunki yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish o'z imkoniyat darajasiga yetmagan bo'ladi⁴⁶.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi, ijtimoiy sohalarida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida ish bilan bandlik muammolarini ijobiy hal etishga, ishsizlikning oldini olishga erishildi.

Ishsizlikni oldini olish muammosi ayniqsa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida dolzarb bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, respublikamizda inqiroz oqibatlarini bartaraf etish maqsadida 2009 – 2012–yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi qabul qilindi va u izchil amalga oshirilmogda.

2009-yil uchun va yaqin kelajakka mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng ustuvor vazifalarini belgilab olishda jahon iqtisodiy inqirozining ta'siri va oqibatlarini

⁴⁴ Abduraxmonov Q.X. Imomov V. O'zbekistonda mehnat potentsialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. - T., 2008. 141 b.

⁴⁵ Shu manba

⁴⁶ Abduraxmonov Q.X., Imomov V. O'zbekistonda mehnat potentsialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. - T., “Mehnat” 2008. 141-b.

yetarlicha to'liq hisobga olish muhim vazifa ekanligi respublikamiz Prezidentining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida alohida ta'kidlab o'tildi.

Bugungi kunda respublikamizda ishsizlikning paydo bo'lish sabablariga ko'ra, quyidagi asosiy turlari ko'p uchramoqda:

- tarkibiy, iqtisodiyotning yangi tarmoqlari paydo bo'lishi va mulkchilik shakllarining o'zgarishi bilan yuzaga keladi;

- yashirin, bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xarakterlidir va haqiqiy ishchi kuchini kam miqdorda talab qiladi. Yashirin ishsizlik ishlab chiqarishning chuqur tanazzuli sharoitida korxonalarda ortiqcha bandlikning saqlanib qolganligidan dalolat beradi;

- mavsumiy, ma'lum mavsumda ish bilan bandlikni ta'minlovchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash hamda tayyorlash muddati bilan asoslangan. Mavsumiy ishsizlikning hajmi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif mavsumiy omillarining barobar ta'sir qilishi sifatida namoyon bo'ladi;

- texnologik o'zgaruvchan, bu korxonada texnologik o'zgarishlarning amalga oshirilishi va modernizatsiya qilinishi natijasida, masalan, fan-texnika yutuqlari natijasida qo'l mehnati o'rnini texnika egallashi natijasida yuzaga keladi⁴⁷.

Mustaqil taraqqiyot davrida O'zbekistonda ishsizlikni oldini olish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ishsizlar soni qisqarib, ishsizlik darajasi chegaraviy miqdorlar doirasida saqlanib qoldi. Xalqaro standartlarga muvofiq ishsizlik darajasi chegaraviy miqdori Xalqaro Mehnat Tashkiloti metodikasi bo'yicha hisoblaganda 7 foiz atrofida bo'lib, uning darajasi shu miqdordan oshib ketadigan bo'lsa, bu iqtisodiyotga tahdid sanaladi. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich hozirda 5 foizni tashkil etadi.

6 – jadval

Mehnat organlariga ish izlab murojaat qilgan fuqarolar soni

Ko'rsatkichlari	2000-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.
Mehnat organlariga ish izlab murojaat qilgan fuqarolar soni, ming kishi	421,4	391,5	557,4	623,3
Shu jumladan:				
Mehnat faoliyati bilan band bo'lmaganlar, ming kishi	197,5	192,6	294,2	354,5
Ularning ulushi, %	46,9	49,2	52,8	56,9

Manba: Uzbekistan в цифрах. 2001.-Т., 2002. с.34; Uzbekistan в цифрах. 2007. -Т., 2008. с.49; Uzbekistan в цифрах. 2008.-Т., 2009. с.48;

O'zbekistonda 2000-yildan boshlab mehnat organlariga ish izlab murojaat qilganlar soni pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi va ushbu tendensiya 2006- yilgacha davom etdi. 2007-yildan boshlab ish izlayotganlar soni osha boshladi va 2008-yilda 623,3 ming kishini tashkil etdi (6- jadval).

⁴⁷ Abduraxmonov Q.X., Imomov V. O'zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. - Т., "Mehnat" 2008. 146-b.

Bunday holat jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bilan bog'liq hisoblanadi. Keltirilgan ma'lumotlardan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini O'zbekistondagi mehnat bozoriga ham ta'sir qilayotganligidan dalolat beradi. 2000 – 2008– yillar davomida mehnat organlariga ish izlab murojaat qilgan fuqarolar orasida mehnat faoliyati bilan band bo'lmaganlar sonining ham absolyut, ham nisbiy miqdorda o'sganligini ko'rish mumkin. Ushbu ko'rsatkich 2000-yildagi 46,9 foizdan 2008-yilda 56,9 foizgacha oshdi.

7- jadval

Mehnat organlari tomonidan ishga joylashtirilgan fuqarolar soni

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.
Mehnat organlariga ish izlab murojaat qilgan fuqarolar soni, ming kishi	421,4	391,5	557,4	623,3
Shulardan:				
Ishga joylashganlar soni, ming kishi	280,6	320,7	486,5	546,6
Ularning ulushi	66,6	81,9	87,3	87,7

Manba: Uzbekistan v cifrax. 2001.-T., 2002 c.34; Uzbekistan v cifrax. 2007. -T., 2008. c.49; Uzbekistan v cifrax. 2008.-T.,2009. c.48;

Ishsizlarni ishga joylashtirish ko'rsatkichlari, uning darajasi mehnat bozorining eng asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Keyingi yillarda mehnat organlariga ish izlab murojaat qilgan fuqarolarning ishga joylashish ko'rsatkichlarining oshish tendensiyasi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, 2000-yilda ushbu ko'rsatkich 66,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilda 87,7 foizga teng bo'ldi.

Rasmiy maqomga ega bo'lgan ishsizlarning ishsizlik sabablariga ko'ra taqsimlanishi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning katta qismini asosan, o'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shaganlar tashkil etadi (8-jadval). Tahlil qilinayotgan yillarda rasmiy maqomga ega bo'lgan ishsizlar orasida ularning salmog'i kamaygan. Ushbu yillar davomida ishdan bo'shatilganlar salmog'i ham deyarli ikki barobarga kamaygan. Ayni paytda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari bitiruvchilari ulushi deyarli ikki barobarga ko'paygan.

8-jadval

Rasmiy maqomga ega bo'lgan ishsizlarning ishsizlik sabablariga ko'ra taqsimlanishi, %

Ko'rsatkichlar:	2000-y.		2008-y.	
	jami	shundan, ayollar	jami	shundan, ayollar
Rasmiy maqomga ega bo'lgan ishsizlar	100	100	100	100
shulardan:				
O'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shaganlar	47,4	48,3	41,9	40,9
Ishdan bo'shatilganlar	7,6	7,5	4,4	4,4
Umumta'lim maktablari bitiruvchilari	15,6	16,8	15,7	16,5
Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari bitiruvchilari	6,3	6,0	11,3	11,9
Boshqa sabablar	23,1	21,4	26,7	26,3

Manba: Uzbekistan v cifrax. 2001.-T., 2002 c.34; Uzbekistan v cifrax. 2007.-T., 2008. c.49; Uzbekistan v cifrax. 2008.-T., 2009.

Bunday holat respublikada malakali mehnat bozori shakllana boshlaganidan dalolat beradi. Buning tasdig`ini ishsiz maqomini olganlar orasida umumiy o`rta (to`liq) ma`lumotga ega bo`lganlar ulushining ortib borganligida ham ko`rish mumkin. Agar 2000-yilda ularning salmog`i 51,3 foiz bo`lgan bo`lsa, 2008-yilda 69,9 foizni tashkil etdi⁴⁸.

Rasmiy maqomga ega bo`lgan ishsizlarning yosh bo`yicha taqsimlanishi ko`rsatkichlarining tahlili shuni ko`rsatadiki, ular orasida 16-18 yoshda hamda 50 va undan katta yoshdagilarning ulushi sezilarli darajada kamaygan. Ayni paytda boshqa yosh guruhlar salmog`i ortib borgan (9- jadval).

Inqiroz jahon mehnat bozoriga ham kuchli ta`sir ko`rsatganini quyida keltirilayotgan raqamlardan ham ko`rish mumkin. Xalqaro mehnat tashkilotining ma`lumotlariga ko`ra, 2009-yilda dunyoda o`rta hisobda 211,5 mln. ishsiz bo`lib, ular iqtisodiy faol axolining 6,6 foizini tashkil etgan. Shulardan 122 millioni erkaklar, 89,5 millioni ayollardir.

9 - jadval

Rasmiy maqomga ega bo`lgan ishsizlarning yosh bo`yicha taqsimlanishi, %

Ko`rsatkichlar	2000-y.		2008-y.	
	jami	shundan, ayollar	jami	shundan, ayollar
Rasmiy maqomga ega bo`lgan ishsizlar	100	100	100	100
shulardan:				
16-18 yoshda	11,7	11,7	0,8	0,9
18-30 yoshda	42,3	43,4	50,9	52,4
30-50 yoshda	38,3	39,2	47,0	45,8
50 va undan katta yoshdagilar	7,7	5,7	1,3	0,9

Manba: Узбекистан в цифрах. 2001.-Т., 2002. с.38; Узбекистан в цифрах. 2008.-Т., 2009. с.52;

Ishsizlikning eng yuqori o`rtacha ko`rsatkichi Shimoliy Afrikada - 10,5 foiz, va shuningdek Janubi-Sharqiy Yevropa va MDHga kiruvchi mamlakatlar guruhida – 10,3 foizni tashkil etgan⁴⁹. Ta`kidlash joizki, 2000–2005-yillarda ishsizlikning dunyo bo`yicha o`rtacha ko`rsatkichi 6,2-6,4 foizga teng bo`lib, keyinchalik u pasaya boshlagan (2007-2008-yy. – 5,7-5,8 foiz), 2009-yilda inqiroz sababli yana oshdi va 6,6 foizni tashkil etdi.

BMT ekspertlarining baholashlariga ko`ra, 2009-yilda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar bo`yicha ishsizlikning o`rtacha ko`rsatkichi 8,6 foizga, jumladan AQShda – 9,3 foiz, Yaponiyada – 5,4 foiz, Yevropa Ittifoqida – 9,2 foiz ga, yevrohudud mamlakatlarida – 9,7foizga teng bo`ldi. Ayni paytda ishsizlik darajasi iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan past darajada bo`ldi. Masalan, Xitoyda 2009-yilda ishsizlik 2008-yil darajasida qoldi (4,0 foiz), Braziliyada esa 9,3 dan 7,9 foiz ga pasaydi. Ishsizlik darajasi ayniqsa yoshlar orasida

⁴⁸ Узбекистан в цифрах. 2008.-Т., 2009. с.51.

⁴⁹ Социально-экономическое положение стран Содружества независимых государств в 2009 году. Экспресс-доклад. Январь, 2010 стр 10.

(16 – 24 yosh) yuqori bo`lib, uning o`rtacha ko`rsatkichi 2009-yilda 14 foizni tashkil etdi. 2008-yilda 12,2 foizga teng bo`lgan edi. 2010-yilda ham ishsizlik darajasining o`shishi kutilmoqda.

Jahon mehnat bozorida vujudga kelgan bunday holat Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ekspertlari tomonidan “global mehnat bozoridagi inqiroz” sifatida baholandi.

Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda O`zbekistonda 2008-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti metodikasi bo`yicha hisoblangan ishsizlik darajasi 4,9 foizga teng bo`ldi va 2009-yilda ham deyarli shu darajada saqlanib qoldi. Mamlakatimizda ishsizlik darajasining barqarorlashganligi birinchi navbatda, respublikada ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Inqirozga qarshi choralar dasturining samaradorligidan dalolat beradi. Dasturda yangi ish o`rinlarini yaratish, axolini ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e`tibor qaratildi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bandlik muammosini hal etish, axoli daromadlari va farovonligini oshirishda muhim omil ekanligini hisobga olib, uni jadal rivojlantirish, rag`batlantirish va qo`llab- quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirildi.

Respublika hududlarida qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi⁵⁰. Mamlakatimizda 940 mingdan ziyod yangi ish o`rinlari yaratildi. Ish bilan bandlik muammolari respublikaning qishloq joylarida o`ta dolzarb ekanligidan kelib chiqib, bu yerda 500 mingga yaqin yangi ish o`rinlari tashkil etildi. Sanoat korxonalari bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilik hamda pudrat shartnomasi asosidagi uy mehnatini rivojlantirish bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida 130 mingga yaqin ish o`rni yaratildi.

Shunday qilib, O`zbekistonda Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy oqibatlarini oldini olish, respublika axolisini ishonchli himoya qilish, ularni daromadi va moddiy farovonligini oshirish imkonini ta`minladi. Eng asosiysi respublikada ishsizlik darajasini chegara miqdorlari doirasida saqlab qolishga erishildi va bu mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning muhim omili bo`ldi.

5.3. Oziq-ovqat xavfsizliging ta`minlash zarurati

Oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta`minlash masalasi bevosita milliy xavfsizlikni ta`minlash bilan chambarchas bog`liq. Hozirgi paytda oziq-ovqat xavfsizligi muammolari kishilar hayot faoliyatining muhim tizimi sifatida jiddiy ahamiyatga ega bo`lib bormoqda. Ushbu muammo o`zining dolzarbligi jihatidan harbiy va umumiy iqtisodiy xavfsizlik bilan bir qatorda turadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash mamlakat suveriniteti, iqtisodiy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligini saqlab qolishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. O`z-o`zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlamasdan turib, milliy xavfsizlikning boshqa komponentlari to`g`risida so`z yuritib bo`lmaydi.

⁵⁰ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. //Xalq so`zi, 2010-yil 30-yanvar.

Oziq-ovqat xavfsizligi - murakkab tizimli va ko'p pog'onali muammo bo'lib, mamlakatning juda ko'p iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga tegishli bo'ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini uchta darajada ko'rib chihish mumkin:

- xalqaro darajada;
- ichki iqtisodiy;
- alohida inson, oila, axolining ijtimoiy guruhlari darajasida.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini xalqaro jihatdan ko'rib chiqiladigan bo'lsa, birinchi navbatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan xavfsizlikning yetarli darajasini belgilash yoki aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan mezonlarini aytib o'tish kerak bo'ladi. Ushbu tashkilotning ta'kidlashicha, alohida mintaqalarda ishlab chiqarish hajmlaridagi qisqarishlar o'rnini bosish uchun oziq-ovqat mahsulotlarining ma'lum darajadagi zaxiralariga ega bo'lish kerak. Mana shunday zaxiralar darajasi jahon ehtiyojlarining 20 foizi darajasida bo'lishi lozim. Mutaxassislarining fikricha, ushbu daraja bir necha yillar davomida kritik nuqtadan pastda bo'lgan.

Axolini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlanishi bozor baholarini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy usullaridan foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Bundan tashhari oziq-ovqat xavfsizligi davlatning mamlakat va uni mintaqalarini oziq-ovqat bilan ta'minlash tizimida turli tabiiy ofatlar va favqulotda holatlar natijasida yuzaga keladigan buzilishlarni oldini olishga bo'lgan qodirligini ham ko'zda tutadi. Buning uchun esa doimo yangilanib va o'zni to'ldirib turiladigan strategik oziq-ovqat zaxiralarini va ularni taqsimlash hamda ulardan foydalanish tizimini yaratish zarur bo'ladi.

Demak, oziq-ovqat xavfsizligi ichki imkoniyatlardan foydalangan holda mamlakat axolisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlanishini, import mahsulotlarga bog'liqlikni kamaytirishga erishishni ifodalaydi.

Bugungi kunda yer yuzida 6 milliarddan ziyod axoli istiqomat qilmoqda. Har sohada kechayotgan globallasuv jarayoni taraqqiyot sari tashlangan dadil qadam sifatida talqin etilayotgan bo'lsada, qishloq xo'jaligi, energetika, ekologiya kabi ayrim masalalarda muammo keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas. Bunday holat tabiiyki, jahon hamjamiyati muammolariga jiddiy munosabat bildirishi va ularning yechimini topishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozimligini taqozo etadi. So'nggi paytlarda jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshib borishi nafaqat kambag'al mamlakatlar, balki rivojlanayotgan, hatto dunyoning yetakchi davlatlarini ham tashvishga solmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, yaqin vaqtlar ichida dunyodagi qator mamlakatlar oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotida jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin. Oziq-ovqat taqchilligi ayrim mamlakatlarda tartibsizliklar, g'alayonlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Butunjahon oziq-ovqat dasturining ekspertlari oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligi ayrim mamlakatlarda ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkinligidan tashvishlanmoqdalar. BMT ma'lumotlarida keltirilishicha, bugungi kunda dunyo miqyosida 100 millionga yaqin kishi ocharchilikni boshdan

kechiryapti. Tabiiyki, shu o`rinda oziq-ovqat taqchilligining sabablari nimada degan savol tug`iladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat iste`mol qilish hajmi ortib boryapti. Don mahsulotlaridan yonilg`i ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Qolaversa, dunyo oziq-ovqat zaxiralari so`nggi 25 yilda eng past darajaga tushib ketgan, dunyo birjalarida olib-sotarlik bilan bog`liq firibgarliklar mavjudligi, sobiq mustamlakalarda iqtisodiyotning bir yoqlama rivojlanishi ham oziq-ovqat taqchilligini keltirib chiqarmoqda.

Iqlimning global isishi yer yuzi axolisini oziq-ovqat bilan ta`minlashga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Agar sayyoramizda havo harorati faqat bir darajaga ko`tarilsa, don ekinlaridan olinadigan hosil miqdori 10 foizga pasayib ketar ekan. Oziq-ovqat taqchilligi xavf solayotgan mamlakatlar vaziyatdan chiqish uchun, avvalo, ichki imkoniyatlarni ishga solmoqdalar. Jumladan, dunyoda guruch eksport qilish bo`yicha birinchi bo`lgan Tailand, Hindiston, Vetnam va Braziliya mamlakatlaridan farqli o`laroq guruch eksportini kamaytirmaslikka qaror qildi. Hozirda Tailandda guruchdan bir yilda ikki marta hosil olinayotgan bo`lsa, endi bu ekindan xatto uch marta hosil olish chorolari ko`rilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan asosiy ehtiyojlarni o`z hisobiga qondirish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mana shunday hayotiy muhim vazifani mamlakat iqtisodiyotining yirik tarmog`i bo`lgan agrosanoat majmuasi amalga oshiradi. Shuning uchun ham O`zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat qishloq xo`jaligini isloh qilishga ustunlik berildi.

Respublika sanoatining ko`pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozalash, to`qimachilik, yengil sanoatni, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo`jalik mashinasozligi va boshqalarni rivojlantirish istiqbollari, ularning murakkab o`tish davridagi iqtisodiy-moliyaviy ahvoli bevosita qishloq xo`jaligiga bog`liqdir. Mustaqillik yillarining ilk davrida agrar sohalarni barqaror rivojlantirish tufayli sanoat potensialini saqlab qolish, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog`liq tarmoqlarda esa ishlab chiqarish ko`lamini hatto kengaytirish mumkin bo`ldi. Aynan agrar sektor O`zbekistonda iqtisodiy barqarorlikning qudratli omili bo`ldi. Eng asosiysi mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash uchun mustahkam asos yaratila boshlandi.

Islohotlar davrida qishloqqa butun choralar bilan yordam ko`rsatilishi shart, degan qoidadan kelib chiqqan holda respublikada agrar munosabatlarni isloh qilish uchun, qishloq xo`jaligi korxonalarini qayta tashkil etish, qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirishni yanada ko`paytirish, ayrim mahsulot turlarini chetdan keltirishdagi qaramlikni kamaytirish uchun zarur sharoitlar yaratib kelindi.

Islohotlar davomida iqtisodiy siyosatning eng muhim ustuvor yo`nalishi - qishloq xo`jaligida va umuman agrosanoat majmuasida chuqur progressiv siljishlarga erishildi. Bu siljishlar oziq-ovqat muammosini tubdan hal etishga, qishloq xo`jalik xom ashyosini chuqurroq qayta ishlashga va qishloqlarda kichik korxonalar barpo etishga, qishloqning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga, qishloq axolisining turmush darajasini oshirishga qaratildi.

Respublika qishloq xo`jaligi tarkibini o`zgartirish siyosati zonalar ixtisoslashuvi sharoitlariga muvofiq ekin maydonlari tarkibini eng maqbul xolga

keltirish yo`li bilan amalga oshirildi. O`zak tarmoqlar qatoriga paxta bilan birga g`allachilik va kartoshkachilik ham qo`yildi. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi tarkibini qayta qurish O`zbekistonda qishloq ekinlari va oziq-ovqat mahsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirishni jadal rivojlantirish uchun sharoit yaratdi. Ayni paytda respublikani don va yem, margarin mahsulotlari, iste`mol spirti va eng muhim tovarlarning boshqa turlarini import qilishdan xoli etish imkonini berdi.

2000-2008-yillar davomida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulishi sezilarli darajada qisqargan (10-jadval).

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng, oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash uchun ikki yo`nalishda chora-tadbirlar amalga oshirildi.

birinchidan, qishloq axolisi tomorqa maydonlarini kengaytirish va yangilarini ajratib berish amalga oshirildi;

ikkinchidan, qishloq xo`jaligi ekinlari tarkibini qayta ko`rib chiqish yo`lga qo`yildi.

10-jadval

2000-2008-yillarda O`zbekiston importi tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Tovarlar guruhi	Yillar					
	2000	2002	2003	2004	2007	2008
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqatlar	12,3	12,5	9,9	6,8	7,2	8,3

Manba: O`zbekiston iqtisodiyoti G`G` Axborot-taxliliy sharx, yanvar-sentyabr 2006 yil, T., 2007, 49-bet; Узбекистан в цифрах. 2009. T., 2009, с.162.

Natijada paxta maydonlari 2 mln. gektargacha qisqartirilib, don ekinlari, sabzavot, mevali bog`, uzumzor va yem-xashak ekinlari maydonlari ancha kengaytirildi. Mamlakatda don mustaqilligi dasturi qabul qilinib, sug`oriladigan yerlardagi bug`doy ekishga ajratilgan yer maydoni 1,2 mln. gektarga oshirildi. Buning natijasida bug`doyning bir yillik yalpi hosili 3 mln. tonnadan oshib ketdi va O`zbekiston don mustaqilligiga erishdi.

Davlatning oziq-ovqatga oid siyosati kartoshka, meva-sabzavot mahsulotlari bilan ham o`z-o`zini ta`minlashni ko`zda tutadi. Axoliga yetarli darajada chorvachilik mahsulotlari va o`simlik moyi yetkazib berish, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun zarur bo`lgan bazani barpo qilish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlarining yetarli zaxirasini shakllantirish, ularning chakana baholari barqarorligini ta`minlashga erishish, chetdan keltirilayotgan mahsulotlar ulushini qisqartirib borish ham oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlashning muhim yo`nalishlari hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirish hajmlari ancha oshdi, oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki bug`doy eksportini ham amalga oshirish imkoniyati paydo bo`ldi. 2009-yilda 6,8 mln. tonna bug`doy yetishtirildi. Mamlakat ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtirilgan un va non mahsulotlariga

baholarning yuqori chegaralarini belgilash siyosatini amalga oshirilganligi ushbu mahsulotlarga narxlarni axoli imkoniyatlariga mos keladigan darajada ushlab turish imkonini berdi.

Iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan eng muhim tarmoqlar qatoriga – yoqilg`i-energetika, oziq-ovqat sanoati, transport va aloqa sohalari kiradi. Ushbu strategik ahamiyatga ega bo`lgan tarmoqlarni rivojlantirish orqali, birinchidan, energetik va oziq-ovqat mustaqilligiga erishiladi, ikkinchidan, jahon bozorlariga, resurslarning xalqaro manbalariga chiqish uchun transport yo`llariga ega bo`linadi.

Qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlashning muhim omillaridan bo`lib hisoblanadi. Ushbu tarmoqlarni rivojlantirish natijasida, birinchidan, dunyo bozoriga chiqish, ikkinchidan esa, mamlakat ichida kapital jamg`arishga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Umuman, qishloq xo`jaligi sohasining rivojlanganligi oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlanish darajasini ifodalaydi, deyilsa xato bo`lmaydi.

Umuman, mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini ifodalovchi eng asosiy ko`rsatkich iste`mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari hajmida milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ulushi hisoblanadi.

Ta`kidlash joizki, oziq-ovqat sanoati rivojlanishi ichki talab omillarining yuqori darajadagi ta`siri bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarishni o`sis sur`atlari ayniqsa 2006-yilda yuqori darajada qayd etildi. Bu yili ushbu ko`rsatkich 28,0 foizni tashkil etdi.

Mutaxassislarning fikricha, oziq-ovqat sanoati, ayniqsa, sabzavot va mevani qayta ishlash sohasida tarmoqning eksport salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayapti. Ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining sifati ichki bozorga import qilinayotgan mahsulotlar sifatidan pastligi, bu mahsulotlarning respublikada ishlab chiqarish hajmini va ularga bo`lgan iste`mol talabi kamayishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, bu mahsulotlarning asosiy qismi kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqariladi, lekin ularning hajmi yil yakunlari bo`yicha natural ko`rsatkichlarda statistika organlari tomonidan hisobga olinmaydi.

Respublika hukumati tomonidan ko`rilayotgan chora-tadbirlar axolini ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan ehtiyojlarining kafolatli qondirilishini ta`minlamoqda. Respublikaning ishlab chiqarish salohiyati hamda don, un, o`simlik yog`i va boshqa turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining shakllantirilgan ishonchli zaxiralari, ulgurji va chakana savdodagi zarur zaxiralar axolining ularga bo`lgan ehtiyojini to`liq qoplaydi, ichki iste`mol bozorining uzluksiz to`ldirilishini ta`minlaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ifoda etuvchi parametrlar tarkibiga axolining oziq-ovqat bilan ta`minlanganligi, uning assortimentining xilma-xilligi, oziq-ovqat mahsulotlarining kaloriyaliligi, unda foydali elementlarning mavjudligi, sog`liq uchun xavfsizligi kabilar kiritiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari sifati inson salomatligini belgilovchi tayanch omildir. Yevropa davlatlari o`zaro hamkorlikda ichki bozorni sifatsiz inson salomatligi uchun xavfli oziq-ovqat mahsulotlaridan, qishloq xo`jalik hayvonlarini esa xavfli ozuqalardan himoya qilish maqsadida, 1998-yilda oziq-ovqat mahsulotlari va hayvon ozuqasida uchraydigan xavf va illatlarni (fizikaviy, kimyoviy va biologik) nazorat

qilish uchun «Xavf tahlili va kritik nuqtalar nazorati» tizimli yondashuvini ishlab chiqishdi hamda 2006-yil 1-yanvardan amaliyotga joriy etildi. Bunday qaror masalaning yuqori darajada dolzarbligini ko'rsatadi, chunki oziq-ovqat mahsulotlaridan kelib chiqadigan xavflarning inson salomatligiga, ayniqsa, go'dak organizmiga salbiy ta'siri Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan chuqur o'rganilib, tahlil etilib, keng jamoatchilikka ma'lum qilingan.

O'zbekistonda mahalliy korxonalarda ishlab chiqariladigan va import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini nazorat qilish tizimi shakllantirildi. Bunda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yildagi «Ichki bozorni sifatsiz, xavfli oziq-ovqat mahsulotlaridan himoya qilish to'g'risida»gi qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda erkin bozor munosabatlari rivojlanishi oziq-ovqat va umumiy ovqatlanish sohasida tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochilishiga hamda sohada jiddiy tuzilmaviy o'zgarishlar sodir bo'lishiga, bu tarmoq korxonalarining deyarli barchasi davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiylashtirilishiga sharoit yaratdi.

Qisqacha xulosalar

Axoli turmush darajasi milliy va iqtisodiy xavfsizlikning eng asosiy ijtimoiy indikatorlari hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikaning mustaqil taraqqiyoti davrida axoli turmush darajasini oshirish borasida islohotlarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratildi. Mamlakat va jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilganligi va axolini himoya qilishning o'xshashi bo'lmagan, samarali mexanizmini ishlab chiqilganligi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamladi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida respublikada axoli turmush darajasini oshirish bo'yicha olib borilgan siyosat to'la-to'kis o'zini oqladi. Bunday siyosat o'rtacha umr ko'rish darajasining uzayishi, axoli daromadlarini oshishi, turmush darajasi ko'tarilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka erishish, turli tahdidlarni oldini olish va oxir-oqibatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun zamin yaratdi.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi insonning muhim hayotiy manfaatlarining himoyalaniishi uchun shart-sharoitlarning kafolatlangandagi, ijtimoiy taraqqiyot hamda inson va jamiyat himoyasi tizimi ta'minlangandagi holatdir.

Insonning ijtimoiy xavfsizligi mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini individning yetarli hajmda va sifatli ne'matlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan darajada taraqqiyotga erishishni bildiradi.

Ishsizlik – jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqishining bosh sabablaridan biri. Shuning uchun ham ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim indikator sifatida alohida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muammolar qatorida turadi. Ishsizlik mamlakatda mavjud tabiiy, mehnat, moddiy, iqtisodiy va moliyaviy resurslardan samarali hamda yetarlicha foydalanmaslik holatini anglatadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta'minlash masalasi bevosita milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi paytda oziq-ovqat xavfsizligi muammolari kishilar hayot faoliyatining muhim tizimi sifatida jiddiy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu muammo o'zining dolzarbligi jihatidan harbiy va

umumiqtisodiy xavfsizlik bilan bir qatorda turadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mamlakat suverenitetini, iqtisodiy xavfsizligini va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda.

Nazorat savollari

1. Mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilgan ijtimoiy siyosatning mazmuni nimadan iborat bo'ldi?
2. Axoli turmush darajasi qanday ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi?
3. Respublikada axoli turmush darajasini oshirish qaysi yo'nalishlarda olib borildi?
4. Mustaqillik yillarida axoli turmush darajasida qanday o'zgarishlar amalga oshdi?
5. Axoli turmush darajasidagi o'zgarishlar ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda qanday rol o'ynadi?
6. Insonning iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligi hamda ularning o'zaro bog'liqligi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ijtimoiy xavfsizlikka qanday ta'sir ko'rsatdi?
8. Nima uchun ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatori sifatida o'rganiladi?
9. Ishsizlik tushunchasi va uning turlari.
10. O'zbekistonda ishsizlikning oldini olish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
11. Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida qanday siyosat olib borilmoqda?


Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni barataf etishning yo'llari va choralari.- T.: O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. //Xalq so'zi. 2007-yil 31-avgust.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995.
4. Abduraxmonov Q.X., Imomov V. O'zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. - T., 2008. 146-b.
5. G'oyibnazarov B.K. Axoli turmush darajasini statistik baholash. -T., Fan, 2005, 8-b.
6. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2007.
7. Экономическая безопасность: Учеб. пособие для студентов экономических вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. В.А. Богомолов и др. /Под ред. В.А. Богомолова. -М.: ЮНИТИ ДАНА, 2009.
8. O'zbekiston iqtisodiyoti. //Axborot va tahliliy sharh. 2007-yil –T.: 2008, 102-b.
9. Узбекистан в цифрах. 2009. Т., 2009.

VI bob. KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ishlab chiqarishni tashkil etishning butunlay yangi tizimi hisoblanadi. Iqtisodiyot sub'yektlari orasida milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim dastagi bo'lgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda, uning ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyati hamda kadrlarini faol va nafaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiy-sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligi tushuniladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlik buzilganda, ayniqsa, dolzarb bo'ladi.




6- chizma. Korxonada iqtisodiy xavfsizligining asosiy maqsadi

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uzluksiz jarayon bo'lib, unda vujudga kelishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish vazifasi qo'yiladi. Buni amalga oshirish uchun korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi bo'lishi talab etiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi deganda, korxonada ish faoliyatini amalga oshirishda uning xavfsizligini yetarli darajada ta'minlashga qaratilgan eng muhim qaror va chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi⁵¹. Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasining uchta asosiy turi ajratib ko'rsatiladi.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda beshta elementga ahamiyat berish kerak bo'ladi: birinchi - korxonada iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarning tarkibi va xarakteri hamda ta'sir ko'rsatish yo'nalishlarini aniqlash; ikkinchi, korxonada iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadigan tahdidlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash; uchinchi - korxonada iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadigan tahdidlarning muhimligi va yuzaga kelish vaqti nuqtai nazaridan guruhlariga ajratish; to'rtinchi u yoki bu tahdidlarga nisbatan korxonada iqtisodiy xavfsizligi strategiyasini shakllantirish va uning variantini tanlash; beshinchi, korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aniq chora- tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

⁵¹ Aminov Z. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ... dissertatsiya avtoreferati. Samarqand. 2009. 10 b.



7- chizma. Korxonona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi turlari

Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik borasidagi strategiyasini puxta ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish milliy iqtisodiyotning eng muhim dastagi bo'lgan korxonalarining barqaror o'sishi va rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxonona (firma) faoliyatining asosiy maqsadi foyda (daromad) olish hisoblanadi. Shuningdek, korxonona o'z oldiga ishlab chiqarishni kengaytirish, personalning kasbiy mahoratini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan va taklif etilayotgan mahsulotning iste'molchilarini, mijozlarini va insofli sherik, hamkorlar sonini ko'paytirishni ham maqsad qilib oladi.

Korxonaning iqtisodiy manfaatlari, turli ehtiyojlar mavjud sharoitda talabni qondirish, yashash va rivojlanish uchun raqobat kurashi kuchaygan sharoitda himoya qilinadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda — xo'jalik subyekting moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, korxonona aylanma aktivlarining umumiy aktivlar summasiga nisbati;
- joriy likvidlik ko'rsatkichi;
- o'z kapitalining rentabelligi;
- umumiy to'lovga qodirlik ko'rsatkichi, aktivlar bozor qiymatining xo'jalik subyekting barcha majburiyatlariga nisbati;
- kapitallashtirish koeffitsiyenti, bozor qiymatidagi o'z kapitalining qarz mablag'larini balans qiymatiga nisbati;
- menejment koeffitsiyenti, sotishdan olingan pul tushumining joriy majburiyatlar miqdoriga nisbati.

Xavfsizlik tizimi o`z ichiga quyidagilarni oladi:

- korxonada obyektlari, boshqaruvchi rahbarlarning shaxsiy daxlsizligi hamda pul mablag`larini saqlash uchun qo`riqchi-qorovullik xizmatini tashkil etish;

- korxonaning axborot ijtimoiy jihatdan himoyalanihini ta`minlaydigan analitik xizmat tashkil etish. Uning vazifalari ichida razvedka va kontrrazvedka bilan shug`ullanishni tashkil etish uchun strategik muhim subyektlar bilan ishlash.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash bo`yicha chora-tadbirlar amalga oshirish uchun uning xavfsizligiga tahdid soladigan xavf-xatarlarni bilish kerak. Buning uchun korxonada iqtisodiy xavfsizligini ifodalaydigan parametrlarni o`rganish va ularni tahlil qilish kerak. Lekin shuni ta`kidlash kerakki, respublikada korxonalar iqtisodiy xavfsizligini baholash bo`yicha ko`rsatkichlar tizimi ishlab chiqilmaganligi bu boradagi amaliy muammolardan biri hisoblanadi.⁵²

G.S. Vechkanovning “Экономическая безопасность” nomli darsligida korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash beshta elementni o`z ichiga olishi aytib o`tilgan:

- birinchi, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning tarkibi va tavsifini hamda ularning ta`sir yo`nalishini aniqlash;

- ikkinchi, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning ta`siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni baholash;

- uchinchi, iqtisodiy xavfsizlikka ta`sir ko`rsatadigan tahdidlarning muhimligi va vujudga kelish vaqti bo`yicha guruhlariga ajratish;

- to`rtinchi, u yoki bu tahdidlarga nisbatan iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash strategiya variantini shakllantirish va tanlash;

- beshinchi, iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha aniq belgilangan chora – tadbirlarni aniqlash va amalga oshirish.

Yuqorida nomi keltirilgan darslikda iqtisodiy xavfsizlik keskinlashuviga olib keladigan omillar sifatida quyidagilar keltirilgan: korxonaning raqobatbardoshlik ko`rsatkichining pastligi; korxonada uchun investitsiya muhitining yaxshi emasligi; korxonaning moliyaviy faoliyati barqaror emasligi; davlatning o`z ehtiyojlari uchun kerak bo`ladigan mahsulotlarining haqini to`lash borasida qobiliyatsizligi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini son va sifat jihatdan tavsiflaydigan indikatorlarga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish dinamikasi; ishlab chiqarish korxonasining tarmoq va mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmidagi ulushi; ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solishning amaldagi darajasi; ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi; ishlab chiqarishning rentabellik darajasi; aylanma mablag`larni moliyalashtirish uchun o`z manbalari bilan ta`minlanganlik; muddati o`tgan qarzdorlik (debitorlik, kreditorlik).

Korxonada iqtisodiy xavfsizligiga ta`sir ko`rsatadigan xavf-xatarlar kelib chiqish manbalariga ko`ra ichki va tashqi tahdidlarga ajratiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta`sir ko`rsatadigan ichki tahdidlar asosan ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi:

⁵² Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. Учебник. –СПб.: Питер, 2007, с.227-228.

- asosiy kapitalni eskirgan elementlarining ommaviy tarzda ishdan chiqishi, ularning o`rnini to`lmasligi va buning natijasida ishlab chiqarish salohiyatining yo`qotilishi;

- texnika va texnologiyaning orqada qolishi;
- ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi;
- korxonada o`g`rilik va boshqa noxush hodisalarning mavjud bo`lishi;
- korxonada personalning xatolari ("inson omili");
- raqobatchilarning axborot olish uchun korxonada personalidan foydalanishi.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligiga ta`sir ko`rsatadigan tashqi tahdidlarga quyidagilar kiradi:

- tovarlar bozorida o`z o`rnini yo`qotish, ya`ni o`z tovarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta`minlaydigan foyda bilan sotish imkoniyatining yo`qligi;
- mamlakatda moliyaviy holatning salbiy tomonga o`zgarishi;
- fond bozorida korxonada aksiyalari narxlarining pasayib ketishi, ya`ni korxonaning kapitallashtirish darajasining pasayishi;
- xaridorlarning to`lov intizomini buzishi;
- nohalol raqobatchilar va kontragentlar, kriminal raqobat va sanoat shpionaji;
- davlatning jinoiy - huquqiy va iqtisodiy siyosatining zaif tomonlari;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi jinoyatlar;
- yangi mahsulot ishlab chiqarish va uni ishlab chiqarishga joriy etish⁵³.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligiga ta`sir ko`rsatadigan tahdidlarni bartaraf etish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish kerak bo`ladi. Korxonada xodimlarining yuqori malakaga ega bo`lishlarini ta`minlash, xodimlarning yuqori intellektual salohiyatga ega bo`lishlariga erishish, korxonaning texnik va texnologik jihatdan mustaqilligini ta`minlash, yuqori raqobatbardoshlikka erishish, korxonada boshqarishda yuqori samaradorlikka erishish, korxonada faoliyatining yetarli ekologik darajasini ta`minlash, korxonaning huquqiy himoyalanganligi, korxonaning axborot muhiti himoyasini ta`minlash, korxonada xodimlari xavfsizligini ta`minlash kabilar shular jumlasidandir.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashning quyidagi asosiy yo`nalishlariga alohida e`tibor qaratish maqsadga muvofiq bo`ladi:

- korxonaning ekologik xavfsizligini umumstrategik rejalashtirish va prognozlash;
- korxonaning moliyaviy-xo`jalik faoliyatini strategik rejalashtirish;
- korxonaning moliyaviy-xo`jalik faoliyatini taktik jihatdan rejalashtirish;
- korxonaning moliyaviy-xo`jalik faoliyatini operativ boshqarish.

Qisqacha xulosalar

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi uning ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyati hamda kadrlarini faol va nafaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiy-sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligidir.

⁵³ Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. Учебник. –СПб.: Питер, 2007, с.227-228.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik borasidagi strategiyasini puxta ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish milliy iqtisodiyotning eng muhim dastagi bo`lgan korxonalarining barqaror o`sishi va rivojlanishi uchun mustahkam asos bo`lib xizmat qiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun uning xavfsizligiga tahdid soladigan xavf-xatarlarni bilish kerak. Buning uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ifodalaydigan parametrlarni o`rganish va ularni tahlil qilish lozim.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta`sir ko`rsatadigan xavf-xatarlar kelib chiqish manbalariga ko`ra ichki va tashqi tahdidlarga ajratiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta`sir ko`rsatadigan ichki tahdidlar asosan ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi.

Nazorat savollari

1. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tushunchasining mazmun va mohiyati .
2. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash zarurati nimadan kelib chiqadi?
3. Kelajakda korxonaning yuqori o`sish va rivojlanish salohiyatini yaratish uchun nimalar qilish kerak?
4. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash strategiyasining mazmuni nimadan iborat?
5. Korxonaning xo`jalik faoliyatining sifat va miqdor ko`rsatkichlari tahlili qanday amalga oshiriladi?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - T.: O`zbekiston, 2010.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataf etishning yo`llari va choralari. - T.: O`zbekiston, 2009.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta`minlash va eksport salohiyatini oshirish bo`yicha chora-tadbirlar Dasturi to`g`risida»gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2008-yil 2-dekabr.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2008-yil 19-noyabr.
5. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. Учебник. –СПб.: Питер, 2007.
6. Экономическая безопасность: учеб. пособие для студентов экономических вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. /Под ред. В.А. Богомолова. -М.: ЮНИТИ ДАНА, 2009.

VII bob. XUFIYONA IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA`SIRI

7.1. Xufiyona iqtisodiyot global muammo sifatida

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi insoniyatning yanada taraqqiy etishi uchun yangi imkoniyatlar ochish bilan birga, bir qator sifat jihatdan yangi bo`lgan global tahdidlarni ham keltirib chiqardi. Bugungi kunga kelib xufiyona iqtisodiyot transmilliy xarakterga ega bo`lib bormoqda.

Tadqiqotchilarning fikricha, xufiyona iqtisodiyotning jahon YaIMdagi ulushini aniq hisoblashning imkoni yo`q. Angliyada chop etiladigan "Economist" jurnalining ekspertlari planetadagi xufiyona biznes hajmini 1,85 trln. f.st. miqdorida baholaydilar. Xalqaro valuta fondi xodimlarining fikricha, jahonda xufiyona operatsiyalarning umumiy hajmi 10-11 trln. doll.ni tashkil etadi⁵⁴. Bu raqam jahondagi eng katta hajmdagi YaIMga ega bo`lgan AQShning yalpi ichki mahsulotining hajmiga tengdir. Demak, bundan ko`rinadiki, xufiyona iqtisodiyot hozirgi zamonning global muammosiga aylandi.

Jahonning turli mamlakatlari va mintaqalarida xufiyona iqtisodiyotning miqyosi va xususiyatlari ulardagi milliy xo`jalik modellari va bozor munosabatlarining takomillashganlik darajasi bilan bog`liqdir. Mana shundan kelib chiqqan holda xufiyona iqtisodiyotning turlarini ajratadilar: rivojlangan mamlakatlarda, rivojlanayotgan mamlakatlarda hamda o`tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda. Ushbu mamlakatlar guruhlarida xufiyona iqtisodiyotning miqyoslari bir-biridan farq qiladi. Mutaxassislarning baholashlaricha, rivojlangan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot YaIMning 12-16 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarda 40-50 foizini, o`tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda 23-25 foizni tashkil etadi.

Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarida xufiyona sektorning ulushi boshqa guruh mamlakatlaridagiga nisbatan ancha past. Lekin rivojlangan mamlakatlarning barchasida ham ushbu ko`rsatkich bir xil emas. Ularning orasida xufiyona faoliyat ko`rsatkichlari ancha yuqori bo`lganlari ham bor. Xufiyona sektorning ulushi nisbatan past bo`lgan (8-10 foiz darajasida) mamlakatlarga Avstriya, AQSh va Shveysariya kiradi. Irlandiya, Kanada, Fransiya va Germaniyada 15-16 foizni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlar orasida Gretsiya, Italiya, Ispaniya, Belgiya mamlakatlarida xufiyona iqtisodiyotning ulushi nisbatan yuqori bo`lib, 23-29 foizni tashkil etadi.⁵⁵ AQShda xufiyona iqtisodiyot yiliga 700 mlrd., Italiyada 310 mlrd. Buyuk Britaniyada 190 mlrd. dollarlik tovarlar ishlab chiqaradi va xizmatlar ko`rsatadi.

Keyingi o`n yilliklarda deyarli barcha mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyotning o`sishi kuzatilmoqda. Masalan, Germaniyada 1975-yilda YaIMda xufiyona iqtisodiyotning ulushi 5,75 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2000-yilda 16 foizga teng bo`lgan. 70 - yillarning oxiri va 80 - yillarning boshida Germaniyaning mehnatga layoqatli axolisining 8-12 foiz xufiyona iqtisodiyotda band bo`lgan bo`lsa, bugungi

⁵⁴ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. -М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА, 2005, с.33.

⁵⁵ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. -М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.61.

kunga kelib ushbu ko`rsatkich 22 foizni tashkil etadi. Bu borada Italiya birinchi o`rinda turadi. Ekspertlarning baholashlariga ko`ra ushbu mamlakatda iqtisodiy faol axolining 30 dan 48 foizgacha xufiyona sektorda band. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 10 mln.dan kam bo`lmagan kishilar faqat xufiyona iqtisodiyotda band bo`lgan bo`lsa, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR)ga a`zo mamlakatlar bo`yicha ushbu raqam 17 mln.ni tashkil etadi⁵⁶.

Rossiya statistika qo`mitasining ma`lumotlariga ko`ra, ushbu mamlakat iqtisodiyotining beshdan bir qismi yashirin, deb hisoblanadi. Jahon banki esa uning miqyoslarini 49 foiz deb baholaydi. Boshqa ma`lumotlarga ko`ra, Rossiyada 600-800 mlrd. rub yashirin iqtisodiyotda «aylanadi»⁵⁷.

Xufiyona iqtisodiyot muammosini tadqiq qilishda mutaxassislar quyidagi qonuniyatga alohida e`tibor qaratadilar. Qaysi mamlakatda axoli jon boshiga to`g`ri keladigan daromadlar yuqori bo`lsa, shu mamlakatda xufiyona iqtisodiyot miqyoslari kam bo`ladi. Axoli jon boshiga to`g`ri keladigan daromad miqdori yiliga 30 ming doll.dan kam bo`lmagan mamlakatlarda jamiyatning ijtimoiy tarkibida axolining 60-70 foizni tashkil etuvchi o`rta qatlamlar yetakchi rol o`ynaydi. Bular asosan qonunlarga itoat etadigan mas`uliyatli soliq to`lovchilardir. Albatta, bu mamlakatlarda kam ta`minlanganlar ham mavjud, lekin rivojlangan ijtimoiy yordam dasturlari ularni xufiyona iqtisodiyotga tortilishlariga to`siq bo`ladi.

11- jadval

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida xufiyona iqtisodiyot (YaIM ga nisbatan foizda)⁵⁸

Bolgariya	32,7
Xorvatiya	28,5
Vengriya	28,4
Ruminiya	18,3
Chexiya	14,5
Polsha	13,9
Slovakiya	10,2
O`rtacha	20,9

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo`lgan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot yo`lida to`siq rolini o`ynaydigan samarali institutsional mexanizm shakllangan. Bunda davlat markaziy bo`g`in bo`lib hisoblanadi.

Lekin rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti subyektlarining ma`lum bir qismi uchun xufiyona faoliyat olib borish xarakterli bo`lib, Yevropa Ittifoqining maxsus masalalar bo`yicha komissiyasining 1998-yil Bryussel shahrida e`lon qilingan ma`ruzasida ta`kidlanganidek, xufiyona iqtisodiyot ushbu tashkilotga a`zo mamlakatlar umumiy YaIMning 16 foizini tashkil etadi⁵⁹. Ma`ruzada xufiyona iqtisodiyot ishlab chiqaruvchilar tomonidan hukumat organlaridan yashiriladigan qonuniy faoliyat, deb baholangan.

⁵⁶ Shu manba, s.62.

⁵⁷ “Аргументы и факты”. №5, февраль, 2010, с.7.

⁵⁸ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства.-М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с. 64.

⁵⁹ Экономическая безопасность России. Учебник. / Под общ. ред. акад. Сенчагова В.К. -М., ДЕЛО 2005, с. 771.

Rivojlangan mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik bozor xo'jaligining samarali ishlashini ta'minlovchi va xufiyona iqtisodiyot faollashuvini birmuncha cheklab turuvchi muhim shartlardan biridir. Mana shu muvozanatning buzilishi iqtisodiy jinoyatchilikning kuchayishiga olib keladi. Bunga AQShda 1930 - yillarda sodir bo'lgan buyuk depressiya davrida jinoyatchilikni avj olib ketganligi misol bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot miqyoslari rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha yuqori bo'lib, buning sabablari tubdan farq qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot majburiy xarakterga ega bo'lib, axolining o'ta kambag'al qatlamlarini qanday qilib bo'lsa ham kun ko'rish masalasini hal etish bilan belgilanadi.

Ta'kidlanganidek, rivojlanayotgan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot ulushi juda katta bo'lib, Nigeriyada rasmiy YaIMning 76 foizini tashkil etadi. Mana shunday yuqori ko'rsatkichlar Tailand (71 %), Misr (68 %), Boliviya (66 %) va Panama (62 %) kabi mamlakatlarda kuzatiladi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa 60-65 foiz atrofida qayd etilgan.

Xufiyona iqtisodiyot o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatlariga ega. Masalan, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari ichida xufiyona iqtisodiyot, ayniqsa, Bolqon mamlakatlarida keng miqyos yoyib ketdi. Makedoniya, Xorvatiya va Bolgariyada YaIMning 40 foizi atrofida bo'ldi. Shunday qilib, xufiyona iqtisodiyot dunyoviy xarakterga ega bo'lib, turli mamlakatlarda uning kelib chiqish sabablari ham turlichadir.

7.2. Xufiyona iqtisodiyot mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida

Xufiyona iqtisodiyot bilan bog'liq muammolar o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab tadqiqotchilarning e'tiborlarini tortib boshlagan.

Akademik G. Senchagov tahriri ostida nashr etilgan "Экономическая безопасность России" deb nomlangan darslikda yozilishicha, xufiyona iqtisodiyot muammolarini o'rganish borasidagi salmoqli ishlardan biri P. Gutmanning (AQSh) "Yashirin iqtisodiyot" deb nomlangan maqolasi bo'ldi. Unda hisobga olinmagan yoki yashirin faoliyatni pisand qilmaslik mumkin emasligi ta'kidlangan⁶⁰.


Xufiyona iqtisodiyot – jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlarning xarajati. Boshqa so'z bilan aytganda, alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi davlat boshharuv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Bu munosabatalar iqtisodiy faoliyatning hisobga olinmagan va reglamentlanmagan munosabatlarini o'z ichiga oladi.

"Xufiyona iqtisodiyot" o'quv qo'llanmasining mualliflari xufiyona iqtisodiyotni nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, xufiyona iqtisodiyot "jamiyat tomonidan nazorat qilib bo'lmaydigan, mamlakat axolisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhviy manfaatlarini qondirish, ya'ni katta miqdorda qo'shimcha daromad (foйда) olishni ko'zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va

⁶⁰ Экономическая безопасность России. //Под общ. ред. акад. Г.Сенчагова. -М.: ДЕЛЮ. 2005, с.764.

nodavlat mulkidan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo`l bilan foydalanishdir”⁶¹. Xufiyona iqtisodiyot oshkor rasmiy iqtisodiyot bilan chambarchas bog`langan bo`lib, uning tarkibiy qismidir. Xufiyona iqtisodiyot tadbirkorlari o`z faoliyatlarida iqtisodiy munosabatlar, xo`jalik yuritish subyekti bo`lmasdan turib, davlatning “xizmati”dan, moddiy – ashyoviy omillari, ishchi kuchidan foydalanadilar.

Iqtisodiy adabiyotlarda «xufiyona iqtisodiyot» kriminal, soxta, nofarmal, nolegalashtirilgan (ikkilamchi iqtisodiyot)larga bo`lib o`rganiladi.(8-chizma)



8 – chizma. Xufiyona iqtisodiyotning shakllari

Kriminal iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyot tarkibida amalga oshiriladigan iqtisodiy jinoyat shaklida namoyon bo`ladi (masalan, o`g`rilik, nazoratning barcha shakllaridan butunlay berkitilgan yashirin iqtisodiy faoliyat). Sohta iqtisodiyot harakatdagi hisob va hisobot tizimida ifodalanadigan soxtalashtirilgan natijalarni beruvchi rasmiy iqtisodiyot sifatida tavsiflanadi (qo`shib yozishlar).

Norasmiy iqtisodiyot iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishni rasmiy o`rnatilgan tartibini to`ldiruvchi yoki almashtiruvchi shaxsiy munosabatlarga va bevosita bo`ladigan aloqalarga asoslangan o`zaro norasmiy munosabatlar tizimini ifoda etadi.

Nolegal (ikkilamchi iqtisodiyot) nazoratdan berkitilgan individual va kooperativ faoliyat turlarini, ya`ni o`rnatilgan tartibda ro`yxatga olinmagan faoliyat turlarini qamrab oladi ⁶².

Xufiyona iqtisodiyotga bo`lgan kompleks yondashuv uni quyidagicha ta`riflash imkonini beradi. Xufiyona iqtisodiyot bozor xo`jaligining obyektiv va doimo mavjud bo`luvchi tizimi bo`lib, uning doirasida xo`jalik yurituvchi subyektlar nohalol raqobat usullari orqali iqtisodiy manfaat olishga harakat qiladilar, ya`ni, o`z tashabbuslari yoki tashqi shart-sharoitlar ta`sirida qonunga, ish yuritish etikasiga, biznes bilan hokimiyat o`rtasidagi o`yin qoidalariga, jamiyatning ma`naviy-axloqiy me`yorlariga zid bo`lgan xatti-harakatlarni amalga oshiradilar⁶³.

Bundan kelib chiqadiki, xufiyona va norasmiy faoliyat olib borishdan oxir-oqibat tadbirkor o`ziga ham, davlatga ham zarar keltiradi. Birinchidan, «xufiyona iqtisodiyotda» faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar (firma) bozorni qo`llab- quvvatlovchi institutlardan foydalana olmaydi. Ikkinchidan, korxonalar o`z faoliyatini fosh bo`lib qolish va jazo olishning doimiy xavfi ostida olib boradi va bu uning xo`jalik

⁶¹Ortiqov A.A., Isaxodjaev A.T., Shestakov A.V. Xufiyona iqtisodiyot. –T., JJB Akademiyasi 2002. 25-b.

⁶² Вводный курс по экономической теории. – М.: ИНФРА-М, 1997, 233-234-с.

⁶³ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. -М ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.50.

faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. O'z resurslarini yashirib korxonalar ulardan samarali foydalana olmaydi. Uchinchidan, norasmiy tarzda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ishlab chiqarishga katta kapital sarflay olmaydi, ya'ni fosh bo'lib qolishdan cho'chib faoliyatni kengaytira olmaydi. Va nihoyat, to'rtinchidan, davlat olishi mumkin bo'lgan soliq tushumlarini ololmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining korrupsiya va jinoyatchilik muammolariga bag'ishlangan qismida «O'tish davrida yangi iqtisodiy mexanizmlar shakllantirilayotgan bir paytda axolining asosiy ko'pchiligi bozor sharoitida yashashni endigina o'rganayotganligidan va uning obyektiv qonunlarini payqay boshlaganligidan foydalanib, amalga oshirilayotgan iqtisodiy jinoyatlar toifasi»⁶⁴ mamlakat iqtisodiyotga katta tahdid solishi mumkinligi ta'kidlab o'tilgan. Unda «xufiyona» deb atalayotgan iqtisodiyot voqelik sifatida qanday sharoitda vujudga kelganligiga ham to'xtalib o'tilgan. Asarda yozilishicha, bunday iqtisodiyot «ishlab chiqarish sohasidagi qonunlarni qo'pol ravishda buzib, o'ziga xon, o'ziga bek bo'lib olgan edi. Chunki unga eng yaqin raqobatchi bo'lgan davlatning iqtisodiy tuzilmalari qotib qolgan ko'rsatmalar va ta'qiqlar bilan cheklab qo'yilgan edi. Sovet davrida bu hodisa haddan tashqari kuchaydi, xunuk xolga keldi va O'zbekistonga meros bo'lib qoldi»⁶⁵.

«Xufiyona» iqtisodiyotning sobiq Ittifoqda shakllanish shart-sharoitlarini kuzatish shuni ko'rsatdiki, u 80-yillarning o'rtalariga kelib, keng ko'lam yozdi (yashirin xizmat sohasi, tovarlarni davlat chakana tarmog'ini chetlab sotib olish, davlat moddiy texnik ta'minoti tizimini chetlab, korxonalarni ta'minlash) xufiyona sektor ishlab chiqarishda ham shakllana boshladi.

Xuddi shunga o'xshash xufiyona iqtisodiyot Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham mavjud edi. Lekin ularda ochiq mayda tadbirkorlik (cheklangan darajada bo'lsa ham) kanallari mavjudligi tufayli, «xufiyona» iqtisodiyotning ko'lami juda ham katta emas edi.

Sobiq Ittifoqda kooperatsiya to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va nodavlat tadbirkorlikining shakllanishi uchun huquqiy asosning yaratilishi tadbirkorlikni ochiq-oydin olib borish uchun sharoit yaratdi. Biroq bu jarayon Sharqiy Yevropadagiga nisbatan boshqacharoq kechdi. Asosiy farq shundan iborat ediki, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida davlat va nodavlat sektorlari orasida ozmi-ko'pmi aniq chegaralar bo'lgan bo'lsa, sobiq Ittifoqda esa bu chegaralar «yuvilib» ketgan edi va bu davlat korxonalari uchun o'z mablag'lari bilan kooperativlar va boshqa nodavlat korxonalari (kichik korxonalar, tijorat banklari, birjalar)ni tashkil etish imkonini berdi. Shu sababli, davlat korxonalarining mulki va pul mablag'lari nodavlat korxonalar kapitaliga aylandi va bu korxonalar davlat rejali xo'jalik tizimida foydalanish uchun mo'ljallangan resurslardan katta-katta daromadlar oldilar. Biroq bu yo'lda davlat sektoridan nodavlat sektoriga resurslarni erkin oqib o'tishiga ma'lum tashkiliy-huquqiy to'siqlar bo'lganligini ham ta'kidlab o'tish haqiqatga yaqinroq bo'lar edi. Ushbu to'siqlar mavjud bo'lganligi sababli, ularni chetlab o'tish

⁶⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997, 16-b.

⁶⁵ Shu manba, 87-b.

yo`llarini izlab topish zarur va korrupsiya bunday uslub bo`lib xizmat qildi. Bunday ishlar kooperativ va davlat korxonalarining ishlab chiqarish – savdo faoliyatlarida davlat korxonalarining xomashyo va materiallari, moliyaviy resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishdan iborat bo`lmadi. Davlat mulki nafaqat kichik kooperativ va kichik korxonalarining, balki katta-katta birja va banklarning ustav kapitallarini shakllantirish uchun foydalanila boshlandi. Davlat kapitalini dabdurustdan, tartibsiz xususiyashtirish boshlandi. Shu bilan birga, tijoratning kriminallasuvi tez sur`atlar bilan rivojlana boshladi⁶⁶.

Respublika Prezidenti I. Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sg`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ta`kidlanganidek, “xufiyona iqtisodiyot”ning mavjud bo`lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat hokimiyati tuzilmalarining turli bo`g`inlari va turli darajalari vakillari ham uning yo`ldan ozdiruvchi ta`siriga tushib qoladi”⁶⁷.

Aksariyat hollarda insonga kam kuch sarflab, ko`proq manfaat olishga intilish xosdir. Yu.N. Popov, M.E Tarasovlarning fikricha, bunday ratsionalizm ichki to`siqlarning yetarli emasligi va ba`zida ularning umuman yo`qligi sharoitida insonni xufiyona faoliyat olib borishga undaydi. Inson tabiatini o`zgartirib bo`lmaydi, lekin insonning xulq-atvorini u yashayotgan muhit, tarbiyasi, madaniyati va ma`naviyati belgilaydi. Inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi ziddiyat mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimiga, ya`ni tarixiy an`analar, qonunchilik, jamiyatning ma`naviy-axloqiy me`yorlariga bog`liq ravishda hal etiladi. Umuman, xufiyona faoliyat insonning xo`jalik faoliyati davomida u yoki bu darajada doimo mavjud bo`ladi.

Xufiyona faoliyatning kelib chiqishiga sabab bo`ladigan omillar orasida bozor xo`jaligiga xos bo`lgan iqtisodiy omillar alohida o`rin tutadi.

Institutsionalizm tarafdorlarining qarashlaricha, xo`jalik sub`yektlarining faoliyatlari qonun doirasida olib borilgan taqdirda transaksion xarajatlarining yuqoriligi yashirin iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga undaydi. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:


- qonun doirasida faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar (yuridik shaxs sifatida ro`yxatdan o`tish, litsenziya olish, yuridik adres olish va boshqa rasmiyatchiliklarni amalga oshirish uchun qilinadigan sarf-xarajatlar);

- qonun doirasida faoliyatni davom ettirish (soliqlar to`lash, mehnat munosabatlari sohasida qonuniy talablarni bajarish, zarur bo`lganda nizolarni sud orqali hal etish uchun sarflanadigan xarajatlar).

Umumiy qabul qilingan transaksiya xarajatlari nuqtai nazaridan xufiyona iqtisodiyotning faoliyat ko`rsatishi huquqiy bazaning takomillashmaganligi, davlat tomonidan o`ziga xos funksiyalarning samarasiz bajarilishi, xo`jalik faoliyatida ikki xil standartlarning keng tarqalishi kabi tovlamachiliklarning o`sishi bilan bog`liq katta miqdordagi transaksiya xarajatlari bilan kuzatiladi.

⁶⁶ Колганов М. //Особенности предпринимательства в переходной экономике. Вопросы экономики №1, 1999, 77-78-б.

⁶⁷ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sg`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O`zbekiston, 1997, 87-b



9- chizma. Xufiyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablarining guruhlanishi

Transaksiya xarajatlari o`rta va yuqori bahosining sababi xufiyona sektori iqtisodiyoti emas, balki rasmiy iqtisodiyotda yuqori transaksiya xarajatlarning mavjudligi xufiyona sektor faoliyat ko`rsatishining sabablaridan biri hisoblanadi.

Shuni ham ta`kidlash kerakki, qonunlarga itoat etish “bahosi” to`g`ridan-to`g`ri pul xarajatlarinigina emas, balki u yoki bu protseduralarni amalga oshirish uchun ketadigan vaqtni ham o`z ichiga oladi. Aynan shu holat ko`p hollarda xufiyona faoliyat yuritish uchun asosiy sabab bo`ladi. Bu yerda muqobil qarorni izlash natijasida iqtisodiyot sub`yektlari davlat ishtirokisiz, ya`ni xufiyona faoliyat olib borish yo`lini tanlaydilar.

Demak, olimlarning fikricha, qonunga itoat etishning yuqori bahosi bilan xufiyona iqtisodiyot o`rtasida to`g`ridan-to`g`ri bog`liqlik mavjud. Lekin yashirin tarzda faoliyat olib borish ham katta sarf-xarajatlar bilan bog`liq. Xufiyona faoliyat olib boradigan xo`jalik sub`yektlari xarajatlarning ba`zi turlarini tejagan hollarida, boshqa, ba`zi holatlarda ko`proq xarajatlarni qilishga majbur bo`ladilar. Jumladan:

- huquqiy sanksiyalardan bosh tortish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar (soliq va boshqa moliyaviy sohalarida maslahatchilar xizmatiga haq to`lash, reklama qilish imkoniyatlari chegaralanganligi natijasida yo`qotilgan foyda, “ikki xil” buxgalteriya hisobini yuritish bilan bog`liq xarajatlar);

- soliq va ish haqiga qo`shimchalar to`lashdan qochish. Daromad solig`i, ijtimoiy sug`urta va pensiya fondlariga majburiy to`lovlardan qochish korxonaga ish haqiga sarflanadigan mablag`larni tejab qolish imkonini beradi, lekin mehnatni kapital bilan qoplash, texnik jihatdan qayta qurish, mehnat unumdorligini oshirishga bo`lgan rag`batni pasaytiradi.

- qonun tomonidan mustahkamlangan mulk huquqining yo`qligi bilan bog`liq xarajatlar. Odatda mulkka egalik qilish huquqi an`anaviy ijtimoiy kelishuv asosida belgilanadi va mustahkamlanadi. Xufiyona faoliyatda esa kelishuvlar, odatda, og`zaki tuziladi. Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, davlat iqtisodiyotning ochiq sektorida transaksion xarajatlarni pasaytirish orqali xo`jalik yurituvchi subyektlar manfaatlarini amalga oshirgan taqdirda, ularda qonunga bo`ysunishga rag`bat uyg`onadi.

Iqtisodchilar xufiyona iqtisodiyot kelib chiqishining iqtisodiy sabablarini bozor xo`jaligi doirasida raqobat muammosi bilan bog`lash mumkin, degan fikrni bildiradilar. Ular xufiyona iqtisodiyotni nomukammal raqobatning bir shakli sifatida ko`rish kerak, deb hisoblaydilar. Mukammal bozor munosabatlari shakllanib va rivojlanib borgani sari sog`lom raqobat xufiyona iqtisodiyotni siqib chiqaradi. Buning isbotini rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko`rish mumkin. Ularda xufiyona iqtisodiyotning ulushi rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan mamlakatlardagiga qaraganda ancha past.

Davlat iqtisodiyotni samarali boshqara olmas ekan, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun yetarli sharoitlar yaratmas ekan, xufiyona iqtisodiyot xunuk ko`rinishlarga ega bo`lib, miqyoslari kengayib boraveradi. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslari, ayniqsa, inqirozlar davrida, yuqori inflyatsiya va valuta kurslarining keskin o`zgarib turishi, bozor xo`jaligida muvozanat buzilgan sharoitda shiddat bilan kengayib boradi.

Xufiyona iqtisodiyot kelib chiqish sabablarining keyingi guruhiga ijtimoiy omillar kiradi. Hozirgi kundagi jamiyatda bir qator ijtimoiy muammolar mavjud bo`lib, ulardan biri jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishidir. Bu bozor iqtisodiyotiga xos bo`lgan jarayon bo`lib, muammoni hal etishga bo`lgan urinishlar aksariyat jamiyatlarda muvaffaqiyatsiz bo`lmoqda. Jamiyatning tarkibiy tuzilishi xufiyona iqtisodiyot ishtirokchilarining potensial sonini belgilaydi. Chunki, axolining kam ta`minlangan va boshqa guruhlari xufiyona sektor doirasiga ko`proq tortiladi.

Xufiyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining yana bir guruhiga huquqiy omillar kiradi. Bu tadbirkorlikning huquqiy bazasini takomillashmaganligi bilan bog`liqdir. Mutaxassislarning ta`kidlashicha, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham tadbirkorlikning huquqiy bazasini rivojlanishi iqtisodiy jarayonlardan orqada qoladi. Bozor xo`jaligidagi o`zgarishlar bilan mavjud huquqiy baza o`rtasidagi ziddiyatlar xufiyona iqtisodiyot subyektlari uchun huquqiy sohadagi kamchiliklardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Uy xo`jaliklari muhim sektor sifatida huquqiy me`yorlar bilan emas, asosan amaliyotda shakllangan urf-odat va an`analar bilan tartibga solinadi. Davlat ushbu sektorda amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilishi imkoniyatiga ega bo`la olmaydi.

Qonunlar ham xufiyona faoliyat turlariga nisbatan turlicha bo`lishi mumkin. Ba`zi holatlarda yirik korporatsiyalar o`zlarining moliyaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda qonun chiqaruvchilarga tazyiq o`tkazishlari va ma`lum ijtimoiy guruhlar manfaatlariga mos keladigan qonunlarni qabul qilinishiga harakat qilishlari mumkin.

Xufiyona iqtisodiyot kelib chiqish sabablarining boshqa bir guruhiga ma`naviy omillar kiradi. “Теневая экономика в системе рыночного хозяйства”, deb nomlangan darslik mualliflarining fikricha, ushbu omillar tadbirkorlik faoliyatining ma`naviy asoslari zaifligi bilan belgilanadi. Ularning ta`kidlashlaricha, qonunlar ma`lum davrning ma`naviy-axloqiy qadriyatlarini o`zida aks ettiradi. Lekin aynan qonunlar orqali amalga oshiriladigan davlat manfaatlari ko`p hollarda jamiyatning ko`pchiligi manfaatlariga mos kelavermaydi, ayrim holatlarda esa ularga zid bo`lishi mumkin.

Tadbirkorlikning ma'naviy asosi keng bo'lib, ko'p hollarda xo'jalik huquqidan ham muhimroqdir. Yuqorida nomi keltirilgan darslik mualliflari misol tariqasida Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniyaning natsistlar rejimi bilan xufiyona operatsiyalar o'tkazgan shveytsar banklari faoliyatini keltiradilar. Rasmiy tomondan olib qaraganda bunday faoliyat qonunga zid bo'lmagan, lekin jahon hamjamiyati oldida bu banklar oddiy ma'naviy-axloqiy tamoyillarni oyoqosti qilganlar. Mana shunday bahoni Germaniyaning yirik korporatsiyalari faoliyatiga ham berish mumkin. Ular ham Ikkinchi jahon urushi davrida natsistlar tomonidan bosib olingan hududlardagi minglab kishilarning mehnatidan foydalanganlar. Ayni paytda, deb yozadilar darslik mualliflari, hozirga kelib mana shu korporatsiyalar, bir paytda jamiyatning ma'naviy-axloqiy tamoyillarni buzganliklarini tan olgan holda, kishilarga kompensatsiya to'lamoqdalar⁶⁸.

Darslik mualliflari ushbu guruh sabablari doirasida fuqarolik jamiyati institutlarining roliga alohida to'xtalib o'tganlar. Bozor xo'jaligi tizimining murakkablashuvi natijasida davlatning bir o'zi xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurasha olmaydi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan iqtisodiy jinoyatlarni tekshirish va fosh etish davlatga xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashda katta yordam bo'lishi mumkin.

Aynan fuqarolik jamiyati institutlari davlat hokimiyatini ochiq va shaffof faoliyat olib borishga undaydilar. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ochiqligi korrupsiya hamda hukumat organlari bilan biznes o'rtasidagi xufiyona operatsiyalarni oldini olishning muhim kafolati hisoblanadi.

Va nihoyat, xufiyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining oxirgi guruhiga siyosiy omillar kiritiladi. Ushbu omillar siyosiy tizimdagi ziddiyatlar oqibatida yuzaga keladi. Bunda eng muhim, prinsipial masalalardan biri hokimiyat bilan yirik kapital o'rtasidagi munosabatlar masalasidir. Ma'lumki, ularning birlashishi har narsaga qodir bo'lgan oligarxiyani shakllantiradi. Bu xufiyona iqtisodiyotga sifat jihatdan yangi belgilar beradi⁶⁹.

Iqtisodiyot rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari bilan olib borilayotgan davlat siyosati o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ham xufiyona iqtisodiyotning shakllanish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'tgan asrning 20-yillarida AQShda spirtli ichimliklarni iste'mol qilish qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilganligi natijasida xufiyona alkogol biznesi rivojlanib ketgan. 80-yillarda shunday holat SSSRda ham takrorlangan. 1960-yillarda Hindistonda hukumat qarori bilan past probali tilla bilaguzuklar ishlab chiqarish taqiqlanganligi bois, qisqa vaqt ichida xufiyona iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60 foizga yetgan. Hindiston hukumati o'ylamasdan qabul qilingan qarorni bekor qilganidan so'ng iqtisodiyot normal holatiga qayta boshlagan⁷⁰.

⁶⁸ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. –М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.24.

⁶⁹ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. –М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.24.


⁷⁰ Shu manba 26 –b.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, ta'kidlash kerakki, xufiyona iqtisodiyot tovar-pul munosabatlari paydo bo'lgan davrdan boshlab shakllanib va rivojlanib, ochiq iqtisodiyot bilan parallel faoliyat ko'rsatib kelgan. Ayni paytda uning miqyoslari turlicha bo'lgan. Shundan kelib chiqib uni o'rganishga bo'lgan yondashuvlar ham xilma-xil bo'lgan.

Tadqiqotchilarning katta bir qismi xufiyona faoliyat va xufiyona iqtisodiyotni o'rganishga huquqiy jihatdan yondashadilar (10-chizma). Ushbu yondashuv tarafdorlari xufiyona iqtisodiyotni turlarga ajratishda qonunning buzilishini asosiy mezon qilib oladilar. Xufiyona iqtisodiyotni ikkiga ajratadilar: kriminal («qora») va nokriminal («kulrang»). Bunda biror-bir faoliyatni davlatdan yashirish faktini ikki turdagi motiv bilan bog'liq, deb hisoblaydilar. Birinchisi, xo'jalik subyektlarining o'z xarajatlarini kamaytirish (birinchi navbatda soliq to'lashdan bosh tortish hisobiga) bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi faoliyatning noqonuniy ekanligi bois uni to'xtatib qo'yilishidan hadiksirash bilan bog'liq.

Shunday qilib nokriminal («kulrang») iqtisodiyotda daromadlar (yoki xarajatlar) yashiriladi, kriminal («qora») iqtisodiyotda faoliyatning o'zi yashiriladi. O'z navbatida kriminal iqtisodiyot doirasida ikkita tarkibiy qism ajratiladi: noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyati va iqtisodiy jinoyatchilik.

Noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyatiga biznes ko'rinishida tashkil etilgan, qonun yo'li bilan taqiqlangan faoliyat turlarini kiritish mumkin. Noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyatiga quyidagilarni kiritish mumkin: qurol ishlab chiqarish va sotish; narkobiznes; qimor o'yinlari; kontrabanda; fohishabozlik va b.



10-chizma. Xufiyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo'lgan huquqiy yondashuv⁷¹


Iqtisodiy jinoyatlar iqtisodiy sohadagi jinoyatlar bo'lib, ular ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo'lmagan va g'arazli maqsadlarni ko'zlab qilingan iqtisodiy jinoyatlardir (ular yaratilgan qiymatni qayta taqsimlash sohasida amalga oshadi):

G'arazli maqsadlarda xizmat mansabini suiste'mol qilish (poraxo'rlik); firibgarlik; o'g'rilik; ta'magirlik (reket) va b.

Yu.N. Popov va M.E. Tarasovlarning yozishicha, kriminal iqtisodiyotning ushbu turi iqtisodiyotga bevosita tegishli bo'lmay, jinoyatchilikning bir turi

⁷¹ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства.-М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.28.

hisoblanadi. Lekin shu bilan birga iqtisodiy jinoyatchilik katta iqtisodiy zarar keltiradi va aynan shuning uchun ham kriminal iqtisodiyotning bir qismi sifatida qaraladi.



11- chizma. Xufiyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo`lgan statistik yondashuv⁷²

Bundan tashqari, xufiyona iqtisodiyot sohasi o`zining yuqori daromadlilik va subyektlarining huquqni himoya qilish idozalariga murojaat qila olmasliklari bois, iqtisodiy jinoyatchilik uchun yaxshi muhit bo`lib hisoblanadi. Xufiyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo`lgan statistik yondashuv xufiyona iqtisodiyotni rasmiy statistikadan yashirilgan faoliyat sifatida tavsiflaydi (11-chizma). Rasmiy iqtisodiyot – bu davlat tomonidan kuzatiladigan va nazorat qilinishi mumkin bo`lgan iqtisodiyot bo`lsa, yashirin yoki norasmiy iqtisodiyot – rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettirilmaydigan xo`jalik munosabatlari yig`indisi hisoblanadi.

Real xo`jalik faoliyati to`g`risidagi ma`lumotlar davlat idoralaridan ongli ravishda, ataylab yashirilishi yoki milliy statistika tizimida qamrab olinmasligi mumkin. Bundan tashqari soxta iqtisodiyot ham mavjud bo`lib, unda faoliyat faqat qog`ozda amalga oshiriladi.

Statistik hisob-kitoblardan tadbirkorlik faoliyatining turli elementlari to`g`risidagi ma`lumotlar yashirilishi yoki ongli ravishda ma`lumotlarni buzib ko`rsatilishi mumkin:

- korxonani yashirish (ro`yxatdan o`tkazmasdan yoki litsenziya olmasdan xo`jalik faoliyatini amalga oshirish);

- xo`jalik operatsiyalarini yashirish (ularni shartnoma va hisobotlarda aks ettirmaslik);


- ishchi kuchini yashirin ravishda yollash (ishchi kuchini mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmasdan yollash); mehnat sharoitlari to`g`risidagi ma`lumot (ish haqi, pensiya va sug`urta to`lovlari, texnika xavfsizligi, ish vaqti va b.) larni buzib ko`rsatish;

- daromadlarni yashirish (soliq to`lashdan qochish).

⁷² Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. -М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с. 28.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlar muhim ekanligini tan olgan holda, “Теневая экономика в системе рыночного хозяйства” darsligining mualliflari xufiyona iqtisodiyotni turlarga ajratishda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvdan foydalanish zarur, degan fikrni bildiradilar.

Mana shunday yondashuv zarurligini asoslagan holda, darslik mualliflari rasmiy-huquqiy yondashuv xufiyona iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib bera olmaydi va bu, o`z navbatida, davlat va jamiyatning unga ta`sir ko`rsatishda qo`llaniladigan vositalari chegaralanishiga olib keladi, degan fikrni bildiradilar⁷³.



12-chizma. Xufiyona iqtisodiyotning iqtisodiy faoliyat sohalari bo`yicha tasniflanishi

Ularning fikricha, bunday yondashuv, yuqorida keltirilgan yondashuvlarga xos bo`lgan belgilarga ega bo`lish bilan birga, ulardan muhim xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Ushbu yondashuv huquqiy; statistik; iqtisodiy; ijtimoiy; ma`naviy mezonlar guruhini o`z ichiga oladi.

Xufiyona iqtisodiyotni tasniflash uchun yana bir nechta aniq mezonlar taklif etadilar. Xufiyona iqtisodiyotning subyektlari bo`yicha, faoliyatning maqsad va motivlari bo`yicha, oqibatlari va zarar miqyoslari bo`yicha, davlatning javobgarlik darajasi bo`yicha, axolining munosabati bo`yicha mezonlar orqali tasniflashni taklif etadilar.

Mutaxassislarning ta`kidlashlaricha, tadbirkorlikning tarkibidan, mulk shakllaridan, keltiradigan zarar miqyoslaridan kelib chiqqan holda xufiyona

⁷³ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. -М., ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.33.

iqtisodiyotni tasniflash ham ahamiyatga ega. Ularning fikricha, xufiyona iqtisodiyot agentlari (qatnashchilari) orasida eng ko'p sonligi kichik biznes bo'lsa, ijtimoiy va iqtisodiy zarar keltirishi bo'yicha shubhasiz yirik kapital (oligarxlar) birinchi o'ringa chiqadi.

Demak, xufiyona faoliyatning oldini olish va uni ochiq faoliyatga aylantirish mamlakat iqtisodiyotining xavfsizligini ta'minlaydi, barqaror iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi.

Qisqacha xulosalar

Jahon xo'jaligi rivojlanishining hozirgi bosqichida xufiyona iqtisodiyot global muammoga aylanib bormoqda. Xufiyona iqtisodiyot bozor xo'jaligining obyektiv va doimo mavjud bo'luvchi tizimi hisoblanadi. Bunday tizim doirasida faoliyat olib boruvchi xo'jalik subyektlari raqobatning umumqabul qilingan qoidalaridan tashqarida o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda qonunga, ish yuritish etikasiga, biznes va hokimiyat o'rtasidagi o'yin qoidalariga, jamiyatning ma'naviy-axloqiy me'yorlariga zid bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshiradilar.

Xufiyona iqtisodiyot turli, jumladan, antropologik, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ma'naviy siyosiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslarini baholashga bo'lgan turli yondashuvlar mavjud.

Xufiyona iqtisodiyot rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo'lgan mamlakatlar uchun xarakterli bo'lib, o'zining miqyoslari jihatdan farq qiladi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot yo'lida to'siq rolini o'ynaydigan samarali institutsional mexanizm shakllangan. Bunda davlat markaziy bo'g'indir. Dunyo tajribasidan ma'lumki, qaysi mamlakatda axoli jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar yuqori bo'lsa, shu mamlakatda xufiyona iqtisodiyot miqyoslari kam bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Nima uchun xufiyona iqtisodiyot global muammoga aylandi?
2. Qaysi mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot miqyoslari katta bo'ladi?
3. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslarining kengayishiga nimalar sabab bo'ladi?
4. O'zbekistonda xufiyona iqtisodiyot miqyoslari qanday?
5. Xufiyona iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
6. Xufiyona iqtisodiyotning qanday shakllari mavjud?
7. Xufiyona iqtisodiyotning shakllanishiga qanday sabablar ta'sir ko'rsatadi?
8. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslarini baholashga bo'lgan yondashuvlar to'g'risida gapirib bering.
9. Xufiyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo'lgan yondashuvlar.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
2. Ortiqov A., Isaxodjaev A., Shestakov A. Xufiyona iqtisodiyot. -T., 2002.
3. Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. -М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.33.
4. Ечмаков С.М. Теневая экономика. Анализ и моделирование. - М.: Финансы и статистика, 2004.

VIII bob. IQTISODIYOTNING KRIMINALLASHUVI SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASH ZARURATI VA UNDA DAVLATNING ROLI

8.1. Korrupsiya va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta`siri

“Korrupsiya” lotincha (corruptio) so`zi bo`lib, buzilish degan ma`noni anglatadi. Korrupsiya faqat bir ko`rinishda namoyon bo`ladigan hodisa bo`lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. O`z tabiatiga ko`ra turlicha bo`lgan yuzaga kelish va qayta tiklanish mexanizmlari bilan tavsiflanadi.

Korrupsiya hodisasini tadqiq qilgan barcha tadqiqotchi hamda siyosatchilar uning axloqsizlik ekanligi va har qanday mamlakatning iqtisodiy va demokratik taraqqiyotiga ziyon yetkazishini tan oladilar. Lekin, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda ushbu hodisa jamiyat va iqtisodiyot institutlari tizimidan tashqaridagi “ma`naviy jinoyat” sifatida o`rganiladi. Uning tabiati, funksiyalari, jamiyat va iqtisodiyotga yetkazadigan zararlari to`g`risidagi tasavvurlar va fikrlar cheklanib qolmoqda, degan fikrlar ham mavjud.

“Теневая экономика в системе рыночного хозяйства”, deb nomlangan darslikning korrupsiya masalasiga bag`ishlangan qismida mualliflar N. Makiavellining korrupsiyaga bergan ta`rifini keltiradilar, ya`ni, korrupsiya “ommiyotiy imkoniyatlardan shaxsiy manfaatlar yo`lida foydalanish”ni anglatadi⁷⁴. Hozirgi davr xalqaro me`yoriy hujjatlarida korrupsiyaning turlicha talqinlari keltirilgan. BMTning korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash to`g`risidagi hujjatlarida, korrupsiyaga shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiiste`mol qilish, deb ta`rif beriladi.

Korrupsiya tushunchasi poraxo`rlik tushunchasidan kengroq ma`noni anglatadi. Ushbu tushuncha poraxo`rlikni (biror-bir shaxsning kasbi taqozo qiladigan majburiyatidan chekinganligi uchun mukofot berish) va nepotizm (shaxsiy munosabatlar asosida homiylik qilish) hamda shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish maqsadida jamoat mablag`larini noqonuniy o`zlashtirishni anglatadi.

Shulardan kelib chiqib, yuqorida nomi keltirilgan darslik mualliflari korrupsiyaga quyidagicha ta`rif beradilar: o`zi yoki shaxsiy munosabatlar yo`lga qo`yilgan boshqa shaxslar uchun qandaydir ustunliklarga ega bo`lish maqsadida tomonlarning mustaqillik tamoyillariga atayin rioya qilmaslik. Bunday ta`rif korrupsiya xufiyona iqtisodiyotning bir ko`rinishi sifatida namoyon bo`ladi, degan fikrni tasdiqlaydi.

“Korrupsiya va xavfsizlik”, deb nomlangan risola⁷⁵ mualliflarining fikrlaricha, korrupsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufiyona iqtisodiyotning ko`rinishidir. Shuning uchun korrupsiyani iqtisodiy hodisa sifatida talqin etishda deyarli bahs-munozaralar yo`q. Uning davlat amaldorlarining poraxo`rlik faoliyatidan iboratligi va jamiyatga katta zarar yetkazishini ko`pchilik tadqiqotchilar e`tirof etadilar.

⁷⁴ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. –М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.76.


⁷⁵ Qobilov Sh.R., Abdullaev N.B. Korrupsiya va xavfsizlik. -T.: O`zbekiston, 2006. 6-b.

Mualliflar poraxo`rlikni uch subyektli munosabatlar, deb aytadilar va ularga pora oluvchilar, pora beruvchilar va ular o`rtasidagi vositachilar kiradi, degan fikrni bildiradilar. Pora oluvchilar davlat amaldorlari bo`lsa, uni beruvchilar amaldorlar marhamatiga muhtojlardir. Vositachilik vazifasini esa ayrim shaxslar va yashirin tashkilotlar amalga oshiradilar.

Korrupsiyaning iqtisodiy mohiyati va huquqiy baholanishida farqlar mavjud bo`lib, iqtisodiy jihatdan, bu erkin bozor qonun-qoidalariga mos kelmaganidan yashirincha yuz beradi. Bu munosabatda barcha korrupsiyalashgan guruhning manfaati uyg`unlashadi. Amaldor xizmatiga talab bo`lganidan, u sotadi. Bu yerda pora yashirin xizmat haqi shakliga kiradi. Poraxo`rlikda ham bozor munosabati bor, lekin bu tor egoistik manfaatga bo`ysunuvchi munosabat bo`lganligi sababli uni jamiyat tan olmaydi, chunki bu yerda ayrim shaxslar yohud guruhlar manfaatining amalga oshishi boshqalar manfaati hisobidan bo`ladi. Shuning uchun buni jamiyat qabul qilmaydi va natijada u yashirin tus oladi.

Yuridik qonunlarda aks etgan qoidalarnigina jamiyat qabul qiladi. Shuni nazarda tutib, korrupsiyani huquqiy jihatdan g`ayriqonuniy, qonunlar man etadigan iqtisodiy faoliyat deb aytish mumkin⁷⁶. Korrupsiya – global hodisa, undan zarar ko`rmagan mamlakat yo`q, lekin bu mamlakatlarda korrupsiyalashuv darajasi turlicha bo`lib, bunday holat uning ildizlari chuqurligidan dalolat beradi.

O`rganilayotgan muammoga bag`ishlangan adabiyotlarda korrupsiyaning sabablari turlicha talqin etiladi.



13 - chizma. Korrupsiyaning sabablari

Korrupsiya obyektiv va subyektiv bo`lishiga e`tibor berilib, ular orasida qonunchilikning nomukammalligi, demokratik tamoyillar va institutlarning rivojlanmaganligi, davlatning kuchsizligi ajratiladi. Mutaxassislar fikricha, korrupsiyaning mavjudligini iqtisodiy tizimning o`zidan qidirish kerak. Korrupsiya iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo`lar ekan, demak uning iqtisodiy ildizlarini topish kerak bo`ladi. Bu ildizlar pul munosabatlarining o`zidir. Pul universal to`lov vositasi, uni hamma operatsiyalar uchun qabul qilinadi, pul-boylkning timsoli, boylk to`plashning eng qulay shakli. Pulni saqlash xavfsiz, uni xohlagancha jang`arish mumkin. Pul likvidligi eng yuqori bo`lgan aktivdir. Likvidlikni esa pulning qadr-qimmati ta`minlaydi. U ko`zga ko`rinmas moliyaviy aloqalar o`rnatish imkonini beradi. Pulning likvidligi muhim bo`lganidan, pora berishda qattiq valutarlar ishlatiladi, chunki ularning qadri barqaror bo`lgani uchun jang`arish

⁷⁶Qobilov Sh.R., Abdullaev N.B. Korrupsiya va tavsifsizlik.-T.: O`zbekiston, 2006. 6-b.

vositasi bo`la oladi. Pul - bozor munosabatlarining mahsuli, shu sababli pul munosabatlarining rivojlanishi korrupsiyani oziqlantiradi.

Natural ishlab chiqarish sharoitida poraxo`rlik moddiy shaklda bo`lishi mumkin, uni ko`zdan yashirib bo`lmaydi. Pul munosabatlari esa yashirin munosabat o`rnatish imkonini beradi. Shunday qilib, korrupsiyaning obyektiv sababi pulning yuksak likvidlik xususiyatidir. Bunday xususiyat pul fetishizmini, ya`ni uni ilohiylashtirishni, unga sig`inishni yuzaga keltiradi, pul hamma narsani hal qiluvchi kuchga ega, degan tasavvurni paydo qiladi. Bu esa ochko`zlikni keltirib chiqaradi, uni g`ayriqonuniy yo`l bilan topa olish imkoniyati bor kishilarni korrupsiyalashgan kishilarga aylantiradi.

Bozor tizimining mukammal emasligi, uning mexanizmlarida uzilishlar bo`lib turishi korrupsiyaning keng yoyilishi uchun qulay sharoit hozirlaydi. Demak, bozor munosabatlarining takomillashtirilishi korrupsiyaga qarshi kurashning eng ma`qul yo`li hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda korrupsiyalashish darajasining boshqa guruh mamlakatlaridagiga nisbatan ancha pastligi mana shu tezisning to`g`riligidan dalolat beradi.

Korrupsiyaning obyektiv sabablaridan biri davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va shunga bog`liq holda biznesni rivojlantirish muammolarini hal qilish davlat amaldorlariga bog`liq bo`lishidir. Davlatning iqtisodiyotga ta`siri iqtisodiy, huquqiy va ma`muriy usullar orqali yuz beradi. Bu usullarning qo`llanilishi amaldorlar faoliyatiga bog`liq.

Davlatning ruxsat berish funksiyasi haddan tashqari keng doirada saqlanib qolishi ham korrupsiyaning ildizlaridan biridir. Davlat qo`lidagi subsidiyalar, soliqlar, imtiyozli litsenziyalar, kvotalar, preferensiyalar va buyurtmalar kabi vositalar biznesni tartibga solib turishda qo`llaniladi. Ulardan kimning bahramand bo`lishi amaldorlarning munosabatiga bog`liq. Iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natijaga erishish uchun tadbirkorlar pora berish yo`li bilan amaldorlarni sotib olish va shu orqali imtiyozlarga ega bo`lishga intiladilar. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarur ekanligi va ayni vaqtda korrupsiyani yuzaga keltirishi iqtisodiyotdagi ziddiyatli holatdir.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlashda ko`pchilik tadqiqotchilar davlat qonunlarining nomukammalligiga urg`u beradilar. Qonunlar odatda real hayotdagi o`zgarishlardan orqada qoladi, shu sababli ular tez-tez o`zgartirilib, to`ldirilib turiladi. Mukammal hisoblangan qonunlar vaqt o`tishi bilan nomukammal bo`lib qoladi, chunki real hayot ilgarilab ketadi. Nomukammal qonun real hayot talabidan ortda qolgan va kelajakni to`liq aks ettirmaydigan qonundir. Bunday qonunlar yaxshi ishlamaydi, natijada korrupsiyaga yo`l ochiladi.

Korrupsiyani lobbizm ham keltirib chiqaradi, biroq, har qanday lobbizm ham bunga olib kelmaydi. Ruxsat berilgan, jamiyat tan oladigan lobbizm borki, u ochiq bozor aloqalariga tayanadi. Bunda u yoki bu guruh shaxslar yohud firmalar manfaatiga mos keladigan, jamiyat uchun zararsiz bo`lgan qarorlarni davlat idoralari tomonidan qabul qilish zarurligini asoslash va bunga ko`maklashish bilan bog`liq lobbizm korrupsiyani keltirib chiqarmaydi. Ammo, shu bilan birga, xufiyona lobbistik xizmatlar borki, ular individual va korporativ manfaatlarni himoya qilgan

holda boshqalar manfaatiga zid ishlarning amalga oshirilishini bildiradi. Shunday bo'lganda g'ayriqonuniy lobbizm paydo bo'ladi.

Yuksak likvidli aktivlarning mavjudligi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, demokratiya darajasining pastligi korrupsiyaning obyektiv sabablari bo'lsa, axoli ma'naviyatining darajasi va axloq-odobi, demokratiya qoidalariga sodiqligidagi nuqsonlar korrupsiyaning subyektiv sabablariga kiradi. Subyektiv munosabat korrupsiyani kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin, biroq korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'qota olmaydi. Chunki uning ildizlari iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasiga borib taqaladi.

Korrupsiyaning salbiy hodisa sifatida xavfsizlikka tahdid solishi hech kimda shubha tug'dirmaydi, shu sababli davlat idoralari va jamoatchilik tashkilotlari unga qarshi kurashib keladi. Biroq dunyoning hech bir mamlakatida, hatto har tomonlama yuksak rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya tugatilmagan. Jamiyat korrupsiyani cheklab turishi, katta xavf tug'dirmaydigan darajaga keltirishi mumkin. Unga qarshi kurashish tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash uchun qaysi soha qay darajada korrupsiyalanganini bilish talab qilinadi.

Korrupsiya shunisi bilan xavfliki, u ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi, biznes yuritish xarajatlarini oshiradi, demak milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini pasaytiradi, muayyan darajada siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, o'tgan asrning 80-yillari boshida korrupsiya, iqtisodiyotni uquvsiz boshqarish bilan qo'shilib, Venesueladek neftga boy mamlakatning to'lovga qobiliyatsiz bo'lishiga olib keldi.

Korrupsiya va jinoyatchilikning xavfsizlikka soladigan tahdidlari, respublikamiz Prezidenti I. Karimovning ko'rsatishicha, quyidagilardan iborat:

- amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish;
- davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemirish;
- jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemirish;
- jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqarish, islohotlar g'oyasini obro'sizlantirish;
- pul orqali hokimiyatni qo'lga olishga intilish;
- nopok yo'llar bilan boylik orttirish. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo'rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar;
- jinoiy usullar bilan boylik orttirgan kimsalarni "demokratiya" uchun jafoda chekkan kurashchilar deb ko'rsatish. Bunday shaxslar avvaliga o'z xalqini aldab, kapital to'playdi, keyin demokratiya va adolatni ro'kach qilgan holda siyosiy obro' orttiradi. Sir emaski, bunday shaxslar o'z manfaatlarini yo'lida respublikadagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turadilar.

Jahon xo'jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o'zgarishlar jarayoniga tortishga qarshilik ko'rsatish. Bu holat chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg'otishi natijasida mamlakat g'oyat

muhim kapital mablag`lar manбайдan, texnologiyalar va tajribalardan, jahon iqtisodiy tizimining sog`lom, "sof" qismiga qo`shilish imkoniyatidan mahrum bo`ladi⁷⁷.

O`zbekistonda korrupsiyaning kuchayib ketishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish davlatning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda. Masalan, "2005-yilda iqtisodiyotimizni isloh qilishning eng muhim yo`nalishlari sifatida davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalar, moliya-xo`jalik subyektlari hamda tadbirkorlikning iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli darajada kengaytirish bo`yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Tekshiruvlar soni 2001-yildagiga nisbatan 2,5 baravardan ko`proq kamaydi. Ruxsat berish bilan bog`liq 12 ta protsedura (taomil) bekor qilindi. Hisobot ma`lumotlarini noqonuniy talab qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi"⁷⁸.

Shuni ham alohida ta`kidlash kerakki, respublikada qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturida 2009-yilning 1-yanvaridan sanoat sohasida faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxonalar uchun yagona soliq to`lov stavkasi 8 foizdan 7 foizga kamaytirildi, moliyaviy, maishiy va boshqa xizmatlarni ko`rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to`lovidan 3 yil muddatga ozod etildi. Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar, nodavlat xo`jalik yurituvchi subyektlarni oladigan dividendlarining investitsiyalarga, avval olingan kreditlar uchun hisob-kitob qilishga yo`naltiriladigan qismi 5 yil muddatga soliqdan ozod etildi.

Shuningdek, Inqirozga qarshi choralar dasturida 2009-yilda xo`jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishlar sonini kamida yana 30 foizga kamaytirish ko`zda tutildi.

Shu o`rinda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari" asaridan quyidagilarni keltirib o`tish kerak: "Ayni paytda joylarda vazifada o`tirgan amaldorlar xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash o`rniga, kichik bo`lsa-da, o`z ishi, o`z biznesini tashkil etishga intilayotgan odamlarga turli yo`llar bilan to`sqinlik qilayotganiga mutlaqo toqat qilib bo`lmaydi.

O`z biznesini tashkil etish yoki kengaytirishni istagan tadbirkorlar qurilishga ruxsat olish, kadastr orqali rasmiylashtirish uchun oylab yugurayotganiga, loyihalarni ishlab chiqish, hujjatlarni rasmiylashtirish, binolar ijarasi uchun asossiz ravishda katta miqdorda pul to`layotganiga qanday chidash mumkin. Bunday holatlarga prokuratura organlari qanday qarayapti". Shundan kelib chiqib Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda kichik biznesni yanada qo`llab-quvvatlash bo`yicha me`moriy-loyihalashtirish vazifalarini ishlab chiqish, loyiha hujjatlarining ekspertiza qiymatini kamaytirish, kichik biznes uchun ekologik ekspertizaning soddalashtirilgan tartibini joriy etish va uni amalga oshirish uchun tariflarni pasaytirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko`zda tutilgan qaror loyahasini taqdim etish topshirildi⁷⁹.

⁷⁷Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. -T., O`zbekiston 1998. 88-95-b.

⁷⁸ Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. //Xalq so`zi, 2006-y. 11-fevral.

⁷⁹Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - T.: O`zbekiston, 2009, 53-b.

Bundan tashqari kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, shuningdek, davlat mulki boʻlgan inshootlar uchun ijara haqi toʻlash boʻyicha tariflarni kamaytirish masalasini ham koʻrib chiqish zarurligi taʼkidlandi.

Korrupsiyaning global muammoga aylana boshlaganligi jahon hamjamiyatini unga qarshi kurashda hamkorlik qilishga undadi. 2003-yilning 31- dekabrda Avstriyaning Vena shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasi tomonidan BMTning korrupsiyaga qarshi Xalqaro konvensiyasi maʼqullandi. Shu yilning dekabr oyining boshlarida Meksikaning Merida shahrida jahonning 100 dan ortiq mamlakatlari ushbu konvensiyani imzoladilar. Ushbu hujjatning muqaddimasida aytilganidek, "korrupsiya endilikda cheklangan doiradagi (lokal) muammo emas, balki barcha mamlakatlar jamiyati va iqtisodiyotiga daxldor boʻlgan transmilliy muammoga aylandi. Bu esa korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikning nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi"⁸⁰.

Jahon banki va Xalqaro valuta fondining hujjatlarida korrupsiyaning ikkita turi koʻrsatib oʻtilgan: "maʼmuriy" va "davlatni egallab olish".

Korrupsionerlar guruhi "davlatni egallab olganda" milliy xavfsizlikka ichki tahdid kuchayadi, chunki bunda davlat siyosatini tor doiradagi xudbin manfaatlarga boʻysundirish kelib chiqadi.

"Davlatni egallab olish" deganda, davlat yoki xususiy sektor vakillari boʻlgan ayrim shaxslar, guruhlar yoki kompaniyalarning oʻz manfaatlari yoʻlida qonunlar, nizomlar, farmonlar hamda davlat siyosatining boshqa vositalari shakllanishiga taʼsir koʻrsatish maqsadida amalga oshiradigan harakatlaridir.

Bunday xatti-harakatlarning oʻlchovi sifatida "davlatning sotilish indeksi" qoʻllaniladi. Mazkur koʻrsatkich parlament qabul qilgan qonunlar, hukumat qarorlari, davlat rahbarining farmonlari, hukumat tuzgan dasturlarning ayrim shaxslar va ijtimoiy guruhlarining xudbin korporativ manfaatiga qanchalik qaratganligini bildiradi. Bu koʻrsatkich qanchalik past boʻlsa, davlat shunchalik "toza" hisoblanadi.

Xalqaro ekspertlar olib borgan tadqiqotlar natijalariga koʻra, MDH mamlakatlari orasida Oʻzbekiston eng "toza" hisoblanadi. Bu yerda 2000-yilga kelib, davlatning sotilish indeksi 1,0 ga teng boʻlib, bu eng past, yaʼni eng yaxshi koʻrsatkich hisoblanadi, chunki boshqa bir qator mamlakatlarda bu indeks 5,5 ga teng.

Korrupsiyani jilovlash uchun qonunlar yaxshi ishlashi talab etiladi. Qonunlarning yaxshi ishlashi ularning yuridik samaradorligini belgilaydi. Ushbu koʻrsatkich Oʻzbekistonda 2001-yilda 2,0 ga teng boʻlib, boshqa mamlakatlar bilan qiyoslanganida oʻrtacha koʻrsatkich hisoblanadi. Bu koʻrsatkich eng yuqori, yaʼni 4,0 ga teng boʻlgan mamlakatlar jumlasiga Vengriya, Ruminiya, Polsha, Bolgariya, Chexiya va Estoniya kirgan⁸¹.

Maʼmuriy korrupsiya qonun-qoidalarini bajarish jarayoniga atayin buzilishlar kiritilishini bildiradi. Korrupsiyaning ushbu turi firmalar va kompaniyalar daromadining pora berish uchun sarflanadigan hissasi bilan oʻlchanadi.

⁸⁰ Ахмеджонов А. Коррупция и ее влияние на экономику. //Экономическое обозрение. №7. 2004. с. 32.

⁸¹ Qobilov Sh.R., Abdullaev N.B. Korrupsiya va xavfsizlik. -T.: Oʻzbekiston, 2006. 21-b.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarda bu ko`rsatkich o`rtacha – 2,2 foiz (Vengriyada – 1,7 foiz, Polshada – 1,6 foiz), MDHda – 3,7 foiz (Rossiyada – 2,8 foiz)ni tashkil etgan.

Korrupsiya shakllari xilma-xil bo`lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste`mol qilib, jamiyat mablag`larini noqonuniy o`zlashtirishigacha kiradi. Biznesda eng ko`p uchraydigan va eng ko`p tarqalgan korrupsiya shakli import va eksport litsenziyalari, valuta nazorati, soliqlarni baholash, imtiyozlar berish, kreditlar olish bilan bog`liq ravishda g`ayriqonuniy to`lovlar va pora talab qilishdir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida korrupsiya va jinoyatchilik xavfsizlikka soladigan tahdidlarni keltirib o`tgan. Asarda ta`kidlanishicha, siyosiy jihatdan olib qaralganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko`rsatish ifodasidir. Mamlakatda jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi, jamiyatning ma`naviy-axloqiy asoslarini yemiradi, jamiyat a`zolarining fuqarolik mavqeini yo`qqa chiqaradi.

Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o`zini obro`sizlantiradi. Nopok yo`l bilan boylik orttirganlar jazodan qutilib qolish va o`zlarining jinoiy sarmoyalarini himoya qilish uchun hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar.

Jinoiy usullar bilan boylik va mo`may pul orttirgan kimsalar o`z xalqlari va mamlakatlarning taqdiriga, ozodlik va mustaqillik ideallariga mutlaqo befarq qaraydilar.

Jahon xo`jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o`zgarishlar jarayoniga tortish sharoitida korrupsiyachilarining xatti-harakatlari nafaqat mamlakatdagi halol fuqarolarni tadbirkorlikdan chetlatadi, balki chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg`otadi ⁸².

8.2. Xufiyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarini kamaytirishda davlatning roli

Tarixiy tajribalardan ma`lumki, xufiyona iqtisodiyot xo`jalik mexanizmining tarkibiy qismi hisoblanadi. Lekin, uning miqyoslarini haddan tashqari kengayib ketishini oldini olish vazifasi aynan davlatning zimmasiga tushadi. Xufiyona faoliyatga davlat tomonidan ta`sir etish masalasi, ayniqsa, jamiyatning bir formatsiyadan boshqasiga o`tish davrlarida, inqirozlar paytida dolzarb bo`lib boradi.

Chunki aynan shunday davrlarda uning miqyoslarini kengayib ketishiga sabab bo`ladigan omillar ta`siri kuchayib boradi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar natijasida katta korxonalar bozorda

⁸² Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O`zbekiston, 1997, 88-92-b.

o`z o`rnini topa olmay yopilib ketishi yoki mayda korxonalar bo`linib ketishi mumkin. Bularidan tashqari yangi korxonalar ham vujudga kelishi mumkin.

O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan, ochiq bozor munosabatlariga o`tishning mashhur besh tamoyilining biri bo`lgan davlatning bosh islohotchi ekanligi to`g`risidagi tamoyilga asoslanilganligi respublikada xufiyona iqtisodiyot miqyoslarini haddan tashqari kengayib ketishini oldini olishda muhim omil bo`ldi.

Respublika Prezidenti I. Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari" asarida ta`kidlanganidek, mashhur besh tamoyilga asoslangan ijtimoiy yo`naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o`tish modeli yildan-yilga ilgarilab borganimiz sari o`zini amalda oqlab, naqadar to`g`ri va puxta ekanini isbotladi. "Birinchi navbatda iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo`lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o`z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o`z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta`minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillar, ayniqsa, dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o`zining dolzarbligi va hayotiyligini yana bir bor ko`rsatmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o`ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta`siridan himoya qiladigan kuchli to`siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi"⁸³.

Lekin, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi u yoki bu darajada respublika iqtisodiyotiga ham ta`sir ko`rsatishi mumkin. Shuning uchun ham davlat iqtisodiyotda kechadigan barcha jarayonlarni nazardan qochirmasligi kerak bo`ladi. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslarini kengayib ketishini oldini olish chora- tadbirlarini amalga oshirish davlat tomonidan tartibga solish borasidagi bir yo`nalish sifatida e`tiborda bo`lishi kerak.

Xufiyona faoliyatga davlat tomonidan ta`sir etish usullari turlicha bo`lib, adabiyotlarda quyidagi usullar ajratib ko`rsatiladi:

- monetar usul. Bunda xufiyona hisob-kitoblarda faqat naqd pul mablag`laridan foydalanish to`g`risidagi gipotezaga asoslaniladi (naqd pul massasining harakati dinamikasi xufiyona iqtisodiyot hajmlari to`g`risida fikr yuritishga imkon beradi);

- daromad va xarajatlar balansi usuli. Bunda deklaratsiya qilinadigan daromadlar xarajatlar summasi hamda tovar va xizmatlar iste`molining real hajmlari bilan taqqoslanadi;

- ish bilan bandlikning tahlili. Hisobga olinmagan ishsizlik darajasining uzoq vaqt saqlanib qolishi xufiyona sektorda band bo`lish imkoniyatlarining mavjudligidan dalolat beradi (ro`yxatga olinmagan ishsizlarning soni xufiyona iqtisodiyot hajmlaridan dalolat beradi);

- texnologik koeffitsiyentlar usuli. Bu usul xarajatlarning texnologik koeffitsiyentlari asosida mahsulot ishlab chiqarishning real hajmlari to`g`risida ma`lumotlar olish imkonini beradi;

⁸³ Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. -T.: O`zbekiston, 2009, 31-b.

- uy xo`jaliklari va korxonalar rahbarlari orasida so`rovlar o`tkazish. Bu xufiyona sektor hajmini ekspert baholash imkonini beradi⁸⁴.

Adabiyotlarda xufiyona faoliyatga davlat tomonidan ta`sir etishning bir nechta yo`nalishlari mavjudligi ta`kidlanadi. Bulardan birinchisi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat strategiyasi bo`lib, u milliy xo`jalik modelining asosiy parametrlarini belgilaydi. Xufiyona iqtisodiyot miqyoslarini kengayib ketishini oldini olish borasidagi strategiyaning muhim elementlari quyidagilardan iborat:

- xufiyona iqtisodiyotni minimumga yetkazish – eng asosiy strategik maqsad;
- halol raqobat asosida milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy parametrlarini shakllantirish;
- monopoliyaga qarshi samarali siyosat olib borish;
- xufiyona iqtisodiyotning yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan miqyoslarini belgilash.

Xufiyona faoliyatga davlat tomonidan ta`sir etishning boshqa yo`nalishlari ham mavjud bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

- mukammal xo`jalik huquqini shakllantirish halol faoliyat olib borish uchun ma`lum rag`batlarni yaratadi;
- mamlakatda axoli turmush darajasini oshirishga va kam ta`minlanganlarni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosat olib borish;
- biznes bilan bo`ladigan munosabatlar. Bunda davlat hokimiyatini xususiy biznes bilan o`zaro munosabatlarida asosiy tamoyillarga rioya qilish ko`zda tutiladi;
- davlatning jazolash funksiyalaridan foydalanish. Bunday funktsiya davlatning kriminal iqtisodiyotga qarshi kurashi bilan bog`liq;
- davlatning tarbiyaviy funksiyasini qo`llash. Bu ta`lim tizimi va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Uning muhim elementlariga quyidagilar kiradi: qonunlarga itoat etish madaniyatini shakllantirish, zo`ravonlik, narkobiznes, fohishabozlik, pornografiyani qoralash, jamiyatning ma`naviy-axloqiy tamoyillari asosida milliy g`oyani shakllantirish;
- fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni amalga oshirish. Bunda oila, diniy tashkilotlar, o`z-o`zini boshqarish organlari, mehnat jamoalari, turli ijtimoiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, ijodiy uyushmalar kabi ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash ko`zda tutiladi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo`lga qo`yish ham xufiyona iqtisodiyotga ta`sir ko`rsatishning bir yo`nalishi hisoblanadi. Xufiyona faoliyatga davlat tomonidan ta`sir etishning mana shu yo`nalishlarini samarali amalga oshirish mamlakatda bunday iqtisodiyotning miqyoslarini kamaytirishga xizmat qiladi.

8.3. O`zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me`yoriy asoslari

2003-yilning 31-dekabrda Avstriyaning Vena shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasi tomonidan BMTning korrupsiyaga qarshi Xalqaro konvensiyasi ma`qullandi. 2008-yilning 7-iyulida O`zbekiston Respublikasining “Birlashgan millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O`zbekiston

⁸⁴ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. –М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.45.

Respublikasining qo`shilishi to`g`risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur konvensiyaning maqsadlari quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- birinchidan, korrupsiyani oldini olishda va unga qarshi kurashishning yanada samaraliroq va amaliyroq choralarini kuchaytirish va qabul qilishda hamjihatlik;
- ikkinchidan, korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bilan birgalikda aktivlarni qaytarish choralarini ko`rishda xalqaro hamkorlik va texnik yordamlarni qo`llab-quvvatlash, yengillashtirish va rag`batlantirish;
- uchinchidan, ommaviy ishlar va ommaviy mulkni boshqarishda halollik, beg`arazlik va mas`uliyatni rag`batlantirish.

Bundan tashqari, respublikada boshqa bir qator hujjatlar ham qabul qilindiki, hozirda ularda belgilangan qoidalarga amal qilib kelinmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi 270-sonli qarorida O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqidagi Nizomga muvofiq, ning asosiy vazifalari belgilandi:

- respublika ichki ishlar organlari ishining strategik yo`nalishlarini belgilash;
- ichki ishlar organlari faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, uni muvofiqlashtirish, ularga tashkiliy-metodik yordam berish va ular faoliyatining samaradorligini ta`minlash;
- ichki ishlar organlari, ichki ishlar vazirligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tizimining faoliyatida qonuniylikni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta`minlash;
- ichki qo`shinlarning jangovar va safarbarlik tayyorgarligini ta`minlash;
- jamoat xavfsizligini ta`minlash va jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash ishlarini tashkil etish;
- fan va texnika yutuqlarini, ijobiy tajribani, boshharuvning progressiv shakllari va ish usullarini joriy etish;
- ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish;
- ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ishlashning yuqori saviyada bo`lishini ta`minlash;

O`zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi Prokuratura to`g`risidagi Qonunining 46-moddasida Prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta`minlovchi inspeksiya tuzilishi ta`kidlangan.

Prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta`minlovchi inspeksiya prokuratura organlari xodimlari tomonidan sodir etilgan xizmat mavqeini suiiste`mol qilish, korrupsiya va egallab turgan lavozimiga nолоyiq boshqa nojo`ya xatti-harakatlar to`g`risidagi ma`lumotlar bo`yicha xizmat tekshiruvini o`tkazadi.

Prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta`minlovchi inspeksiya o`z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-maydagi “Xususiy mulk va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori e`lon qilindi. Unga muvofiq bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitlarida uyushgan jinoyatchilikka va korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish, reket va poraxo`rlik hollariga barham berish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar Ichki ishlar

boshqarmalari va Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tuzilmalarida korrupsiya, reket va terrorchilikka qarshi kurash boshqarmalari tashkil etish belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-martdagi “1997-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari, iqtisodiy islohotlarning borishini baholash va 1998-yilda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo`nalishlari to`g`risida”gi qarorida 1998-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ustuvor yo`nalishlaridan biri etib korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish belgilangan. Mazkur qarorning 12–bandida O`zbekiston Respublikasi Prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Davlat bojxona qo`mitasi, Davlat soliq qo`mitasi hamda Oliy sudi korrupsiyaga, uyushgan jinoyatchilikka va boshqa salbiy hodisalarga qarshi kurashishni kuchaytirish to`g`risidagi qonunchilik hujjatlarining bajarilishi yuzasidan ta`sirchan va qattiq chora-tadbirlar ko`rish, ushbu ishni respublika huquqni muhofaza qilish barcha organlarining ustuvor vazifalari deb hisoblash, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini attestatsiyadan o`tkazishni amaliyotga joriy etish vazifasi belgilangan. Ushbu maqsadlarda prokuratura, militsiya, adliya, bojxona va soliq qo`mitalari tizimlarida kadrlarni attestatsiyadan o`tkazish va ko`rsatib o`tilgan organlar xodimlari safining tozaligiga rioya etish bo`yicha maxsus inspeksiyalar tashkil qilish ko`zda tutilgan edi. Bundan tashhari, O`zbekiston Respublikasi Prokuraturasiga boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda korrupsiyaga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlariga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari Dasturlarini ishlab chiqish topshirilgan edi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-maydagi 180-sonli qarorida O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi to`g`risida Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizomning 8.9-bandiga muvofiq, o`z xavfsizligini, rejimni ta`minlash va davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya hollarining oldini olish uchun:

- soliq organlari mansabdor shaxslari tomonidan g`arazli maqsadlarda soliq to`lovchilarga nisbatan g`ayriqonuniy ta`sir ko`rsatishi mumkin bo`lgan hollarni aniqlaydi va ularga barham beradi;

- soliq organlarida korrupsiya hollarini aniqlashga, ularning oldini olish va ularga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, tashkil etadi va ularni amalga oshirishda qatnashadi;

- soliq organlarida korrupsiya hollari to`g`risidagi axborotni umumlashtiradi va tahlil qiladi, profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

- soliq organlari tizimida korrupsiya rivojlanishiga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko`radi;

- soliq organlari xodimlari xizmat vazifalarini bajarayotganda ularni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta`minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq haqidagi qonunlarga rioya etilishini nazorat qiladi;

- qonun hujjatlariga muvofiq soliq to`lovchi to`g`risidagi ma`lumotlarning sir saqlanishiga rioya etish ishlarini tashkil etishlari ko`rsatiladi.

2006-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliya-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoyatlarga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti tashkil etildi. Ushbu departament to'g'risidagi Nizomda Departamentning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan: davlat soliq siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilarning qamrab olinishi va hisobini to'liqligini ta'minlash, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, qochish mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini, "xufiyona" iqtisodiyotning shakllanishi yo'llarini, korrupsiya holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish.

Respublikada korrupsiyani oldini olish borasida ko'rilgan samarali chora-tadbirlar natijasida juda ko'p qonunbuzarliklarning oldi olindi va davlat hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilindi.

O'zbekiston Milliy axborot agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2003-yilda O'zbekistonda soliq va valuta qonunchiligini buzish faktlari yuzasidan 12 mingdan ziyod ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Tezkor tadbirlar o'tkazish natijasida 200 dan ortiq soxta firmalar faoliyati ochib tashlandi, ular 100 mlrd. so'mdan ziyod tovar aylanishini yashirganliklari aniqlandi. Mamlakatga noqonuniy yo'l bilan tovar keltirish va uni ichki bozorda sotish bilan bog'liq 4 mingdan ko'proq qonunbuzarlik holatlari aniqlandi. Qonunbuzarlarga qarashli 4,14 mlrd. so'mlik tovar-moddiy boyliklar musodara etildi. Bundan tashqari, mingga yaqin davlat ro'yxatidan o'tmagan yashirin sexlar faoliyati tugatildi.

Shunday qilib, O'zbekistonda mustaqillik yillarida korrupsiyaga va xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan qonuniy va me'yoriy baza yaratildi va qonuniy hujjatlarning barchasi xalqaro me'yorlarga moslashtirildi. Bu o'z navbatida o'tish davrida korrupsiya va xufiyona iqtisodiyotning miqyoslarini oldini olish imkonini berdi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni qaror topishi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratdi.

Qisqacha xulosalar

Korrupsiya faqat bir ko'rinishda namoyon bo'ladigan hodisa bo'lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. Korrupsiya shakllari xilma-xil bo'lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste'mol qilib, jamiyat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirishigacha kiradi.

Korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasi bo'lib, uning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishiga olib keladi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemiradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublikada qisqa davr ichida korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurash uchun qonuniy va me'yoriy asoslar yaratildi. Qonun va me'yoriy hujjatlar xalqaro me'yorlardan kelib chiqib ishlandi.

Nazorat savollari

1. “Korrupsiya” iborasi nimani anglatadi?
2. Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari nimada?
3. Korrupsiya va jinoyatchilikning xavfsizlikka soladigan tahdidlari nimalardan iborat?
4. Respublika Prezidenti I. Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida keltirilgan korrupsiya va jinoyatchilik xavfsizlikka soladigan tahdidlarni aytib bering.
5. O`zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda qanday tamoyillarga asoslanildi?
6. Respublikada korrupsiyaga qarshi kurash borasida qanday hujjatlar qabul qilindi?
7. Korrupsiyaga qarshi kurashda soliq organlarining roli va o`rni qanday?
8. Soliq organlaridan tashqari yana qanday tashkilot korrupsiyaga qarshi kurash olib boradi?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O`zbekiston, 1997.
2. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2007.
3. Григорьев Л., Овчинников М. Коррупция как препятствие модернизации (институциональный подход). //Вопросы экономики. №2, 2008, с.44 – 59.
4. Гуреев С. Что известно о коррупции в России и можно ли с ней бороться? //Вопросы экономики. №1, 2007, с.11 – 18.
5. Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. - М.: ДЕЛЮ, ЭКОНОМИКА., 2005, с.33.

GLOSSARIY

1. Iqtisodiy xavfsizlik–iqtisodiy kategoriya. U iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o`shish ta`minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarining himoyalangan holatini ifodalaydi.

2. Milliy xavfsizlik – manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma`naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo`lish va farovonlikka intilish to`g`risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi.

3. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – har bir davlat, ya`ni dunyo hamjamiyati a`zosining o`z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta`minlangandagi holati.

4. Korxonalar (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi – ma`muriyat va personal tomonidan amalga oshiradigan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va injener-texnik choratadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holati.

5. Iqtisodiy xavfsizlik mezonlari–iqtisodiy xavfsizlik mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy holatni baholash.

6. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko`rsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarining miqdor jihatdan ifodalanishi.

7. Tahdid – jamiyat, davlat va ularning subyektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro`yobga chiqarishga to`sqinlik qiladigan, ziyon-zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug`diradigan omillar va shart-sharoitlar.

8. Ichki tahdidlar – mamlakat ichida vujudga keladigan tahdidlar.

9. Globallashtirish – iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o`tish davrining mahsuli bo`lib, jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayon.

10. Terror – lotincha “terror” degani “qo`rqinch”, “dahshat” ma`nosini anglatadi.

11. Terrorizm – terrorni amalga oshirish.

12. Siyosiy terrorizm – siyosiy arboblarga, ular o`tkazayotgan siyosatga, hukumatlarga, ta`sir o`tkazish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar.

13. Axborot sohasida terrorizm – jamiyat a`zolarining ruhiyatiga, xulq-atvoriga ta`sir ko`rsatish.

14. Iqtisodiy sohadagi terrorizm – terroristlarning iqtisodiy manfaatlariga erishish maqsadida raqiblariga, axolining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta`sir o`tkazish.

15. Ijtimoiy terrorizm – jinoyatchilik miqyoslarining kengayishi, kriminal vaziyatning keskinlashuvi, umumiy ijtimoiy beqarorlikning vujudga kelishi.

16. Oziq-ovqat xavfsizligi – davlatning mamlakat va uni mintaqalarini oziq-ovqat bilan ta`minlash tizimida turli tabiiy ofatlar favqulodda holatlar natijasida yuzaga keladigan buzilishlarni oldini olishga bo`lgan qodirligini ham ko`zda tutadi.

17. “Xufiyona iqtisodiyot” – jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlar xarajati. Alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o`rtasidagi davlat boshqaruv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi.

18. Rasmiy iqtisodiyot – davlat tomonidan kuzatiladigan va nazorat qilinishi mumkin boʻlgan iqtisodiyot.

19. Yashirish yoki norasmiy iqtisodiyot – rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettirilmaydigan xoʻjalik munosabatlari yigʻindisi.

20. “Korrupsiya” – lotincha (corruptio) soʻz boʻlib, buzilish degan maʼnoni anglatadi. Korrupsiya xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufiyona iqtisodiyotning koʻrinishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O`zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O`zbekiston, 2008.
2. “O`zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik Konsepsiyasi to`g`risida”gi Qonuni. 2005-y.
3. O`zbekiston Respublikasining “Monopolistik faoliyatni cheklash to`g`risida”gi Qonuni. 1993-y.
4. O`zbekiston Respublikasining “Tovarlar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to`g`risida”gi Qonuni. 1996-y.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari

5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta`minlash va eksport salohiyatini oshirish bo`yicha chora-tadbirlar Dasturi to`g`risida»gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2008-yil 2-dekabr.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2008-yil 19-noyabr.
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to`g`risida»gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2008-yil 4-dekabr.
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni. //Xalq so`zi, 2010-yil 27 –fevral.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

9. Karimov I.A. 2009-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi. //Xalq so`zi, 30-yanvar 2010-yil.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruza. -T.: O`zbekiston, 2010.
11. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataf etishning yo`llari va choralari. -T.: O`zbekiston, 2009.
12. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma`naviyat, 2009.
13. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. -T.: O`zbekiston NMIU, 2007.
14. Karimov I.A. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. //Xalq so`zi, 2007-yil 31-avgust.
15. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O`zbekiston, 1997.

16. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. - T.: O`zbekiston, 1995.

Monografiya, darslik va o`quv qo`llanmalar

17. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб.: Питер 2007.

18. Экономическая безопасность: Учеб. пособие для студентов экономических вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. /Под ред. В.А. Богомолова. -М.: ЮНИТИ ДАНА, 2009.

19. Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие. ИЭ РАН. -М.: ЗАО Финстатинформ, 2002.

20. Международные стратегии экономического развития: Учеб. пособие. /Под ред. Ю.В. Мокогона. – К.: Знание, 2007.

21. Мировая экономика: социально – ориентированный подход: учеб. пособие. /Под. Ред. В.В. Козловский, Э.А. Лутохина.– Мн.: ИВЦ Минфина, 2005.

22. Ечмаков С.М. Теневая экономика. Анализ и моделирование. – М.: Финансы и статистика, 2004.

23. Мировая экономика и международные экономические отношения. Под ред. А.С. Булатова, Н.Н.Ливенцева. -М.: Магистр, 2008.

24. Экономическая и национальная безопасность. Учебник /Под ред. д.э.н., проф. Л.П. Гончаренко. -М.: ЗАО Экономика, 2008.

25. Международная экономика: теория и практика. Учебник для вузов. - СПб.: Питер. 2008.

26. Гайдар Е. Долгое время. Россия в мире: очерки экономической истории. -М.: ДЕЛО, 2005.

27. Подберезкин А. Человеческий капитал. Т. I. -М.: Европа, 2007.

28. Экономическая безопасность России. Учебник. /Под общ. ред. акад. Сенчагова В.К. -М., 2005.

29. Гапоненко В.Ф., Беспалько А.А., Власков А.С. Экономическая безопасность предприятий. Подходы и принципы.- М.: Осъ – 89, 2007.

30. Ortiqov A., Isaxodjaev A., Shestakov A. Xufiyona iqtisodiyot. -T., 2002.

31. Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. -М.: ДЕЛО, ЭКОНОМИКА. 2005, с.33.

32. Вводный курс по экономической теории. – М.: ИНФРА-М, 1997, 233-234 – бетлар.

33. G`oyibnazarov V.K. Axoli turmush darajasini statistik baholash. -T.: Fan, 2005, 8-b.

34. Rasulev A., Isaxodjaev A. Xufiyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. – T.: 2006.

35. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. – T.: Akademiya, 2006.

Jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar

36. Иванов Ю. О глобальном международном сопоставлении ВВП по 146 странам мира. //Вопросы экономики. №5, 2008, с.22 - 35.

37. Юдаева К., Ясин Е. Стратегия – 2050: Справится ли Россия с вызовами глобализации? //Вопросы экономики. №5, 2008, с.4 - 21.
38. Рапопорт Г., Герц А. Глобальный экономический кризис 2008 – 2009: истоки и причины. //Вопросы экономики. №11, 2009, с.18 - 31.
39. Хлутков А. Инвестиционная составляющая в механизме обеспечения экономической безопасности России. //Известия Санкт–Петербургского университета, №3, 2008. 44 - 53.
40. Фейгин Г. Развитие национальных экономик в условиях глобализации: историко-экономический аспект. //Известия Санкт–Петербургского университета. №2, 2009. 14 - 24.
41. Паньков В. Глобализация экономики: сущность, реалии, виды на будущее. //Международная экономика. №6, 2009, с.4 - 20.
42. Ковтунова С. Экономическая безопасность промышленных предприятий в условиях рыночной экономики. //Известия Санкт–Петербургского университета. №3, 2009. 131-135.
43. Коробов В. К вопросу о характеристике «Экономической безопасности» как научной дисциплины. //Известия Санкт – Петербургского университета. №4, 2008. 124 - 126.
44. Григорьев Л., Овчинников М. Коррупция как препятствие модернизации (институциональный подход). //Вопросы экономики. №2, 2008, с.44 - 59.
45. Алтухов А. Продовольственная безопасность как фактор социально – экономического развития страны. //Экономист, №5, 2008 . с.33-43.
46. Фролов Д. Анализ теневой экономики: институциональный подход. //Экономист, №9, 2008 . с.65-71.
47. Сейбол С. Международный терроризм и страны Центральной Азии: поспешные выводы. //Центральная Азия и Кавказ. №5, 2008, с.161-168.
48. Носенко В. Борьба с международным терроризмом и мусульманский мир. //Мировая экономика и международные отношения. №3, 2007, с. 29-36.
49. Пузырев Д. Терроризм в современных международных отношениях. //Мировая экономика и международные отношения. №8, 2008, с. 63 - 67
50. Гуреев С. Что известно о коррупции в России и можно ли с ней бороться? //Вопросы экономики. №1, 2007, с.11-18.
51. Потенциал гипертерроризма: смертельная угроза человечеству. //Мировая экономика и международные отношения. №7, 2008, с. 116-126.
52. Колганов М. Особенности предпринимательства в переходной экономике. //Вопросы экономики, №1, 1999, с.77-78.
53. Abduraxmonov Q.X., Imomov V. O`zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. - T., 2008. 146-b.
54. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2008 y. №49, 6-b.
55. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. №17-18, 2005, aprel-may, 6-b.

Statistik to`plamlar

56. Yillik statistik to`plam. 2008. – T., 2009, 33-b;
57. Uzbekistan в цифрах. 2009. – T., 2009, с.31.

MUNDARIJA

KIRISH	4
I – bob. IQTISODIY XAVFSIZLIK FANINING PREDMETI, ASOSIY USULLARI	6
1.1. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi: uning ta`rifi va mazmuni	6
1.2. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti, ob`yekti va maqsadi	10
1.3. Iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlari (indikatorlari)	12
II bob. IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA`SIR ETUVCHI TAHDIDLAR VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASH ZARURATI	18
2.1. Iqtisodiy xavfsizlikka ta`sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar	18
2.2. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta`siri	20
III bob. TERRORIZM, EKSTREMIZM, XALQARO UYUSHGAN JINOYATCHILIKNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA`SIRI VA UNGA QARSHI KURASHDA REGIONAL TASHKILOTLARNING ROLI	26
3.1. Terrorizm va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta`siri	26
3.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda regional tashkilotlarning o`rni va roli	28
IV bob. MAMLAKAT IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH, IQTISODIYOTNING REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIK	32
4.1. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish-iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash omili	32
4.2. Iqtisodiyotning real sektorida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi	38
V bob. MAMLAKATDA AXOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH – IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASH OMILI	45
5.1. Axoli turmush darajasi	45
5.2. Ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikator sifatida	48
5.3. Oziq-ovqat xavfsizligi ta`minlash zaruriyati	54
VI bob. KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI	61
VII bob. XUFIYONA IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA`SIRI	66
7.1. Xufiyona iqtisodiyot global muammo sifatida	66
7.2. Xufiyona iqtisodiyot mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida	68
VIII bob. IQTISODIYOTNING KRIMINALLASHUVI SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASH ZARURATI VA UNDA DAVLATNING ROLI	79
8.1. Korrupsiya va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta`siri	79
8.2. Xufiyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarini kamaytirishda davlatning roli	85
8.3. O`zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me`yoriy asoslari	87
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	94

D. ORTIQOVA

IQTISODIY XAVFSIZLIK

O`quv qo`llanma

Muharrir: Mirboboyeva S., Vahobova M., Boboyeva N.
Komp'yuterda saxifalovchi: Nasirxodjayeva D.

Terishga berildi: 20.06.2011.
Hajimi: 7,1 b.t.

Format: 60x80 1/16
Nusxa: _____

“Iqtisodiyot” nashriyotida chop etilgan. Toshkent, 700063, ul. O`zbekiston ko`chasi
49 - uy.